

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Gulnoz Xalliyeva

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

Toshkent
«Akademnashr»
2020

UO'K:
KBK:

Qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlar keng qamrovli tahlilni amalga oshirishni taqozo etadi. E'tiboringizga havola qilinayotgan qo'llanmada qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasiga oid eng muhim ilmiy-nazariy tushunchalar yoritilgan. Qo'llanma filologiya yo'nalishidagi barcha talaba, magistr va tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

B.Karimov – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

A.Qosimov – filologiya fanlari doktori, professor

U.Jo'raqulov – filologiya fanlari doktori

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2019-yil 27-dekabrda 1186-son buyrug'i bilan 5120900 – O'zbek-ingliz
tarjima nazariyasi va amaliyoti ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

O'quv qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy kengashining 2019-yil 28-avgustdagi 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN

© Gulnoz Xalliyeva
«Qiyosiy adabiyotshunoslik»
© «Akademnashr», 2020

KIRISH

Fanning maqsad va vazifalari

Qiyosiy adabiyotshunoslik yoki adabiy komparativistika ikki va undan ortiq adabiy hodisaning qiyoslanishiga asoslangan fan yo'nalishidir. Xalqaro ijtimoiy, madaniy va adabiy aloqalar kundan kunga rivojlanayotgan zamonamizda qiyosiy adabiyotshunoslik kelajagi yorug' fan yo'nalishlaridan biridir.

Har qanday qiyosiy tadqiqotda adabiy hodisalarning musharak va o'ziga xos jihatlari aniqlanadi. Bu esa adabiyotlararo umumiy nazariy qonuniyatlarning yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Fanning maqsadi talaba, magistr va barcha tadqiqotchilarga komparativistika, qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi haqida nazariy ma'lumotlarni yetkazish, badiiy asarlarni qiyosiy tadqiq qilish usullarini tushuntirish, bu boradagi bilimlarini takomillashtirishdir. Shuningdek, «...adabiy hodisalar (tasviriy vositalar, badiiy asar, yozuvchilarning adabiy merosi, adabiy maktablar, janrlar va h.k.)ning tipologik va genetik mohiyatini aniqlash, tarixiy fenomen yoki konkret-tarixiy shartlanganligini hisobga olmasdan, adabiy fakt sifatida adabiy hodisaga tegishli bo'lgan ichki qonuniyatlarini namoyon qilishdan iborat»¹.

Fanning vazifasi qiyosiy-tarixiy metod va uning asoschilari, asosiy tushunchalari; makro va mikrokomparativistika; Sharq va G'arb adabiy aloqalari, tarjima tanqidi, badiiy matnning qiyosiy tahlili mezonlari kabilar haqida nazariy bilim berish va tadqiqotchilarda adabiy hodisalarni qiyoslash va chog'ishtirish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

¹Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1979. – С.69.

Mazkur fanni o'zlashtirish davomida talaba, magistr va tadqiqotchilar:

- qiyosiy tadqiq metodologiyasi va uning asosiy tushunchalarini izohlay olishi;
- qiyosiy adabiyotshunoslikka oid asosiy adabiyotlarni va ularning qisqacha mazmunini bilishi;
- tarjima, tarjima turlari, tarjima tanqidi haqida umumiy tasavvurga, original va tarjimani qiyoslashga oid muayyan bilimga bo'lishi;
- qiyoslash orqali adabiy hodisalarning umumiy va xos tomonlarini aniqlash, poetika, adabiy aloqalar va adabiy ta'sir masalalarini tahlil qilish bo'yicha malakalarni egallashi lozim.

Qiyosiy adabiyotshunoslik, badiiy asarlarni qiyosan o'rganish metodologiyasi va tamoyillari bo'yicha Yevropa, Rossiyada juda ko'p darslik va o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Ular adabiy komparativistikaning turli xil masalalariga bag'ishlangan. Ammo o'zbek adabiyotshunosligida bu borada hanuz darslik yaratilmagan. Shuningdek, qiyoslash metodining yaxlit nazariyasi, metodologiyasi va metodikasi ishlab chiqilmagan. Qiyoslash usulining tahlil, sintez, induksiya, deduksiya va hokazolarga munosabati va o'zaro aloqasi borasida muayyan to'xtamga kelinmagan. Nimani, qachon, nima bilan, nima uchun qiyoslasa bo'ladi, kabi savollarga o'zbek adabiyotshunosligining zamonaviy nazariyasi bizga to'liq va aniq javoblar bermagan.

D.Bahronovanning ispan tilidagi, A.Qosimov, A.Hamroqulov, S.Xo'jayevlar birgalikda tayyorlagan o'zbek tilidagi o'quv qo'llanmalarini bu boradagi dastlabki qadam sifatida baholash mumkin¹. Mazkur qo'llanmalarda sohaning taraqqiyot bosqichlari, asosiy adabiy aloqa turlari hamda qiyosiy tahlil masalalari yoritilgan.

¹ Bahronova D. Literatura comparada. – Tashkent: Turon, 2019; Qosimov A., Hamroqulov A., Xo'jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2019.

O'zbekistonda har yili «Qiyosiy adabiyotshunoslik, cho'g'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik» (10.00.06) ixtisosligi bo'yicha o'nlab ilmiy tadqiqotlar qilinayotganiga qaramay, o'quv-metodik manba yaratish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Natijada qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasini yaxshi o'zlashtirmasdan turib, ilmiy ishlar yuzaga kelmoqda. Bu esa komparativistika yo'nalishidagi tadqiqotlarning umumiy saviyasiga ta'sir qilmoqda.

Aynan shu ehtiyoj tufayli mazkur o'quv qo'llanma yaratildi va asosiy e'tibor qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasiga qaratildi. Bundan tashqari, qiyosiy adabiyotshunoslik mohiyatini yorqin misollarda ko'rsatish maqsadida O'zbekistonda amalga oshirilgan ilmiy ishlar ro'yxati va ulardan ayrim namunalari ham berildi. Shuningdek, jahon adabiyotshunosligida tanilgan komparativist olimlar va ular yaratgan ilmiy asarlar haqida ham qisqacha axborot berildi.

Albatta, o'z fikrlarimizni yoritishda bizdan oldin bu borada bildirilgan Yevropa, Rossiya, o'zbek olimlarining nazariy qarashlariga tayandik. Ayniqsa, N.Konrad, M.Jirmunskiy, A.Dyurishin, I.Neupokoyeva, A.A.Kokorin kabi olimlarning fikr mulohazalari biz uchun metatekst vazifasini bajardi. Shuning uchun bizga qadar qiyosiy adabiyotshunoslik nazariyasi va metodologiyasini shakllantirgan barcha olimlarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

1-mavzu:
FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA:
MAZMUNI VA MOHIYATI

Reja:

- 1.1. Filologik komparativistika haqida tushuncha
- 1.2. Adabiy komparativistikaga xos xususiyatlar
- 1.3. Qiyosiy adabiyotshunoslik fan sifatida

Tayanch tushunchalar: *komparativistika, qiyosiy adabiyotshunoslik, qiyosiy-tarixiy metod, D.Dyurishin, A.N.Veselovskiy, N.Konrad, I.Neupokoyeva, makro va mikrokomparativistika.*

Komparativistika (lot.comparativus – qiyosiy) turli xil jarayonlarning qiyosiy o'rganilishiga asoslangan fan yo'nalishi bo'lib, boshqa sohalar qatorida til va adabiyotni ham qamrab oladi.

Mazkur termin birinchi marta Fransiyada («littérature comparée», 1817), keyin Angliyada («Comparative literature» 1886), Germaniyada (jurnal nomlanishida «Zeitschrift für vergleichende Literaturgeschichte», 1887–1910), Rossiyada (1889 yil A.N.Veselovskiy tadqiqotlarida) qo'llanila boshlangan.

Filologik komparativistika til va adabiyot sohasida olib boriladigan qiyosiy tadqiqotlardir. Shu jihatdan filologik komparativistika ikkita katta guruhga ajratiladi:

1. Lingvistik komparativistika, ya'ni qiyosiy tilshunoslik.
2. Adabiy komparativistika – qiyosiy adabiyotshunoslik.

Lingvistik komparativistika, bir-biriga yaqin bo'lgan va yaqin bo'lmagan tillarni turli yo'nalishlarda qiyosan o'rganishni

maqsad qiladi. «Tillarni qiyosiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish, ularga tarixiylik jihatidan yondashish kabilar qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishiga, tilshunoslikning alohida, mustaqil fan sifatida qat'iy tan olinishiga zamin yaratdi»¹. Adabiy komparativistika barcha adabiy hodisalarning musharak va o'ziga xos jihatlarini o'rganadi va ular uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Adabiy komparativistikaga xos xususiyatlar

Adabiy komparativistikaning **obyekti** adabiy jarayondir. Badiiy adabiyotni o'rganish bilan bog'liq barcha masalalar (*mas., asar syujeti va kompozitsiyasi, mazmun va shakl, badiiy asar tili, yozuvchi uslubi va h.k.*) adabiy komparativistikaning predmetini tashkil etadi. *Sintetizm, mentallik, retseptiv estetika, intertekst(lik), paratekst(uallik), metatekst, gipertekst, arxitekst, imagologiya, vorislik, semiotika, tipologiya, motiv* boshqa atamalar qiyosiy adabiyotshunoslikning asosiy tushunchalari hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, asarning syujeti va kompozitsiyasi, asar tili, motivlar, tarjima, asar poetikasi, yozuvchi mahorati, o'zga xalqning boshqa bir xalq adabiyoti haqidagi qarashlari, ya'ni, adabiy retsepsiyasi (o'zga xalq adabiyotini qabul qilish jarayoni) qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti bo'lishi mumkin. (*masalan, «Navoiy rus kitobxonini nihida», «Pushkin va o'zbek kitobxonini», «Fitratshunos yaponlar» kabi mavzular*) Shuningdek, ayni badiiy asarga olimlarning turlicha qarashlarini (masalan, «Boburnoma» haqida o'zbek, rus, yapon, nemis olimlarining ilmiy izlanishlari), xalqaro

¹ Batafsil qarang: Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2010. – 5.78 – 115.

adabiy aloqalar, o'zaro ta'sir, an'anaviylik va novatorlik, turli xil san'at (*musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, kino*) turlarining adabiyotga ta'siri kabi masalalarni ham qiyosan o'rganish mumkin.

Sharqshunos N.I.Konrad (1891–1970) qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti bo'lishi mumkin bo'lgan 5 ta jihatga e'tiborni qaratadi: 1. Tarixiy umumiylikka ega millat adabiyotlari qiyosi (mas., fors va tojik). 2. Turli xalqlar adabiyotida tipologik xususiyatlar qiyosi (mas., XIX asr klassik realizmi). 3. Turli makon va zamondagi xalqlar adabiyoti qiyosi (mas., rus va o'zbek adabiyoti). 4. Bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda tipologik xususiyatlarga ega bo'lgan adabiyotlar qiyosi (mas., ritsarlik romanlari va yapon harbiy epopeyalari). 5. Xalqlararo adabiy aloqalar qiyosi. Bu o'rinda olim adabiy ta'sir va adabiy aloqalarga alohida urg'u beradi¹.

V.M.Jirmunskiyning (1891–1971) ta'kidlashicha, yozuvchi ijodini unga ta'sir o'tkazgan milliy va xalqaro adabiy an'analar bilan qiyosan o'rganish ham juda katta metodik ahamiyatga ega bo'lib, adibning ijodiy individualligini, milliy va jahon adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlashga yordam beradi².

Germaniyada nashr qilingan monografiyada komparativistika fani 1) adabiyot nazariyasi komparativistikasi (Dichtungsliteraturtheorie); 2) adabiyot tarixi komparativistikasi; 3) komparativ intermedial tadqiqotlar (komparatistische Intermedialitätsforschung / Comparative Arts); 4) komparativ madaniyatshunoslik (komparatistische Kulturwissenschaft)

kabi to'rtta guruhga ajratilgan¹. Bu o'rinda mualliflar adabiyot bilan aloqasi bo'lgan har bir hodisani komparativistika nuqtayi nazaridan o'rganish mumkinligi nazariyasini ilgari surgan.

Bundan tashqari komparativistika nazariyasiga ko'ra adabiy jarayonni ikki xil yondashuv orqali qiyoslash mumkin:

1. Adabiy jarayonga tarixiy genetik yondashuv (*kelib chiqishi jihatidan bir xil yoki yaqin xalqlar adabiyoti*);

2. Adabiy jarayonga qiyosiy tipologik yondashuv (*kelib chiqishidan qat'iy nazar umumiy tomonlarga ega bo'lgan xalqlar adabiyoti*).

Masalan, turli xalqlar adabiyotidagi abadiy mavzular, an'anaviy qahramonlar, janrlar, adabiy yo'nalishlarni o'rganish masalasi.

Adabiyotni qiyosan o'rganish jihatdan komparativistika ikki katta guruhga bo'linadi.

1. Makrokomparativistika – genetik jihatdan bog'lanmagan turli millat doirasidagi adabiy hodisalarning qiyosiy tahlili (*masalan: Shekspir va Navoiy ijodi*).

2. Mikrokomparativistika – bir millatga yoki hududga (region) mansub adabiy hodisalarning qiyosiy tahlili (*masalan: A.Qahhor va O'.Hoshimov, Yassaviy va Maxtumquli ijodi sin-gari*).

Adabiyotshunos olimlarning ilmiy ishlarini qiyosan o'rganish ham makro yoki mikrokomparativistika obyekti bo'lishi mumkin. Ye.E.Bertels (1890–1957) va A.N.Malexova (1938–2009) bir makonda yashab ijod etgan rus olimlaridir. Ularning

¹ Конрад Н.И. Избранные труды. Литература и театр. – М.: Наука, 1978. – С.32 – 33.

² Жирмунский В.М. Проблемы сравнительно-исторического изучения литератур // Известия АН. Т.ХІХ. Вып. 3. – М., 1960. – С.183.

¹ Handbuch Komparatistik: Theorien, Arbeitsfelder, Wissenspraxis / Hrsg. von Zymner R., Höfter A. – Stuttgart: Verlag J.B. Metzler, 2013. – 405 s; Bu haqda qarang: Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 7 // Литературоведение: Реферативный журнал. – М., 2016. – С.7 – 21.

«Lison ut-tayr» dostoniga oid ilmiy izlanishlari mikrokomparativistika obyekti hisoblanadi. Har ikkala sharqshunosning ilmiy qarashlarini qiyosan o'rganish shunday xulosalarga kelish imkonini berdi¹:

1. Ye.E.Bertels (1928) va A.N.Malexova (1978) tadqiqotlarida germenevtik ta'limot (talqin) muvozanati buzilmagan, matn mohiyati o'tkinchi g'oya va mafkuraviy manfaatlar uchun qurbon qilinmagan. Ye.E.Bertelsning 40-yillardagi tadqiqotlari haqida bunday deyish qiyin, chunki qatag'on siyosati olimni davr mafkurasi bilan hisoblashishga majbur qilgan; Har ikkala sharqshunosning asar syujeti, Navoiyning tasavvuf ta'limotiga aloqasi, Foni taxallusini tanlash sababi, Sharq naziranasivligi xususidagi fikrlari deyarli hamohang. Masalan, Navoiy va tasavvuf masalasida Ye.E.Bertels shoirning tasavvuf ta'limotini chuqur bilgani, ammo so'fiy amaliyotchi bo'lmaganini qayd qilsa, A.N.Malexova tasavvuf shoir uchun maqsad emas, vosita bo'lganini ta'kidlaydi.

2. Ye.E.Bertels masalaga tarixiy-biografik, A.N.Malexova struktur-sistematik jihatdan yondashadi. Olim hikoyatlar mohiyatini siyosiy, ijtimoiy-madaniy kontekstda mayda unsurlarigacha tahlil qiladi, A.N.Malexova esa asosiy e'tiborini asarning ichki kompozitsiyasi, muallif shaxsiyati, hikoyatlar tipologiyasi tadqiqiga qaratadi.

3. Har ikkala tadqiqot mohiyatan bir-birini to'ldiradi. Ye.E.Bertels va A.N.Malexova qarashlardagi fikrlar tadriji «Lison ut-tayr» dostonini turli aspektda o'rganish mumkinligi va davomiyligini ko'rsatadi.

¹ Халлиева Г. XX аср Россия шарқшунослиги ва ўзбек мумтоз адабиёти. Монография. – Тошкент: Мухаррир, 2018. – Б.133 – 134.

Qiyosiy adabiyotshunoslik fan sifatida

Fan tarixidan ma'lumki, qiyosiy adabiyotshunoslik haqida dastlabki nazariy qarashlar adabiy jarayonlarning o'xshash va farqli tomonlarini izohlash ehtiyoji tufayli XIX asrning boshlarida Yevropada, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya-da shakllangan¹.

Qiyosiy tadqiqotlar dastlab tilshunoslik yo'nalishida olib borilgan va keyinchalik adabiyotshunoslikka ham o'z ta'sirini o'tkazgan. «Qiyosiy-tarixiy metod rivojida Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm kabi Yevropa tilshunoslarining alohida hissasi bo'lib, ular novator tilshunoslar sifatida maydonga chiqdilar»².

Ilk nazariy komparativistik qarashlar Germaniyada shakllangan. Nemis tarixchisi I.G.Gerder (1744-1803) va buyuk adib I.V.Gyote (1749-1832) tadqiqotlari, ayrim asarlari aynan qiyosiy yo'nalishda yaratilgan. I.G.Gerder birinchilardan bo'lib e'tiborini Yevropa xalqlari madaniy hayotidagi umumiy jihatlarga qaratadi. Uning g'oyalarini davom ettirgan buyuk adib I.V.Gyote esa fanga «jahon adabiyoti» tushunchasini olib kiradi. O'zining «G'arb-u Sharq devoni»da Sharq va G'arb madaniyatiga xos mushtarak jihatlarni yoritadi.

Rus sharqshunosligida qiyosiy-tarixiy metod rus tarixchisi va nazariyotchisi A.N.Veselovskiy (1838–1906) nomi bilan bog'liq. Olim mazkur atamani birinchi bo'lib fanda muomalaga kiritgan. «Qiyosiy-tarixiy metod umumjahon adabiy jarayonini tadqiq etganda ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning rivojlantirish qonuniyatlariga asoslanadi. Chunki tarixiy jarayon har bir geografik mintaqada doirasida o'ziga xos belgilarga ega bo'lgani

¹ Batafsil qarang: Академические школы в литературоведении. – М., 1975.

² Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2010. – Б.81.

holda, bir qator umumiy qonuniyatlarga ham egaki, aynan shu qonuniyatlardan kelib chiqib, turli xalqlar adabiyotlarini qiyosiy aspektda o'rganish mumkin»¹ Shuning uchun, dastlabki tadqiqotlaridayoq A.N.Veselovskiy masalaga tarixiylik prinsipi asosida yondashgan. Masalan, nemis olimi G.Flotioning «Ilohiy komediya» haqidagi maqolasiga(1859) taqrizida, yozuvchini zamondan ayri holda tasavvur qilish qiyinligi, Dante ijodiy merosi faqat Danteniki emas, bunda davrning ham rolini anglash joizligi haqida fikr bildirib, G.Flotioning ayrim qarashlarini tanqid qiladi.² Uning nazarida **adabiyot tarixi – ijtimoiy fikr, madaniyat va fan tarixidir**, shoir shaxsiyatini esa ma'lum tarixiy sharoit shakllantiradi. Shoirning individuallik, shaxsiy tashabbus darajasini aniqlash uchun, dastavval uning ijodi nima bilan qurollangani tarixini kuzatish kerak.

A.N.Veselovskiy barcha fikrlarini jamlab, qiyosiy metodologiyaga tayangan holda «Tarixiy poetika» asarini yaratadi.³ Rus olimasi M.G.Bogatkinaning fikricha, zamonaviy komparativistika metodologiyasi matnni o'rganishning qiyosiy metodlari majmuasidan iborat bo'lib, aynan A.N.Veselovskiy yaratgan qiyosiy-tarixiy maktab an'alariga asoslanadi.⁴

Xullas, qiyosiy tadqiqotlar uchun asosiy metod hisoblangan qiyosiy-tarixiy metod⁵ adabiy jarayon dinamikasini, vorisiylik va an'alar almashinuvini, badiiy qadriyatlarini to'liq anglashda yordam beradi.

¹ Qosimov A., Hamroqulov A., Xo'jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akadem-nashr, 2019. – B.24.

² Академические школы в русском литературоведении. – М.: Наука, 1975. – С.211.

³ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа; – 1989. – С.405.

⁴ Богаткина М.Г. О формировании новой парадигмы в современной компаративистике // Международная научная конференция. – Казань, 2004. – С.75.

⁵ Qarag: Эшонбобоев А. Қиёсий-тарихий метод ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008. №4. – Б.38 – 46; Каримов Б. Адабиётшunosлик методологияси. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – Б.73 – 75.

A.N.Veselovskiydan keyin adabiy komparativistikaning metodologik jihatlarini V.M.Jirmunskiy, A.Dima, D.Dyurishin, N.I.Konrad, I.G.Neupokoyeva, M.B.Xrapchenko, A.Kokorin, M.Bogatkina, V.R.Amineva, Yu.I.Mineralov kabi olimlar tadqiq qilgan va dunyo adabiyotshunosligida bu jarayon davom etmoqda.

Bugun qiyosiy adabiyotshunoslik fani kundan kunga rivojlanmoqda. Amerika olimlari V.Fredrik (komparativistlarning xalqaro Amerika assotsiatsiyasi prezidenti) va Rene Uellek boshlab bergan an'alar davom ettirilib, dunyoning turli joylarida komparativistika ilmiy markazlari, maktablari tashkil-lashtirilmoqda. Moskva komparativistika maktabi, Britaniya va Amerika qiyosiy adabiyotshunoslik assotsiatsiyalari ¹ shular jumlasidandir.

Hozirda qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha dunyoda bir qancha ilmiy jurnallar nashr qilinadi. Rossiyada chop etiladigan «Imagologiya va komparativistika», «Tarixiy poetika», Fransiyadagi «Revue de litterature compare» ana shunday nufuzli jurnallardan bo'lib, ularda komparativistikaga oid eng yaxshi maqolalar beriladi².

Nazorat savollari:

1. Filologik komparativistika deganda nimani tushunasiz?
2. Lingvistik va adabiy komparativistikaning bir-biridan farqini izohlang.
3. Qiyosiy adabiyotshunoslik fan sifatida qachon shakllangan?
4. Qiyosiy-tarixiy metod asoschilaridan kimlarni bilasiz?
5. A.N.Veselovskiyning nazariy qarashlariga izoh bering?
6. Qiyosiy adabiyotshunoslik fanining bugungi kundagi istiqboli haqida qanday fikrdasiz?

¹ www.bcla.org/index.htm; www.agla.org

² <http://journals.tsu.ru>; www.cairn-int.info/journal-revue-de-litterature-comparee.htm

2-mavzu:

QIYOSIY TAHLILNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA PRINSIPLARI

Reja:

- 2.1. Qiyosiy tahlil obyektlari.
- 2.2. Qiyosiy tahlilning vazifalari.
- 2.3. Qiyoslash jarayonidagi eng muhim bosqichlar.
- 2.4. Qiyoslanishi mumkin bo'lgan tipik vaziyatlar.

Tayanch tushunchalar: obyekt, tabiiy, ijtimoiy, ma'naviy, gno-seologik, mantiqiy, metodologik, metodik, akseologik vazifalar, qiyoslash bosqichlari, muhit, ichki xususiyatlar, tipik vaziyatlar

Qiyosiy tahlil oddiy tahlildan farq qiladi. An'anaviy tahlil obyektlardan, ular esa o'z tashkil etuvchilaridan iborat. Tadqiqotchilar uchun shuni bilishning o'zi kifoya. Qiyosiy tahlil esa aytib o'tilgan harakatlardan tashqari, yana tahlil obyektlarining tashkil etuvchilarini ham bir-biri bilan qiyoslashga qaratiladi.

Qiyosiy tahlildan maqsad – qiyoslanuvchi obyektlarning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, ular orasidagi umumiy qonuniyatlarni yuzaga chiqarishdan iborat.

Azaldan, «Haqiqat qiyosda bilinadi» deymiz. Shuning uchun ham qiyoslash metodologiyasi odamlarning hayotiy faoliyatida keng tarqalgan va qo'llanilmoqda. Bugungi kunda qiyoslash metodi barcha bilish va hodisalarni tahlil etish jarayoniga tatbiq etilgan. Fan va amaliyotning barcha sohalari-da qiyoslash metodologiyasidan foydalaniladi.

Qiyoslash metodologiyasining mazmuni, mohiyati va vazifalarini yanada chuqur anglash uchun muayyan ilmiy-amaliy asoslar mavjud.

Qiyosiy tahlil obyektlari tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy obyektlarga bo'linadi. Ushbu uchta nisbatan mustaqil hodisalar guruhlari bir-biriga uyg'un bog'langan. Aynan ular bir butunlikda inson yashaydigan muhitni shakllantiradi va badiiy adabiyotda obraz shaklida o'z ifodasini topadi.

Tabiat hodisalarining nisbatan mustaqilligiga qaramay, ular odamlarning ijtimoiy hayotiga jalb qilinganidan keyingina qiyoslash obyektlariga aylanadi. Boshqacha aytganda, tabiat hodisalarining qiyosiy tahlili bilan odamlar shug'ullangani bois ular o'z manfaati va qarashlaridan kelib chiqib, unga o'zlarining ijtimoiy xususiyatlarini singdiradilar. Buning natijasida tabiat hodisalarining qiyosiy tahlili ma'lum darajada ijtimoiylashadi. Shunday qilib, ijtimoiy omillar ta'sirisiz tabiat hodisalarini qiyoslash mexanizmi mavjud bo'la olmaydi.

Qiyosiy tahlil obyektlarining ikkinchi guruhini **ijtimoiy hodisalar** tashkil etadi. Ularning qiyoslash metodi o'z xususiyatlariga ega. Bunda tahlil maydoni kengayadi, qiyosiy tahlil ko'rsatkichlari soni ortadi. Sababi, bu o'rinda ijtimoiy taraqqiyot qonunlari, ijtimoiy munosabatlarning barcha guruhlari: iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-g'oyaviy, huquqiy, ilmiy-texnik, axborot, harbiy, ekologiya va boshqa ko'plab munosabatlar e'tiborga olinadi.

Ma'naviy-g'oyaviy masalalar qiyosiy tahlil obyektlarining uchinchi guruhini tashkil etadi. Bu jarayon ma'naviy-g'oyaviy soha obyektlarini qiyosiy tahlil qilish bilan bog'liq.

Demak, badiiy adabiyotda mavjud tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy-g'oyaviy hodisalar – qiyosiy tahlil obyektlaridir. Ammo bu obyektlar o'ziga xos bo'lib, ular o'zining bir qator xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Qiyosiy tahlilning vazifalari

Ilmiy adabiyotlarda izohlanishicha, qiyosiy tahlilning gnoseologik, mantiqiy, metodologik, metodik, akseologik kabi vazifalari mavjud¹. Boshqacha aytganda, biz adabiy hodisalarni qiyoslash jarayonida, albatta, shu bosqichlardan o'tamiz.

Qiyosiy tahlilning gnoseologik vazifasi. Uning mohiyati va asosiy maqsadi, qiyoslash obyektlari haqida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Bu orqali biz quyidagi natijalarga erishamiz:

Birinchidan, qiyosiy tahlil jarayonida, har bir taqqoslanadigan obyekt haqida yangi ma'lumot olamiz.

Ikkinchidan, qiyoslanayotgan adabiy hodisalarning o'zaro ta'siri haqida yangi tushunchalarga ega bo'lamiz.

Uchinchidan, agar obyektlarni taqqoslash jarayoni yetarli darajada to'liq va aniq bo'lsa, unda ularning o'tmishi, buguni va kelajagi haqida umumiy tasavvur hosil qilamiz. Shu bilan birga qiyoslash metodikasi nazariyasini boyitamiz.

Qiyosiy tahlilning mantiqiy vazifasi. Adabiy hodisalarni taqqoslash jarayonida mantiqiy qonun-qoidalar ifodasi. Qiyosiy tahlil jarayonida mantiq talablaridan uzoqlashmaslik uchun quyidagilarga rioya qilish kerak:

1. Turli xil asosga ega adabiy hodisalarni taqqoslash mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Ko'pincha adabiy hodisalarni qiyosiy tahlil etish uchun turli asoslar tanlanadi. Bu hol yuz berganda – qiyoslash jarayoni o'zining aniqligini yo'qotadi. U ko'p jihatdan predmetsiz, demak, samarasiz bo'lib qoladi. Qiyoslash uchun aniq asos bo'lishi kerak. To'g'ri kelgan narsani bosh-

qasi bilan qiyoslab bo'lmaydi. Masalan, syujetni syujet bilan, asar tilini boshqa bir asar tili bilan qiyoslash mantiqan to'g'ri bo'ladi;

2. Obyektlarga aloqasi bo'lmagan ma'lum bir vaziyatlar tahlildan olib tashlanmasa, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi;

3. Qiyoslash jarayonida ziddiyatlarga, qarama-qarshiliklarga uchrash mumkin, bu tabiiy. Hatto, o'ta qarama-qarshi bo'lgan personajlarda ham albatta, mantiqqa zid bo'lmagan umumiy tomonlar topiladi.

Qiyosiy tahlilning metodologik vazifasi. Qiyoslash jarayonida biz ko'plab metod va usullardan foydalanamiz. Bu esa bizning nafaqat obyekt haqidagi bilimlarimizni, balki hayotdagi ayrim muammolarni hal qilishdagi emperik bilimlarimizni, ya'ni tajribamizni ham oshiradi va amaliy imkoniyatimizni kengaytiradi.

Qiyosiy tahlilda dunyoqarash vazifasi. Ma'lumki, har bir jarayon insonlarning bilimi va dunyoqarashiga bog'liq holda amalga oshadi. Qiyosiy tahlilning qanchalik keng qamrovli bo'lishi, aynan inson dunyoqarashi, bilimi va saviyasining qay darajada bo'lishiga bog'liq. Demak, dunyoqarash bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Subyektlarning dunyoqarashi, omma dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlilning baholovchi (akseologik) vazifasi ko'pgina shaklda, ko'pgina jihatlarda namoyon bo'ladi. Biz nimaniki qiyoslamaylik, albatta, xulosada ilmiy-nazariy fikrlarimizga yakun yasab, u yoki bu adabiy hodisani baholaymiz. Shuning uchun ham qiyosiy tahlil mohiyatan akseologikdir, ya'ni, uning mazmunida o'zaro o'xshashlik va tafovutlari nuqtayi nazaridan qiyoslanadigan hodisalarning bahosi mujassamlashgan bo'ladi. Bu esa nafaqat nazariy darg'alarni boyitadi, balki ayrim masalalar yechimida amaliy ahamiyat ham kasb etadi.

¹ Минералов Ю.И. Сравнительное литературоведение (Компаративистика). Учебник. – М.: Юрайт, 2018; Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение // Изб. тр. – М.: Наука, 1979; Кокорин А.А. Сравнительный анализ: теория, методология, методика. – М.: МГОУ, 2009.

Qiyosiy tahlilning emperik vazifasi asosan amaliy vazifalarni hal etishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Bizning qarshimizda har kuni amaliy masalalar silsilasi paydo bo'ladi. Qiyosiy tahlil amaliyotga xizmat qilsa va inson hayotida ahamiyatga ega bo'lsagina, u chinakamiga natija beradi.

Qiyoslash jarayonidagi eng muhim bosqichlar

Qiyosiy tahlil kutilgan natijani berishi uchun tadqiqotchi nima qilishi, qanday bosqichlardan o'tishi kerak?

Avvalo, tadqiqotchi qiyoslash obyektlarini to'g'ri tanlab olishi kerak. Chunki qiyoslash obyektlarining mavjudlik vaziyati bu bosqichlarni yuzaga keltiradi.

Birinchidan, hodisalarning ichki xususiyatini, ichki parametrlarini qiyoslamay turib, ularni qiyoslash, o'xshashlik va farqlarini aniqlashning iloji yo'q. Ularning asosiylari – qiyoslanadigan obyektlarning mazmun, mohiyat, sifatlaridir. Shuning uchun, hodisalarning mazmun, mohiyat va sifatleri orasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash qiyoslash jarayonidagi birinchi bosqichdir.

Ikkinchidan, bilamizki, hodisalarning ichki xususiyatlari, ya'ni ularning mazmun, mohiyat va sifati muhitda o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Demak, qiyoslash obyektlarining ichki xususiyatlarini, muhitda namoyon bo'lish darajasidagi o'xshashlik va tafovutlarni o'rganish kerak. Bu qiyosiy tahlilning keyingi bosqichidir.

Uchinchidan, nafaqat qiyoslanadigan obyektlar muhitga ta'sir ko'rsatadi, balki muhit ham ularga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu tashqi sharoitlarning tahlil obyektlariga ta'sir etish xususiyatlarini qiyoslashni ko'zda tutadi. Shu tarzda, tabiiy ravishda

hodisalarni qiyoslash bosqichida uchinchi yo'nalish belgilanadi. Uning mohiyati – muhitning qiyosiy tahlil obyektlariga ta'siridagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashdan iborat.

To'rtinchidan, har qanday hodisaning, jumladan, adabiy hodisaning paydo bo'lish sababi, zaruriyati mavjud. Qiyoslash chog'ida albatta, ularni ham e'tiborga olish zarur. Har bir hodisaning vujudga kelishi, mavjudligi, rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishida ko'plab zaruriyatlar rol o'ynaydi va ular orasida ayrimlari ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Buni adabiyotda ko'pincha **motiv** deb ataymiz. Demak, bizga kerak narsaning qiyosiy tahlilini amalga oshirishdan oldin, uni yuzaga keltirgan ehtiyoj va zaruriyatlarni ham taqqoslash kerak. Bu bizga qiyoslanayotgan obyektlarning mavjudligi sabablarida o'xshash va xos tomonlarni ochishga yordam beradi. Buning uchun biz **zaruriyat (motiv) – obyekt – mohiyat (natija)** algoritmi asosida qiyosiy tahlilni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, zaruriyat (motiv)larni qiyoslash **obyekt**ni tahlil qilishning muhim bosqichi. Chunki ehtiyoj va zaruriyatsiz hech narsa yuzaga kelmaydi. Axir, Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» asarida asl manzilga yetish uchun tanlangan yettita vodiyning birinchisi aynan talab bo'lgan¹.

Qiyoslanishi mumkin bo'lgan tipik vaziyatlar

Ba'zida qo'limizda shuncha material bo'la turib, nimani nima bilan qiyoslashni yoki taqqoslashni bilmaymiz. Ma'lumki, qiyosiy tahlil jarayoniga, uning natijalariga ko'pgina holat-

¹ <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy>

lar ta'sir qiladi. Masalan, qiyoslash obyektlarining mazmuni; tahlildagi metodologik vositalar; qiyosiy tahlilni o'tkazish usullari va h.k. Bularning barchasini hisobga olgan holda, qiyoslanishi mumkin bo'lgan quyidagi tipik vaziyatlarni ko'rsatish mumkin:

Birinchi vaziyat. Bir makon va zamonda mavjud bo'lgan adabiy voqea hodisalarni qiyoslash. Bunday qiyoslash jarayoni o'ziga xos xususiyatlariga ega. Birinchidan, qiyoslanayotgan obyektlarning makoniy birligi, muhit umumiyliги uning bu xususiyatlarga ta'sir qilishini o'rganishni kun tartibidan chiqaradi. Umumiy makon va zamon esa, qiyoslash obyektlarining muhiti bir ekani haqida dalolat berib, bu muhit ularga asosan bir xil ta'sir ko'rsatadi. Bu esa qiyosiy tahlilning birmuncha «soddalashuviga», yengillashuviga olib keladi. Ikkinchidan, qiyoslanuvchi fenomenlarning bir makon va bir zamonda mavjudligi, tabiiyki, ularning tarixiy birligi haqida gapirishga imkon beradi. Masalan, **O'tkir Hoshimov va Tohir Malik** ijodini qiyosan o'rgansak, bir makon va zamonda yashab ijod etgan yozuvchilarning umumiy va xos tomonlarini aniqlay olamiz.

Ikkinchi vaziyat. Bir makon, lekin har xil zamondagi adabiy hodisalarning qiyosidan tashkil topadi. Ma'lum bir sharoitda, bir muhitda, bir makonda, ammo turli vaqtda mavjud, mavjud bo'lgan yoki mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan adabiy hodisalarni qiyoslash kerak bo'lganda, ikkinchi vaziyat yuzaga keladi. Shu bilan birga, turli vaqtda, ammo juda o'xshash vaziyatlarda mavjud bo'lgan hodisalarni qiyoslash – qiyin vazifa. Odatda, bu yerda muayyan muammolar, qiyinchiliklar, jumboqlar yuzaga keladi.

Ko'pincha xuddi o'sha bir makon, masalan, bir mamlakat sharoitlarida mavjud bo'lgan hodisalarni vaqt omilini inkor etgan holda qiyoslashga harakat qilishadi. Bu noto'g'ri. Ma-

salan, bir makonda, ammo har xil zamonda yashab ijod qilgan shoirlar: Muqimiy bilan Muhammad Yusufning yoshlar yoki yoshlik haqidagi qarashlariga, albatta, vaqt o'z hukmini o'tkazadi. Boshqacha aytganda, agar qiyoslanuvchi obyektlar aynan bir muhitda mavjud bo'lsa ham, o'z taraqqiyotining turli davrlarida vaqt masalaning mohiyatiga turlicha ta'sir ko'rsatishini hisobga olish lozim. Hatto agar hodisalar mavjud bo'lgan sharoitlar (mamlakat, qandaydir bir makon) tubdan o'zgarmagan bo'lsa-da, bu vaqt ichida qiyoslash obyektlarining o'zi o'zgargan bo'lishi mumkin.

Uchinchi vaziyat. Bir zamon, lekin har xil makonda mavjud bo'lgan obyektlarni qiyoslash. Masalan, bugungi kunda bir zamonda, ammo har xil makonda yashab ijod qilayotgan o'zbekistonlik yozuvchi Nosir Zohid bilan amerikalik yozuvchi Viktoriya Shvabning bir xil nomdagi «Qasos» romani mavjud. Har ikkala romandagi qasos motivini taqqoslashda, albatta, muhitning qiyoslash obyektlariga ta'sirini hisobga olish juda muhim. Bu jarayon tadqiqotchidan alohida e'tiborni talab qiladi. Chunki qiyosiy tahlil jarayonida sharoit va sabablarning qiyoslanuvchi obyektlarga ta'sirini hisobga olish kerak bo'ladi.

To'rtinchi vaziyat. Har xil makon va zamon adabiy hodisalarini qiyoslash jarayoni. Bunda turli muhit, makon va turli zamon adabiy hodisalari taqqoslanadi. Bu vaziyat qiyosiy tahlil metodologiyasi va metodikasi uchun eng murakka-bi sanaladi. Masalan, Shekspir va Alisher Navoiy asarlarida ma'rifat talqini yoki Abdulla Qahhor va Jek London asarlarida badiiy psixologizm masalasini o'rganish uchun quyidagilarni hisobga olish kerak:

Birinchidan, qiyoslanadigan hodisalarning mohiyatini tushunish lozim. *Ikkinchidan*, qiyosiy tahlil obyektlari mavjud bo'lgan oldingi sharoitlar va muhitlarni ham imkon qadar

chuqurroq o'rganish, ularning Shekspir va Navoiy yoki Abdulla Qahhor va Jek London dunyoqarashiga ta'sirini ochib berish darkor. Chunki har xil zamon va makonda yashab ijod etgan adiblarning asarlarini mashhurlikdan boshqa yana nima bir-lashtirib turganini bilish uchun ko'pgina adabiy hodisalarni yuzaga chiqarish lozim.

Qiyoslash obyektlarining makon-zamon ko'rsatkichlari munosabati bilan, tahlil qiluvchining oldida ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Ammo qiyoslanadigan adabiy hodisalar-ning rivojlanish jarayonida vujudga keladigan vaziyatlarning xususiyatlari hisobga olinsa, ularni hal etish mumkin. Agar qiyosiy tahlil olib borayotgan tadqiqotchilar farqlanuvchi, ziddiyatli hodisalarni qiyoslash metodologiyasi va metodikasiga ega bo'lsa, qiyoslash natijasi yaxshi samara beradi.

Nazorat savollari:

1. Tabiiy, ma'naviy va ijtimoiy qiyosiy tahlil obyektlari bir- biridan qanday farq qiladi?
2. Qiyosiy tahlilning vazifalari nimalardan iborat?
3. Qiyoslash jarayonidagi eng muhim bosqichlarga izoh bering?
4. Qiyosiy tahlil kutilgan natijani berishi uchun, tadqiqotchi qanday bosqichlarda ish olib borishi kerak?
5. Zaruriyat – obyekt – mohiyat algoritmidagi qiyosiy tahlilni amalga oshirish mexanizmini tushuntiring?
6. Qiyoslanishi mumkin bo'lgan qanday tipik vaziyatlarni bilasiz?
7. Nima uchun har xil makon va zamon adabiy hodisalarini qiyoslash jarayoni qiyosiy tahlil metodologiyasi va metodikasi uchun eng murakkabi sanaladi?

3-mavzu:

QIYOSIY TAHLIL METODOLOGIYASI

Reja:

- 3.1. Ilmiy tadqiqot metodlari va qiyosiy tahlil.
- 3.2. Qiyosiy-tarixiy va chog'ishtirish metodi xususida.
- 3.3. Qiyoslash natijalarini baholashning mezonlari.
- 3.4. Qiyosiy tahlil natijalarining xolisligini ta'minlash shartlari.

***Tayanch tushunchalar:** ilmiy tadqiqot metodi, empirik va nazariy metodlar, qiyosiy tahlil metodologiyasi, qiyosiy sintez, qiyosiy induksiya, qiyosiy tarixiy va chog'ishirish metodi, baholash mezonlari, qiyosiy tahlil natijalari*

Qiyosiy tahlil – borliqdagi hodisalarni bilish va o'zgartirish bo'yicha metodologiya bosqichlaridan biridir. Qiyoslash metodologiyasi ma'lum bir makon va zamonda mavjud turli jarayonlarni qiyoslash uchun asoslarni shakllantiradi. Shuning uchun ham metodologiyada qiyosiy tahlilning o'rnini aniqlash zaruriyati mavjud.

Ma'lumki, metodologiya ilmiy tadqiqot metodlari haqidagi ta'limotdir. Barcha fanlarda ilmiy tadqiqot metodlari empirik va nazariy metodlarga bo'linadi. Aynan empirik va nazariy metodlar asosida har bir fan, jumladan, adabiyotshunoslik ham o'z tadqiqot usullarini shakllantiradi. «Tadqiqot metodlarisiz birorta fan o'z maqsadiga (strategiyasiga), tadqiqot obyektining mohiyatini ochishga erisha olmaydi. Chunki u yoki bu fanning tabiat va jamiyat hodisalarini aniqlashi, ularga xos qonuniyatlarni topishi, ular haqida ilmiy-falsafiy g'oyalar

chiqarishi, shak-shubhasiz, muayyan metodlar orqali amalga oshiriladi»¹.

Empirik metod kuzatish va tajriba o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, **rejalashtirish**, **tavsiflash**, **statistika** kabi bosqichlardan iborat.

Nazariy metodlarga esa analiz, sintez, abstraksiya, induksiya, deduksiya, analogiya modellashtirish kabilar mansubdir. Nazariy metodlarning barchasi **qiyoslash**, **umumlashtirish**, **tasniflash** (klassifikatsiya), **baholash** kabi bosqichlardan o'tadi.

Demak, ayon bo'ladiki, qiyoslash barcha nazariy ilmiy xulosalarning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun qiyosiy tahlilni amalga oshirishdan oldin ilmiy tadqiqot metodlarini yaxshilab o'rganish, ularning qiyoslashdagi rolini tushunib yetish kerak.

Nazariy metodlarni qisqagina tushuntiramiz: **Analiz** – tahlil, **sintez** – xulosalash, **abstraksiya** – mavhumlashtirish, **induksiya** – umumiylikdan xususiylikka o'tish, **deduksiya** – xususiylikdan umumiylikka siljish, **analogiya** – o'xshash xususiyatlar tahlili, **modellashtirish** – model yaratish (*prototip yaratish: mas: olamning badiiy modeli, darslikning elektron modeli*). Bu nazariy metodlarning har biri qiyoslash bosqichidan o'tishi mumkin. Qiyosiy tahlilda analiz, sintez, deduksiya va induksiya kabilar zarur unsurlar, ularsiz qiyosiy tahlilni amalga oshirish mumkin emas. Masalan, deduksiya – hodisalarni tashkil etuvchilarga ajratish jarayoni, qiyosiy tahlil esa ana shu jarayon natijalarini ham o'z ichiga oladi.

Demak, qiyosiy tahlil voqelik hodisalarini bilish va o'zgartirishga qaratilgan barcha nazariy metodlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, ilmida qiyosiy sintez, qiyosiy induk-

siya, qiyosiy deduksiya kabi tushunchalar mavjud. Masalan, **qiyosiy sintez** – hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash jarayonidir. Bunda ularni tashkil etgan unsurlarida bilimlarni integratsiyalash natijalari asos qilib olinadi. Mohiyatan, qiyosiy sintez «qiyosiy tahlil obyektlari o'rtasidagi farq nimada?» degan savolga javob beradi. **Qiyosiy induksiya** – xususiyan umumiy tomon harakat, qiyoslanadigan adabiy hodisalarning o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash jarayonidir.

Qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-chog'ishtirish metodi

Qiyoslash metodologiyasida qiyosiy-tarixiy va chog'ishtirish (yoki qiyosiy-chog'ishtiruv) metodi eng asosiy metodlardan hisoblanadi. Bu metodlar mohiyatan bir-biriga yaqin, ammo farq qiladi.

Qiyosiy-tarixiy metod adabiy hodisalarning umumiy va xos tomonlarini tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog'liqlikda qiyoslash usulidir. Qiyosiy-tarixiy metod asosidagi ilk nazariy fikrlar Arastuning «Poetika» asarida bayon qilingan. Faylasuf adabiyotni epos, lirika, drama kabi uch turga ajratish jarayonida ularni qiyoslaydi va mohiyatini tushuntirib beradi. Qiyosiy-tarixiy metod haqida ilmiy adabiyotlarda juda ko'plab nazariy fikrlar bayon qilingan. Jumladan, adabiyotshunos, B.Karimov qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanib, quyidagi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot olib borish mumkinligini ta'kidlaydi:

1. dunyo adabiyoti durdonalari yoki milliy adabiyotning go'zal namunalari o'zaro qiyoslanadi;
2. adabiy asarlar yaratilgan davriga ko'ra taqqoslab o'rganiladi;
3. bir milliy adabiyot vakillarining qiyos uchun asosli asarlari o'rganiladi;
4. milliy adabiyot namunalari dunyo adabiyoti kontekstida tekshiriladi;

¹ Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2010. – Б.291.

5. adabiy jarayon yoki adabiyot tarixida mavjud adabiy hodisalarning farqli va o'xshash qirralari tadqiq qilinadi;

6. mavzu yoki ilmiy muammo nuqtayi nazaridan o'zaro yaqin bo'lgan adiblarning asarlari tekshiriladi;

7. adabiy-estetik evolyutsiyani kuzatishda ma'lum bir adib tomonidan yozilgan asarlar obyekt qilib olinadi¹.

Qiyosiy-tarixiy metodning nazariy asoslari A.N.Veselovskiy, V.M.Jirmunskiy, N.I.Konrad, A.Dima, A.Dyurishin, V.R.Amineva kabi olimlar tomonidan juda yaxshi yoritilgan².

Chog'ishtirish metodi – filologik hodisalarni tizimli qiyoslashga asoslangan metod bo'lib, asosan farqli xususiyatlarni ochib berishga qaratilgan metoddir. Shuning uchun ham tilshunoslikda boshqacha nomi kontrastiv metod deb ataladi. Garchi nazariy asoslari ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, antik davrlardan boshlab turli xil filologik hodisalarni chog'ishtirishga qaratilgan asarlar yaratilgan. Alisher Navoiyning fors va turkiy tillar muhokamasiga qaratilgan «Muhokamat-ul lug'atayn» asari chog'ishtirish metodining yorqin namunasidir. Fanda mazkur metodning nazariy asoslari tilshunos olim I. A. Boduen de Kurtene tomonidan XIX asrda ishlab chiqilgan. Ye. D. Polivanov, L. V. Sherba, S. I. Bernshteyn, A.A.Reformat-skiy, Sh. Balli kabi olimlar bu boradagi ilmiy ishlarni davom ettirishgan³.

Tilshunos olim R.Rasulov ilmiy xulosalariga ko'ra, chog'ishtirish metodi ikki va undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarni, til hodisalarini o'zaro qiyolash usuli

¹ Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – Б.74.

² Bu haqda yana qarang: Эшонбобоев А. Қиёсий-тарихий метод ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. №2.

³ Поливанов Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком. – Ташкент, 1933; Реформатский А.А. О сопоставительном методе // Русский язык в национальной школе. 1962. №5; Методы сопоставительного изучения языков. – М., 1988.

bo'lib, ushbu xususiyatga ko'ra faqat qarindosh tillarni taqqoslab, qiyoslab o'rganadigan qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy metoddan farqli ravishda, chog'ishtirilayotgan tillarning tarixiga, ularning kelib chiqishiga – genetik jihatlariga, taraqqiyotiga e'tibor bermaydi, ularga asoslanmaydi.¹

Agar yuqoridagi nazariy fikrlarni adabiyotga tatbiq qilsak, tahlil bir millat yoki bir hudud adabiyoti doirasida olib borilsa, adabiy hodisalarning genetik jihatlariga e'tibor qaratilsa, bunda qiyosiy-tarixiy metoddan (mas., «o'zbek mumtoz adabiyotida ramzlar qiyosi»), turli millatga mansub adabiyotlar tadqiqi va tahlili asosida (mas., rus va o'zbek, ingliz va ispan) u yoki bu adabiy hodisalarning spetsifik xususiyatlari ochib berilsa, chog'ishtirma metoddan foydalaniladi.

Qiyoslash natijalarini baholashning mezonlari

Qiyoslash natijalarini baholash yuqorida ko'rib o'tilgan qiyosiy tahlil vazifalarining qay darajada bajarilganiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ilmiy adabiyotlarda qiyoslash natijalarini xolisona baholashning tarixiy, gnoseologik, mantiqiy, metodologik, ma'naviy-g'oyaviy va boshqa mezonlari mavjud. Ularni aniqroq tasavvur qilish uchun, ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Tarixiy mezon – qiyosiy tahlil natijalarining tarix faktlariga qanchalik mos kelishini baholashdir.

Gnoseologik mezon – qiyosiy tahlil natijalarini ularning bilish nazariyasi qonunlari va tamoyillariga mos kelishi nuqtayi nazaridan baho berishdir.

¹ Rasulov P. Uмумий тилшунослик. – Б.263.

Mantiqiy mezon – qiyosiy tahlil natijalarining mantiq qonunlari talablariga mos kelishini baholashdir.

Metodologik mezon – qiyosiy tahlil natijalarining qaysi metodlarga to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligi nuqtayi nazaridan baholashdir.

Ma‘naviy-g‘oyaviy mezon – bu qiyosiy tahlil natijalarining jamiyat ma‘naviyati, g‘oyaviy maqsadlariga qay darajada mos kelishini e‘tiborga olib, baho berishdir.

Xullas, yuqoridagi mezonlar qiyosiy tahlil natijalarini baholash, komparativistik tadqiqotning ilmiy-nazariy jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Qiyosiy tahlil natijalarining xolisligini ta‘minlash shartlari

Qiyosiy tahlilda haqqoniy, xolis natijaga erishish uchun quyidagilarga diqqatni qaratish lozim:

Birinchidan, qiyosiy tahlilni yakuniga yetkazmoqchi bo‘lgan tadqiqotchi qiyosiy adabiyotshunoslikning **nazariy, metodologik va metodik asoslarini** bilishi kerak. Bu borada ular bilishning nazariy va empirik vositalari imkoniyatlaridan unumli foydalana olishi lozim.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil obyektlari mavjud bo‘lgan, mavjud yoki mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan muhitning xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Boshqacha aytganda, ilmiy izlanuvchi, qiyosiy tahlil jarayoniga ta‘sir etishi mumkin bo‘lgan barcha holatlarni tahlilga tortishi kerak.

Uchinchidan, qiyoslash faqat statistik ma‘lumot yig‘ish va ko‘rsatishdan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. Qiyoslash obyektlari to‘xtovsiz o‘zgaradi, tadqiqotchilar ana shuni hisobga olishi kerak. O‘rganilayotgan obyektlarning statistik

manzarasi ularning dinamik xususiyatlari bilan to‘ldirilishi, tadrijiy takomili ko‘rsatilishi kerak. Aks holda qiyosiy haqiqat to‘laqonli, xolis bo‘la olmaydi. Demak, olib borilgan statistika, dinamika bilan birga tahlil va talqin qilinishi lozim.

To‘rtinchidan, tahlilda subyektivizmga yo‘l qo‘ymaslik. Soxta qiyoslash, muayyan manfaatlarga xizmat qilishi mumkin, lekin fan rivojiga xizmat qilmaydi. Ba‘zi tadqiqotchilarning bir-biriga umuman to‘g‘ri kelmaydigan filologik jihatlarini qiyoslashi, ana shunday soxta qiyoslashga olib keladi. Natijada, qiyosiy tahlil mazmuni va natijalari buzib ko‘rsatiladi, odamlarning ijtimoiy ongida noto‘g‘ri tushuncha paydo bo‘ladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» asaridagi Otabekning ishqiy sarguzashtlarini, Jorj Bayronning Don-Juan obrazi ishqiy sarguzashtlari bilan qiyoslash kutilgan natijani bermaydi.

Demak, qiyosiy tahlilning asosiy qoidalari, talablari bajarilmasa, adabiy hodisalarni qiyoslash jarayoni noxolis natijalar beradi.

Nazorat savollari:

1. Metodologiya nima va qanday ilmiy tadqiqot metodlarini bilasiz?
2. Qiyosiy-tarixiy metod chog‘ishtirish metodidan qanday farq qiladi?
3. Qiyoslash natijalarini baholashning qanday mezonlari mavjud?
4. Qiyosiy tahlil natijalarining xolisligini ta‘minlash shartlari nimamalardan iborat?
5. Qanday holatlarda adabiy hodisalarni qiyoslash jarayoni noxolis natijalar beradi?

4-mavzu:

TARJIMA – QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK OBYEKTI SIFATIDA

Reja:

- 4.1. Tarjima nazariyasi fan sifatida.
- 4.2. Tarjimashunoslikka oid muhim tushunchalar.
- 4.3. Tarjima adabiyotlararo kommunikatsiya vositasi.
- 4.4 Tarjima – komparativistika obyekti.

Tayanch soʻzlar: *tarjima, dastlabki tarjimalar, komparativistika, leksik jihat, adekvatlik, transformatsion model, semantik model, situativ model, kommunikativ model, P.M.Topper, badiiy tarjima, tarjimon mahorati.*

Tarjima tarixiga nazar soladigan boʻlsak, uning ildizlari eramizdan oldingi davrlarga borib taqaladi. Birinchi boʻlib yozma tarjimani qadimgi Rim shoiri, dramaturgi va tarjimoni Liviy Andronik (280–205) qilgan. U Homerning mashhur «Odiseya» asarini yunon tilidan lotin tiliga oʻgʻirgan.

Tarjima nazariyasi haqidagi dastlabki fikrlarni eramizgacha boʻlgan birinchi asrda Tulliy Sitseron(106-43) asarlarida yozib qoldirgan. Uning fikricha, «tarjimada shaklni emas, mazmunni yetkazish kerak. Soʻzma soʻz tarjima tarjimonning oʻzligidan darak beradi»¹.

Oʻrta asrlardagi tarjimalar diniy asarlarni tarjima qilish ehtiyoji tufayli paydo boʻlgan. Uygʻonish davrida (XIII asr oxiri, XIV asr boshi Yevropada) nafaqat diniy va yana badiiy asarlar tarjima qilingan.

¹ <http://linguisticus.com/ru>

XX asrlarga kelib tarjima nazariyasi fan sifatida toʻliq shakllanadi va bir qancha nazariy asarlar yaratiladi. Gʻ.Salomovning «Tarjima nazariyasi asoslari» ilmiy asari oʻzbek adabiyotshunosligida tarjima nazariyasiga oid eng yaxshi asarlardan biridir¹. Ushbu kitobda madaniy ilmiy hamkorlik va tarjima, adabiy aloqa va badiiy tarjima, tarjima tarixi saboqlari, badiiy tarjimada uslub, milliy koloritni ifodalashning mazmun va mundariyasi, milliy moslashtirish prinsiplari (oʻzga xalqning ijodiy mahsulini oʻz xalqining xarakteriga moslashtirish, masalan, *Navoiyning ruscha tarjimadagi sheʼrlari rus xalqining mulkiga aylanishi*) sheʼriy tarjimada vazn transformatsiyasi kabi masalalar yoritilgan.

B. Ilyasovning ilmiy asarlari sheʼriy tarjima asoslari, tarjimon mahoratiga bagʻishlanadi².

Zamonaviy tarjima nazariyasiga oid ilmiy asarlarda koʻproq tarjima usullari, tarjima tanqidi, tarjimaning madaniyatlararo muloqot va qiyosiy adabiyotshunoslikning obyekti sifatidagi oʻrniga ahamiyat qaratilgan³.

Tarjima nazariyasiga oid muhim tushunchalar:

Tarjima nazariyasi umumiy va alohida nazariyaga ajratilib oʻrganiladi. Umumiy tarjima nazariyasi til uchun umumiy

¹ Salomov F. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Uqituvchi, 1983.

² Ilyasov B. Свободный стих и перевод. – Термез: Джайхун, 1995; Авторская концепция оригинала и мастерство переводчика. – Ташкент, 1995; Замысел автора и переводческие плеоназмы // Зунделовические чтения: Материалы международной конференции. – Самарканд, 2000. – С.102 – 105; Искусство поэтического перевода. – Ташкент: Фан, 2007. – 124 с.

³ Топер П.М. Перевод в системе сравнительного литературоведения. – М., 2000; Белик Е.В. Перевод как разновидность межкультурной коммуникации // Преподаватель XXI век. – М., 2013. – С.289 – 293; Утробина А.А. Теория перевода. – М., 2010; Мусаев Қ. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fanning, 2005.

boʻlgan qonuniyatlarni oʻrganadi va barcha tarjima turlarini qamrab oladi. Alohida tarjima nazariyasi esa bir tildan ikkinchi tilga boʻlgan tarjimaning faqat lingvistik aspektlarini oʻrganadi.

Tarjima kommunikativ jarayon hisoblanadi va shu jihatdan ikki xil xususiyatga ega:

1. Til ichidagi jihatlar – matnning uslubi, matn bilan bogʻliq lingvistik xususiyatlar.

2. Tildan tashqari jihatlar – lingvomadaniy xususiyatlar va madaniy anʼanalarning original va tarjimada aks etish darajasi.

Maʼlumki, tildan tashqari jihatlarni yaxshi bilmaslik (oʻzga xalq madaniyatini yaxshi anglamaslik) tarjimaga putur yetkazadi.

Tarjima jarayonida **qonuniy muvofiqlik nazariyasi (теория закономерных соответствий)** mavjud. Bu nazariyaning asosiy mohiyati kelib chiqishi jihatidan muvofiq va muvofiq boʻlmagan tillar orasidagi tarjima bilan bogʻliq.

Tarjima nazariyasida transformatsion, semantik-semiotik, situativ va kommunikativ modellar mavjud.

Tarjimaning transformatsion modeli – boshqa tilga tarjima qilinganida tilning oʻz holatini qanday saqlab qolish darajasidir.

Tarjimaning semantik (maʼno) – semiotik (belgilar sistemasi) modeli – original asar semantikasining tarjimada saqlanish darajasi bilan belgilanadi.

Tarjimaning situativ modeli – tarjimada ayrim vaziyatlarni (masalan, milliy-madaniy) hisobga olib, tarjima qilinishini nazarda tutadi.

Tarjimaning kommunikativ modeli tarjimada oʻsha xalqning madaniyatini hisobga olish va oʻzga tilga adaptatsiyasi masalasidir.

Tarjimaning toʻrtta lingvistik jihati mavjud:

1. Leksik-semantik.

2. Frazologik.

3. Grammatik.

4. Stilistik.

Leksik-semantik jihat – tarjimada mumkin qadar originalning maʼnoviy mazmunini, lingvistik strukturasi saqlab qolinishidir.

Frazologik jihat – tarjimada frazeologizmlarning ekvivalentini topish masalasi. Ushbu yoʻnalishdagi muhim muammo madaniy-milliy koloritni tarjimada bera olish malakasi bilan bogʻliq.

Grammatik jihat originalning va tarjimaning grammatik qonuniyatlari, gap qurilishiga mos kelish va kelmasligi bilan bogʻliq.

Tarjimada stilistik jihat emotsional boʻyoqdorlikni, yozuvchi uslubining qay darajada saqlanishi va berilishi bilan bogʻliq. Masalan, Umar Hayyom ruboiylari tarjimasida Shoislom Shomammedov stilistik jihatni maksimal darajada saqlagan.

Tarjima jarayonida adekvatlikka erishish vositalari:

Adekvatlik barcha talablarni saqlagan holda, jumladan, kommunikativ muloqotni ham hisobga olib qilingan tarjimadir.

Tarjima jarayonida adekvatlikka erishish vositalariga quyidagilar mansubdir:

– **Referensial vositalar** bu belgilar, maʼlum ramzlar va boshqa vositalardir. Referensial vositalar asosan ilmiy adabiyotlar yoki tarixiy asarlarda boʻladi, ularni tarjima qilish jarayoni nisbatan oson kechadi.

– **Pragmatik vositalar** bu soʻzlashish jarayonidagi stilistik va emotsional vositalar. Bu vositalar kommunikativ jarayon-

ning yetakchisi hisoblanadi. Masalan, dialoglar, aytishuvlar, ichki nutq va h.k.

– **Grammatik vositalar.** Har bir tarjimonga o‘z tilining grammatik qonuniyatlari asosida tarjima qilishga yordam beruvchi vositalar.

Tarjima imkon qadar original asarga yaqin va to‘g‘ri bo‘lishi kerak. She‘riy asarlar tarjimasida ekviritmiyaga ham e‘tibor qilish darkor. Ekviritmiya (lotincha «to‘g‘ri ritm») – ritm (ohang)ni saqlagan holatda tarjima qilish demakdir.

Noto‘g‘ri tarjima noto‘g‘ri talqinni yuzaga keltiradi. Albatta, tarjima «qurbonlarsiz» bo‘lmaydi, ammo yuqoridagi jihatlarni hisobga olmaslik, tarjimani originaldan ancha uzoqlashtiradi.

Tarjima nazariyasiga oid ilmiy kitoblarda ko‘pincha ИЯ, ПЯ kabi abriveaturalarga duch kelamiz: ИЯ – исходный язык (original tili), ПЯ – переводный язык (tarjima tili) demakdir.

Tarjima nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, jumladan – qiyosiy adabiyotshunoslik obyektidir. Chunki asarning o‘zi va tarjimasi qiyoslash uchun asos vazifasini bajaradi. Tarjimani qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganyotgan tadqiqotchi, albatta, bu boradagi nazariy adabiyotlar bilan tanishishi, original asar va tarjimada aynan nimani qiyoslash kerakligini anglab yetishi kerak.

Adabiyotshunos M.Topperring «Tarjima qiyosiy adabiyotshunoslik tizimida» nomli ilmiy asarida tarjimaning komparativistika obyektidagi xususiyatlari juda yaxshi ochib berilgan¹.

Bizga ma‘lumki, tarjima mohiyatan kommunikatsiya (o‘zaro muloqot) va retsepsiya (tarjimaning qabul qilinishi) kabi jarayonlardan iborat. Xuddi shu jarayonlar qiyosiy adabiyot-

shunoslik uchun ham xos bo‘lib, ikkita har xil millatga mansub adabiy asarni taqqoslash jarayonida, albatta, bu jarayonlar tahlil qilinadi. Masalan, Nosir Zohid va amerikalik yozuvchi Viktoriya Shvabning turlicha nomdagi «Qasos» romanlarini o‘zbek va xorij kitobxonlari bir xil qabul qiladi, bu – retsepsiya jarayoni. Har ikkala romanni taqqoslashga kirishish – ikki millat, ikki madaniyat, ikki yozuvchi o‘rtasidagi kommunikatsiya. Demak, birgina kommunikatsiya va retsepsiya tushunchalarining mavjudli tarjimani qiyosiy adabiyotshunoslik obyektidagi sifatida o‘rganishga to‘la asos beradi. M.Topperring fikricha, qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi jahon adabiyotidagi turli xil milliy adabiyot namunalarini qiyoslash imkonini beradi, bu esa tarjimashunoslikka bo‘lgan e‘tiborni oshiradi¹.

Badiiy asar tarjimasi bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan tadqiqotchi asosan quyidagi jihatlarni qiyosan o‘rganishi mumkin:

1. Original asar va tarjimaning muvofiqligi.
2. Yozuvchi va tarjimonning ijodiy individualligi.
3. Adabiy aloqa va tarjima.
4. Asar va uning retsepsiyasi (qanday edi, qanday qabul qilindi?).
5. Tarjima va adabiy ta‘sir masalasi.
6. Janrlararo tarjima: lirik, epik, dramatik tur janrlari tarjimalarida o‘xshashlik va farqlar.
7. Tarjima va madaniyatlararo kommunikatsiya.
8. Badiiy tarjimada lisoniy olamning qayta yaralishi muammosi.
9. Yozuvchi va tarjimon mahorati va h.k. masalalar.

Yuqorida tilga olingan jihatlarning barchasida qiyosiy metoddan va metodologiyaning analiz, sintez, induksiya, deduk-

¹Топер П.М. Перевод в системе сравнительного литературоведения. – М., 2000.

¹Топер П.М. Перевод в системе сравнительного литературоведения. – М., 2000. – С.19.

siya, modellashtirish va boshqa nazariy metodlaridan foydalaniladi.

Tarjima qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti sifatida o'rganilganda, ushbu tadqiqot xuddi boshqa komparativistik tadqiqotlarda bo'lgani kabi tarixiy, gnoseologik, mantiqiy, metodologik, ma'naviy-g'oyaviy mezonlar orqali baholanadi.

Xullas, «asliyat ruhini imkon qadar to'g'ri va to'la aks ettiradigan tarjima matnini yaratish uchun tarjimon ham talantli badiiy so'z ustasi, ham iste'dodli tarjimashunos olim bo'lishi kerak»¹

Nazorat savollari:

1. Tarjima tarixiga oid nimalarni bilasiz?
2. Tarjima nazariyasiga oid muhim tushunchalarni izohlang?
3. Tarjimaning lingvistik jihatlari nimalardan iborat?
4. Tarjima jarayonida adekvatlikka erishish vositalarini tushuntiring?
5. Tarjima muvaffaqiyatini belgilovchi jihatlari?
6. Nima uchun tarjima qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti hisoblanadi?
7. Badiiy asar tarjimasi bilan shug'ullangan tadqiqotchi asosan qaysi jihatlarni qiyosan o'rganishi mumkin?

¹ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б.334.

5-mavzu: **ASAR POETIKASI – KOMPARATIVISTIKA OBYEKTI**

Reja:

- 5.1. Poetika haqida tushuncha.
- 5.2. Poetikaning tasnifi.
- 5.3. Badiiylik va badiiy mahorat.
- 5.4. Poetikaga oid zamonaviy tadqiqotlar.

***Tayanch so'zlar:** poetika, umumiy, tavsifiy normativ, nazariy va tarixiy poetika, poetik mahorat, badiiylik, badiiy olam, mezon.*

Qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarning aksariyati poetika tushunchasi bilan bog'liq. Poetikaning asosiy maqsadi asar yaralishiga xizmat qiluvchi barcha badiiy unsurlarni yuzaga chiqarish, baholash va yozuvchining mahoratini ko'rsatib berishdan iborat. Muayyan yozuvchi yoki shoirning badiiy asariga xos xususiyatlarni talab darajasida tahlil etish uchun avvalo poetika nazariyasini chuqur o'rganib chiqish kerak.

Poetika atamasini birinchi marta Arastu asarida qo'llagan¹. Faylasuf adabiyotni epos, lirika, drama kabi uch turga ajratish barobarida ularning badiiy xususiyatlariga xos jihatlarni ham tahlilga tortadi. Shundan so'ng Sharq va G'arbda poetika bilan bog'liq ko'plab ilmiy asarlar yuzaga keladi.

Rus olimi A.A.Potebnya (1835 – 1891) fan tarixida birinchilardan bo'lib, poetikaning nazariy asoslari haqida ilmiy asarlar

¹ Аристотель. Поэтика. Об искусстве поэзии. – М., 1961.

yoʻzgan.¹ U «Tarixiy poetika» kitobida nazm va nasr, badiiy tasvir vositalari, poetik va mifologik tafakkur, stilistik figuralar haqida ilmiy-nazariy xulosalarini beradi. Uning adabiyotshunoslikka doir ayrim izlanishlari²ni keyinchalik rus olimi M.Baxtin davom ettirgan³. U Joʻraqulovning taʼkidlashicha, yirik nazariyotchi olim M.M.Baxtin asarlarining birortasi ham tarixiy va nazariy poetika sintezisiz amalga oshirilmagan⁴.

«Poetika» – yunonchadan olingan boʻlib, «sanʼat, yaratuvchanlik, mahorat» degan maʼnolarni bildiradi. Rus olimi V.M. Jirmunskiyning fikricha, **poetika poeziyani sanʼat darajasida oʻrganadigan fandır**. Shu jihatdan olimning «adabiyot haqidagi fan poetika belgisi ostida rivojlanadi»⁵ degan fikri hozir ham dolzarbligini yoʻqotmagan.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda poetikaning umumiy, tavsifiy normativ, nazariy va tarixiy poetika kabi 5 ta asosiy turi ajratib koʻrsatilgan⁶:

1. Umumiy poetika – barcha adabiyotlar uchun xos boʻlgan badiiyat mezonlarini oʻrganadi. (Masalan: ijodiy prinsiplar, muallif pozitsiyasi va h.k.)

2. Tavsifiy (xususiy) poetika – konkret asarlarning yaratilish jarayonini va yozuvchining badiiy olamini oʻrganadi. (Masalan: H.Olimjonning badiiy olami, Choʻlpon nasri poetikasi h.k.)

3. Normativ poetika – «badiiy asar aslida qanday yozilish kerak?» degan masalaga oydinlik kiritadi. Normativ poetika

adabiy asarlarni baholaydi va adabiy tanqid obyekti hisoblanadi. U.Toʻychiyevning «Oʻzbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari», B.Sarimsoqovning «Badiiylik asoslari va mezonlari», A.Rasulovning «Badiiylik mezonlari» asarlari normativ poetikaga oid ilmiy asarlar hisoblanadi¹.

4. Nazariy poetika – bevosita adabiyot nazariyasi bilan bogʻliq boʻlib, har bitta koʻrib chiqilayotgan adabiy hodisaning nazariy tomonini yoritib beradi. (Masalan, Oybek romanlarida psixologizm, Pushkin sheʼriyatida shakl va mazmun) U.Joʻraqulovning nazariy poetika masalalariga bagʻishlangan asarida poetikaning muallif, janr, xronotop kabi qirralari ochib berilgan².

5. Tarixiy poetika – bunda asar yaratilishiga xizmat qiladigan barcha badiiy unsurlarning genezisi oʻrganiladi. Ijodkorning badiiy olami va mahorati tarixiy-adabiy jarayonga va davr ruhiga bogʻlab ochib beriladi. Tarixiy poetika rivojida A.Veselovskiy, M.Jirmunskiy, N.Konrad, I.G.Neupokoyeva, M.M.Baxtin kabi olimlarning ilmiy asarlari alohida ahamiyat kasb etadi³.

I.V.Stebleva, A.B.Kudelin, B.Ya.Shidfar, Ye.E.Bertels, V.I.Braginskiy, R.Musulmonqulov, Sh.M.Shukurovlarning ilmiy izlanishlari sharqshunoslikdagi tarixiy poetika masalalariga bagʻishlangan⁴.

¹ Туйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик меzonлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент, 2011; Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва меzonлари. – Тошкент, 2004; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.

² Журақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Фулом, 2015.

³ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М., 1989; Жирмунский В.М. Историческая поэтика А.Н.Веселовского и ее источники // Ученые записки ЛГУ. Сер. филол. наук. 1939. Вып. №3. – С.3 – 19; Конрад Н.И. Запад и Восток. – М.: Восточная литература, 1966; Михайлов А.В. Проблемы исторической поэтики в истории немецкой культуры: Очерки из истории филологической науки. – М., 1989; Храпченко М. Историческая поэтика: основные направления исследований // Вопросы литературы. 1982. №9. – С.73 – 79; Историческая поэтика: Итоги и перспективы изучения. – М., 1986.

⁴ Проблемы исторической поэтики литератур Востока. Коллективная монография. – М.: Наука, 1988.

¹ Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М., 1976; Теоретическая поэтика. – М., 1990.

² Потебня А.А. Из записок по теории словесности. – Харьков, 1905.

³ Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979.

⁴ Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Тарихий поэтикадан очерклар / Рус тилидан У.Журақулов таржимаси. – Тошкент, 2015.

⁵ Жирмунский В.М. Задачи поэтики / Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л., 1977. – С.15; Историческая поэтика: Итоги и перспективы изучения. – М., 1986. – С.12.

⁶ Темирболат А.Б. Поэтика литературы. Учебное пособие. – Алмааты, 2011.

Poetik yoki badiiy mahorat yozuvchining o'ziga xos badiiy olami, badiiy asarni yaratishdagi san'atkorligidir. Ijodkorning badiiy mahorati asar tilining mohirona berilishida, obraz yaratishida, badiiy tasvir vositalaridan o'z o'rnida, mohirona foydalanishida, asar kompozitsiyasini to'g'ri va tizimli shakllantirishda va h.k.larda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bulardan tashqari badiiylikning quyidagi 10 ta mezon¹ yozuvchining badiiy mahoratini aniqlashga yordam beradi:

1. Gumanizm (insonparvarlik).
2. Estetik tuyg'uni shakllantira olish.
3. Hayotiy haqiqatga sodiqlik.
4. Chuqur mushohoda.
5. Muallif g'oyasining mantiqiyliги va ijodiy fantaziyasining kengligi.
6. Umumlashtirish va tipiklashtirish qobiliyati.
7. Badiiy detallarning aniqligi va qaysidir g'oyaga xizmat qilishi.
8. Syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishdagi mahorat.
9. Qahramonlar ichki dunyosini mahorat bilan ochib berilishi.
10. Asar tilining boyligi va rang-barangligi.

Badiiy asar kompozitsiyasiga xizmat qiladigan har bir unurning poetikasini o'rganish va shu asosda ilmiy tadqiqot olib borish mumkin. Masalan, rus olimlaridan D.S.Lixachev qadim rus adabiyoti poetikasini, I.V.Silanev motivlarning, V.V.Vinogradov syujet va uslubning, N.E.Falikova xronotopning, N.Bandurina va Z.Suvanov obrazlarning, Y.Solijonov badiiy nutqning, K.Hamrayev kompozitsiyaning poetikasini tadqiq qilishgan va

¹ Темирболат А.Б. Поэтика литературы. Учебное пособие. – Алматы, 2011.

muhim ilmiy-nazariy xulosalarni chiqarishgan¹. Ayniqsa, asar syujeti va janrlar tipologiyasi bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan olimlarga **O.M.Freydenberning** fundamental monografiyasi juda katta nazariy material beradi².

Adabiyotshunos olimlarning tafakkur tarzi va tadqiqotchilik mahoratini ham poetika nuqtayi nazaridan o'rganish mumkin. Masalan, rus olimi O.Presnyakov nazariyotchi olim A.A.Potebnya ilmiy ijodining poetikasini o'rganagan³.

Poetikaga oid zamonaviy tadqiqotlar asosan nazariy va tarixiy poetika masalalariga bag'ishlanadi. Tarixiy poetikaga oid maxsus jurnal ham mavjud bo'lib, unda jahon adabiyoti bo'yicha rus, ingliz, italyan va ispan tillarida eng yaxshi maqolalar chop etiladi⁴.

Nazorat savollari:

1. Poetika deganda nimani tushunasiz?
2. Poetikaning qanday turlarini bilasiz?
3. Badiiylik va badiiy mahorat tushunchalarini izohlang?
4. Yozuvchining badiiy mahorati nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Ilmiy asarlar poetikasini o'rganish mumkinmi?
6. Poetikaga oid qanday zamonaviy tadqiqotlarni bilasiz?

¹ Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. – М.-Л., 1967; Силантьев И.В. Поэтика мотива. – М., 2004; Виноградов В.В. Сюжет и стиль – М., 1963; Фаликова Н.Э. Хронотоп как категория исторической поэтики // Проблемы исторической поэтики. – Петрозаводск, 1992. №2 // <http://poetica.pro>; Бандурина Н. Поэтика образа в литературном творчестве В.Г.Шершеневича. – М., 2012; Суванов З. Тоғай Мурод насрида образлар поэтикаси. – Тошкент, 2019; Солижонов Й. XX асрнинг 80 – 90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2002; Ҳамраев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси. Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2018.

² Фрейденбер О.М. Поэтика сюжета и жанра. – М.: Лабиринт, 1997. – 448 с.

³ Пресняков О.П. Поэтика познания и творчества: Теория словесности А.А. Потебни. – М., 1980.

⁴ Проблемы исторической поэтики // <http://poetica.pro>

6-mavzu:
ADABIYOTLARARO
JARAYONLARNING SHAKLLARI

Reja:

- 6.1. Milliy, hududiy va jahon adabiyoti.
- 6.2. Adabiyotlararo aloqalar.
- 6.3. Tipologiya va tipologik mushtaraklik.
- 6.4. Adabiyotshunoslikda multikulturizm.

Tayanch tushunchalar: *milliy, hududiy va jahon adabiyoti, adabiy aloqalar, Alisher Navoiy, multikulturalizm, A.Hayitmetov, N.Konrad, M.Jirmunskiy, Sh.Rizayev.*

Milliy, hududiy va jahon adabiyoti doimo o'zaro aloqada rivojlanadi va bir-birini boyitadi. Jahonda biror adabiyot faqat o'z qobig'ida, o'z adabiy an'analari doirasida rivojlanmaydi, balki boshqa adabiyotlarning ilg'or tajribalariga tayangan holda o'z taraqqiyotini belgilaydi.

Milliy adabiyot – har bir xalq madaniy hayotining ajralmas qismi, muayyan millatning, masalan o'zbek, rus, yapon xalqining adabiy merosi, nazmiy va nasriy durdonalari, o'lmas asarlaridir. Rus komparativist olimi B.G.Reizovning fikriga ko'ra, milliy adabiyot ko'plab adabiy va madaniy kuchlarning, tendensiya va imkoniyatlarning birlashuvidir¹.

Milliy adabiyotning asosiy ko'rsatkichlaridan biri unda biror xalq mentalitetiga xos an'analarning, urf-odatlarining, millat ruhiyatining aks etishidir.

¹ Данилина Г.И. Сравнительное литературоведение. Хрестоматия. – Тюмень, 2011. – С.134.

Regional adabiyot geografik jihatdan ma'lum chegaralashga ega bo'lgan hududiy adabiyotdir. Masalan, Markaziy Osiyo xalqlari adabiyoti, Yevropa adabiyoti, Yaqin Sharq mamlakatlari adabiyoti va h.k. Ularni tarixiy taraqqiyot bosqichlari, an'analar va ma'lum bir hudud birlashtirib turadi. Bunday tasnif genetik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan yoki tarixiy taqdir birlashtirgan xalqlar adabiyotiga xos umumiy jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, «o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, tojik va qoraqalpoq xalqlari nafaqat geografik jihatdan o'xshash mintaqada yoki ijtimoiy-tarixiy sharoiti umumiy xususiyatga ega hududda yashaydi, balki ularning tili, adabiyoti, tarixi va urf-odatlarida ham mushtaraklik oz emas. Ularning xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyoti tarixida o'xshashliklar ko'pligiga misollar yetarli. Bu omillar Markaziy Osiyo adabiyotlarini o'zaro yaqinlashtirishni, ular o'rtasida adabiy aloqalar va ta'sirlarning yuzaga kelishi va muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydi»¹.

«Jahon adabiyoti» deganda, u yoki bu mamlakatda yaratilib, o'zining estetik darajasi bo'yicha butun dunyoda talab qilingan asarlar tushunilgan»².

Qaysi mashhur asarni olmaylik, u avvalo, ma'lum bir millat vakilining ijodiy merosi, u yoki bu xalqning ma'naviy boyligidir. Masalan, Alisher Navoiy asarlari turkiy xalqlarning ma'naviy merosi bo'lishi bilan birga, butun dunyo xalqlarining intellektual boyligidir. Chunki shoirning asarlarida ifodalangan insonparvarlik, mardlik, do'stlik kabi umumbashariy g'oyalar barcha xalqlar uchun birdek qadrlil va ahamiyatlidir.

¹ Курамбоев К. Адабий алоқалар – миллий адабиётлар тараққиётининг қонуниятларидан бири // http://uzadab.ndpi.uz/adabiy_aloqalar.html

² Qosimov A., Hamroqulov A., Xo'jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akadem-nashr, 2019. – B.35.

Har bir millat adabiyoti dunyo badiiy tafakkurining ajralmas qismini tashkil qiladi. Jahon xalqlarining qiziqishi va o'qishi badiiy adabiyot ahamiyatini belgilovchi asosiy mezonlardandir. U yoki bu xalqning jahonda tanilishi, eng avvalo, o'sha xalq madaniyati, san'ati va adabiyotining qanday miqyosda tarqalishi va tan olinishiga bog'liqdir.

Adabiyotlararo aloqalar har bir millatning ma'naviy-madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy aloqalarning qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti sifatidagi o'zni, uning mohiyati haqida juda ko'p ilmiy asar bitilgan. A.Dima, I.Neupokoyeva, N.Konrad, M.Jirmunskiy, B.Nazarov, N.Karimov, B.Karimov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida adabiy aloqalar va ularning adabiyotshunoslikdagi ahamiyati borasida muhim ilmiy-nazariy xulosalar bayon qilingan.

T.T.Xamidova, M.Ye. Rasuli, S.Matkarimova, T.Sultanov va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari bevosita adabiy aloqalarga bag'ishlangan¹. I.G.Neupokoyeva xalqlararo adabiy aloqalarni tipologik va genetik turlarga bo'lib o'rganishni, bunda ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurligini qayd etadi. Shuningdek, olim adabiy aloqalar tarixiy ehtiyoj, tajriba almashish maydoni ekanini alohida ta'kidlaydi («...готовых творческих решений ни одна из литератур другой дат не может, но и ни одна литература не может пройти мимо того инонационального, художественного опыта, который ей исторически нужен»)².

¹ Хамидова Т. Русско-узбекские литературные связи в годы Великой отечественной войны. – Ташкент, 1973; Расули М.Е. К проблеме взаимовлияния и взаимообогащения русской и узбекской литератур. – Ташкент: Фан, 1978; Маткаримова С. Аньана, янгилек ва бадий махорат (Хоразм шоирлари ижодида Навоий аъналар мисолида). – Тошкент, 2019; Султанов Т. Алишер Навоий ва Озарбайжон адабиёти: тарихий илдизлар, аъналар, ворисийлик (Кишварий ва Содиқий асарлари мисолида). – Тошкент, 2019.

² Неупокоева И.Г. История всемирной литературы. Проблемы системного и сравнительного анализа. – М.: Наука, 1976. – С.85.

N.I.Konrad adabiy aloqalarni bir xalq adabiyotining boshqa bir xalq adabiyoti olamiga kirib borishi deb ta'riflaydi va adabiyotlararo aloqalarning 5 ta asosiy turini ajratib ko'rsatadi:

1. Badiiy asarlar bilan originalda tanishish, o'rganish va o'z xalqi orasida ommalashtirish. Masalan, Yevropa yoki rus sharqshunoslari Alisher Navoiy asarlarini tarjimada emas, originalda o'qiy olishgan.

2. Tarjimalar bir xalq adabiyotining boshqa bir xalq adabiyoti olamiga kirib borishidagi yana bir adabiy aloqa shaklidir. Bunda tarjimon adabiy vositachi (литературный посредник) vazifasini bajaradi;

3. Aynan bir xil mavzuning turli xalqlar adabiyotida yoritilishi ham adabiyotlararo aloqaning bir shakli. Masalan, Nizomiy, Dehlaviy, Navoiyning «Xamsa» asari aynan adabiy aloqalarning samarali natijasidir.

4. Jahon adabiy aloqalari tarixi bir xalq adabiyotining boshqa bir xalq adabiyoti olamiga kirib borishidagi yana bir shakl. Adabiy aloqalarning bu turini N.I.Konrad «milliy adaptatsiya» deb izohlaydi. Masalan, «Otogi boko» (1666) g'aroyib voqealar haqidagi hikoyalar to'plami. Asardagi voqelar ko'p jihatdan «Szyanden sinxua» nomli xitoy hikoyalariga mushtarak. Lekin xitoy hikoyalaridan ta'sirlanib yozilgan yapon hikoyalari, yapon odamiga mo'ljallanib, ularning tafakkur tarziga mos ravishda bitilgan.

5. Hamma xalqlarda mavjud manoqib qissalar (повесть жите) va ularning o'zaro adabiy aloqasi. Masalan, hotamtoylikda tengsiz Buddha, chiroy timsoli Yusuf, Aleksandr Nevskiy haqidagi hikoyatlar¹. Bu kabi hikoyalar bugun narrativ proza

¹ Batafsil qarang: Конрад Н.И. К вопросу о литературных связях // Литература и театр. – М.: Наука, 1978. – 5.49 – 59.

deb ataladi. Shuningdek, badiiy asar yozishda narrativ usuldan (qiziqarli hikoya qilish san'ati) ham unumli foydalanilmoqda¹.

M.Jirmunskiyning fikricha, adabiy aloqalar va adabiy ta'sir masalasi tarixiy kategoriya bo'lib, konkret tarixiy sharoitlarda turli xil intensivlik darajasida va har xil shaklda namoyon bo'ladi (*Литературные связи и взаимодействия представляют категорию историческую и в различных конкретных исторических условиях имеют разную степен интенсивности и принимают разные формы*)².

Adabiyotshunos K.Quramboyev ta'kidlaganidek, adabiy aloqalar va ta'sirlar masalasi milliy adabiyotlar taraqqiyotini kafolatlaydigan omillardan biri ekani isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylangan. Jahonda biror adabiyot yo'qki, faqat o'z qobig'ida, o'z adabiyoti an'analari doirasida boshqa milliy adabiyotlarning ilg'or tajribalariga tayanmagan holda rivojlanib, o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan bo'lsin³. So'nggi yillarda milliy adabiyotimizni rivojlantirish, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda targ'ib qilish, bu jarayonda dunyo xalqlarining, jumladan, qar-dosh ellarning adabiyoti bilan yaqindan tanishish, ularning eng sara adabiy asarlarini asliyatidan o'zbek tiliga tarjima qilish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Sh.Rizayev adabiy aloqa har qanday adabiyotning rivoji uchun nihoyatda zarur omillardan biri ekanini ta'kidlarkan, **adabiy mahdudlik** va badiiy tafakkurning biqiq xolga tushib qolishi, avvalo, boshqa adabiyotlarni o'rganmaslik, o'z adabiyotiga tanqidiy nazar bilan qaray bilmaslik, qiyoslash, so-

¹ Qarang: О нарративных техниках // [http:// litmasters.ru/pisatelskoe-masterstvo/o-narrativnyx-tekniqax.html](http://litmasters.ru/pisatelskoe-masterstvo/o-narrativnyx-tekniqax.html)

² Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. – Л., 1979. – С.77.

³ Курамбоев К. Адабий алоқалар – миллий адабиётлар тараққиётининг қонуниятларидан бири // http://uzadab.ndpi.uz/adabiy_aloqalar.html

lishtirish imkoniyatidan mahrumlik hisobiga ro'y berishi, shu ma'noda uzoq va yaqin xorijdagi barcha adabiy hodisalarni o'rganib borish, badiiy yangiliklardan boxabarlik, mutolaa va ijodiy aloqalarga kirishish muayyan xalqqa mansub har qanday adabiy jarayonni professional jihatdan oziqlantirishi haqidagi muhim fikrni bildiradi¹.

Tipologiya – genetik jihatdan o'zaro bog'lanmagan, tili, tarixi, madaniyati tamomila farq qiladigan xalqlar adabiyotida mushtarak jihatlarni aniqlashga yordam beradigan komparativistik tushuncha hisoblanadi. Adabiy hodisalarni tipologik jihatdan o'rganish, jahon adabiyotida kechadigan umumiy jarayonlarni anglab yetishda, adabiyotlararo aloqalarni yuzaga chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

Qiyoslash tipologiyasi deganda biz umumiy xususiyatlariga (janri, etnik xususiyatlariga va h.k.) ko'ra u yoki bu adabiyot namunalari qiyoslanishini tushunamiz. Tipologiya natijasida ayrim adabiyotlarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlar shakllanadi.

D.Dyurishin adabiyotni tipologik o'rganish yo'nalishining jahondagi eng yirik mutaxassisi, mashhur slovak olimidir. U o'z izlanishlarida tipologik tahlilni adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan biri sifatida e'tirof etadi va uning vazifasi adabiy ta'sirning mohiyatini aniqlash, ichki qonuniyatlarini ochishdan iboratligini ta'kidlaydi².

D.Dyurishin tipologik o'xshashliklarni uch turga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi:

1. Ijtimoiy-tipologik o'xshashliklar. Bunda ijtimoiy shart-sharoitlarning asarning g'oyaviy-falsafiy mazmunida aks etishi nazarda tutiladi. Ijtimoiy va g'oyaviy omillar badiiy asar

¹ Adabiy aloqalar ijodiy jarayon ko'zgusi (davra suhbat, 2014) // <https://ziyouz.uz>

² Batafsil qarang: Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М., 1979.

tarkibiga singdirilgan bo'lib, ayniqsa, g'oyaviy mazmuni, muallifning davr, ijtimoiy tuzumga nisbatan falsafiy qarashlarini ifodalashda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda adabiyotda o'z aksini topgan ilm-fan, san'at sohalari va huquqiy ong rivojiga turtki beruvchi ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy qarashlar, axloqqa oid muammolar bilan bog'liq voqea-hodisalar doirasi nazarda tutiladi.

2. Adabiy-tipologik o'xshashliklar. Mazkur turdagi o'xshashliklar sof adabiy hodisaga asoslanadi. Adabiyotning bu sohasi qiyosiy-tipologik tadqiqotning obyekti bo'lib, aynan shu yerda u adabiyot nazariyasi bilan birlashadi. Badiiy asardagi umumiy va farqli jihatlarni nafaqat adabiy yo'nalish, janrlar nuqtayi nazaridan, balki g'oyaviy-psixologik yondashuv, qahramonlar tavsifi, kompozitsiya, syujet, motivlar, obrazlar tizimi, tasviriy vositalar, she'r tuzilishi unsurlari singari badiiylilikni ta'minlovchi komponentlar nuqtayi nazaridan o'rganish adabiyotshunoslik uchun muhim natijalar beradi. Adabiyotshunos olim Sh.Sirojiddinovning Alisher Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik tekstologik tahliliga bag'ishlangan monografiyasi adabiy-tipologik o'xshashliklar tahlil qilingan ilmiy asarlardan hisoblanadi¹.

3. Psixologik-tipologik o'xshashliklar. Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy asarning adabiy jarayondagi o'rnini belgilash maqsadida janr-uslubiy jihatdan o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda ijodkor shaxsining ma'lum bir asarni yaratishdan individual psixologik moyilligi tushuniladi. Komparativistlar ko'p hollarda bunday ko'rinishlarni qiyoslanayotgan mualliflarning tabiatidagi ruhiy yaqinlik bilan izohlaydilar. Agar e'tibor qaratil-

¹ Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий манбаларининг қиёсий-типологик текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011.

sa, «Kichkina shahzoda» va «Oq kema» qissasi o'rtasidagi o'xshashlikning asosi bosh qahramonlar ruhiy kechinmalarida namoyon bo'ladi»¹.

N.Toirova, A.Qosimov, B.Xoliqov, Z.Qobilova, T.Proxorova, O.Poxolenkov kabi olimlarning tadqiqotlari tipologik tahlilga asoslangan ilmiy ishlar hisoblanadi². Jahon adabiyotshunosligida adabiy janrlar tipologiyasiga oid ilmiy izlanishlar ham mavjud³. Bu kabi tadqiqotlar genetik jihatdan bir-biriga aloqasi bo'lmagan xalqlar adabiyotidagi mushtarak tomonlarni ochib berishi bilan birga, xalqaro adabiy aloqalar rivojiga ham katta hissa qo'sha oladi.

Adabiyotlararo aloqalar tizimida **multikulturalizm** (ko'p-millatli madaniyat) ham muhim ahamiyat kasb etadi. Multikulturalizmning g'oyaviy mazmuni ko'p millatli davlatlarda turli xalqlarning o'zaro kelishib yashashiga, do'stona munosabatda bo'lib, bir-birlarining madaniyati, tarixi va adabiyotini hurmat qilishga yo'naltirilgan. XX asrning oxirgi choragida

¹ Batafsil qarang: Qosimov A., Hamroqulov A., Xo'jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2019.

² Қосимов А. Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсирнинг назарий муаммолари (А.де Сент-Экзюпери ва А.Камю ижоди мисолида). – Тошкент, 2007; Тоирова Н. Бадий адабиётда кўзгу ва сурат рамзларининг ғоявий-эстетик вазибалари (Омон Мухтор ва Оскар Уайльд асарлари асосида). – Тошкент, 2018; Холиқов Б.А. Детектив романларда воқеликнинг бадий талқинини тизимли моделлаштириш (Марио Пьюзонинг «The Godfather» ва Тоҳир Малиқнинг «Шайтанат» асарлари мисолида). – Тошкент, 2018; Қобилова Н.С. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадий психологизм. – Тошкент, 2019; Прохорова Т. Неожиданные схождения: о типологической близости поэтики Л.Петрушевской и А.Ахматовой // Проблемы филологии, культурологии и искусствоведения. – М., 2008. №1; Похаленков О. Концепт «враг» в творчестве Эриха Марии Ремарка и советской «лейтенантской прозе» 1950 – 60-х гг.: контактные связи и типологические схождения. – Смоленск, 2011.

³ Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества // К исторической типологии романа. – М., 1979; Эсалнек А.Я. Типология романа (теоретический и историко-литературный аспекты): монография. – М., 1991; Жирмунский В.М. Типология восточной поэмы // Советская тюркология. – М., 1973. №4. – С.35 – 48.

AQShda shakllangan siyosatdir¹. Multikulturalizm ijtimoiy hayotning barcha qirralarini, jumladan, adabiyotni ham qamrab oladi.

Multikulturalizm qiyosiy adabiyotshunoslikda, ayniqsa, adabiyotlararo jarayonlar mohiyatini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Uning asosini **yevropatsentrizmdan** (*yevropa xalqlari madaniyati, adabiyoti, tarixi va boshqa xususiyatlarini boshqa xalqlardan ustun qo'yish*) voz kechish, bir xalqni boshqasidan ustun qo'ymaslik, madaniyat va adabiyotning yagona modelini yaratish g'oyasi tashkil qiladi. Shu jihatdan multikulturalizm namoyandalari insoniyat sivilizatsiyasini, jumladan, jahon adabiyotini ulkan «mozaikaga» o'xshatishadi. Ularning fikricha, qotib qolgan dogmalar, markazlash-tirish mantiqi bilan u yoki bu adabiy hodisalarga baho berib bo'lmaydi. Badiiy adabiyotdagi multikulturalizm barcha adabiy hodisalarni teng ko'rib, birini ikkinchidan kamsitmaganda o'rganadi.

Rus adabiyotshunosligida multikulturalizmga xos ilk nazariy fikrlar XX asr boshida bitilgan ilmiy maqolalarda uchraydi. Rus olimi **S.A.Vengerovning** ta'kidlashicha(1919), haqiqiy adabiyotshunos diqqatini faqat mashhur namoyandalargagina emas, adabiy jarayonning boshqa vakillariga ham qaratmog'i kerak. Chunki ba'zan aynan ular u yoki bu davrga xos xususiyatlarni yaqqolroq ifodalashga qodirdirlar (*...я считаю совершенно ненаучным изучат литературу только в ее крупных представителях. Бывает даже так, что мелкий писатель, сплош да рядом ярче характеризует ту или другую эпоху, чем писатель крупный*)².

¹ Гасанова Н. К определению концепта «мультикультурализм» // <https://cyberleninka.ru/article/v/k-opredeleniyu-kontseptu-multikulturalizm>

² Академические школы в русском литературоведении. – М.: Наука, 1975. – С.179.

Ba'zi ilmiy maqolalarda aynan bir masalaga turlicha qarashni kuzatish mumkin. V.M.Jirmunskiy(1891–1971) va N.I.Konrad (1891–1970) bir makon va bir zamonda yashab ijod qilgan, qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan taniqli olimlardir. Ularning «Alisher Navoiy va Renessans» masalasiga bag'ishlangan maqolalarida N.I.Konrad multikulturalizm g'oyalari¹, V.M.Jirmunskiy yevropatsentrizm aqidalariga² tayanadi.

N.I.Konrad «Layli va Majnun» asaridagi epizodlarni G'arb adabiyotidagi Tristan va Izolda, Usta va Margarita bilan qiyoslasa, V.M.Jirmunskiy Navoiy qarashlarini Dante, Leonardo da Vinchi, Petrarka qarashlari bilan taqqoslaydi. N.I.Konrad Navoiy ijodidagi universallikka e'tibor qaratib, Navoiy barcha xalqlar shoiri, degan xulosaga keladi. V.M.Jirmunskiy esa Navoiy «uyg'onish davri G'arb titanlari» bilan hamfikir ekani, ularning g'oyalari shoir asarlarida aks etgani haqidagi fikrni ilgari suradi.

Har ikkala maqolada ham Renessans umumiy maydon sifatida ko'rsatilgan, ammo V.M.Jirmunskiy g'arbning madaniyat, ma'naviyat, ilm-fan jabhasidagi yutuqlari sharqnikidan ustunligini ko'rsatishga harakat qiladi. N.I.Konrad esa Sharq ma'naviyati va madaniyati o'zining qadim sarchashmalariga ega bo'lgani, bu borada G'arbgga ehtiyoj sezmagani qayd qiladi. Olim multikulturalizmdagi xalqlararo tenglikka asoslangan konsepsiya asosida hech bir xalq o'zini boshqasidan ustun qo'yishi kerak emasligi haqidagi g'oyani qo'llab quvvatlaydi (*...ни у кого нет право считает себя народом особым,*

¹ Конрад Н.И. Средневосточное возрождение и Алишер Навои // Иностранная литература. №2. – М., 1966. – С.212 – 220.

² Жирмунский В.М. Алишер Навои и проблема Ренессанса в восточных литературах // Ученые записки ЛГУ. Сер. филол. наук. 1961. Вып. №59. – С.86 – 97.

превосходящим всех других, мания величия у натсии стол же ложна, вредна и просто смешна, как и мания величия у отдельного человека)¹.

Xullas, milliy, hududiy, jahon adabiyoti, adabiy aloqalar, multikulturalizm va boshqalar adabiyotlararo jarayonlarning shakllari hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Milliy, hududiy va jahon adabiyoti tushunchalarini izohlang.
2. Hududiy va jahon adabiyoti namunalariga misol keltiring.
3. Nima uchun adabiyotlararo aloqalar komparativistika obyekti hisoblanadi?
4. Tipologiya va tipologik mushtaraklik tushunchalariga izoh bering
5. Adabiyotshunoslikda multikulturalizm nima?

¹ Конрад Н.И. Средне-восточное возрождение. – С.220.

7-mavzu: O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA QIYOSIY TADQIQOTLAR

Tayanch tushunchalar: qiyosiy tadqiqotlar, o‘zbek adabiyoti, jahon adabiyoti, N.Karimov, A.Hayitmetov, E.Rustamov, M.Xajiyeva, N.Toirova, biografik roman, Abdulla Qahhor, Jek London.

O‘zbek adabiyotshunosligida qiyosiy yo‘nalishdagi ilmiy ishlar olib borish jarayoni asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. N.Vladimirovaning rus tilidan o‘zbek tiliga tarjimalarning nazariy asoslariga, A.Mirzoyevning Foni va Hofiz she‘riyatiga bag‘ishlangan ilmiy ishlari bu boradagi ilk tadqiqotlar hisoblanadi¹.

Bugungi kunga kelib, komparativistik tadqiqotlar soni va salmog‘i oshib bormoqda. O‘z davrida taniqli navoiyshunos A.Hayitmetov, «Xamsa» Alisher Navoiy ijodining eng katta yutug‘i bo‘lishi bilan birga, uning yuzaga kelishi faqat o‘zbek adabiyoti tarixidagina emas, jahon adabiyoti tarixida buyuk voqea ekanini, Navoiy va jahon adabiyoti mavzusi nisbatan yangi soha bo‘lib, bugungacha sanoqli ishlar amalga oshirilganini alohida ta’kidlagan edi².

Ilmiy-adabiy aloqalar natijasida chinakam asarlar boshqa xalqlarning adabiyot olamiga tez kirib boradi va qaysidir darajada ularning ham ma’naviy mulkiga aylanadi. Demak, Navoiy, Bobur, Shekspir, Dante va boshqa ko‘plab shoir hamda yozuv-

¹ Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского языка на узбекский язык. Автореф. дисс... к.ф.н. – Ташкент, 1957; Мирзоев А. Фоний ва Хофиз // Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.53 – 62.

² Хайитметов А. Тимурийлар даври ўзбек адабиёти. –Тошкент: Фан, 1996. – Б.68.

chilar ijodi jahon xalqlarining ham umumiy intellektual mulkidir. Bu jarayonda qiyosiy yoʻnalishdagi ilmiy ishlar alohida rol oʻynaydi.

Oʻzbek adabiyotshunosligida X.K.Hamrayev Oybek va Qahhor asarlarini, S.R.Babayeva Gʻafur Gʻulom, G.Xalliyeva Navoiy va Bobur, Z.Mirzayeva Abdulla Qodiriy va boshqa jadid adiblari, B.Xoliqov Tohir Malik, N.Toirova Omon Muxtor, F.Xajiyeva Maqsud Qoriyev, N.Qobilova Abdulla Qahhor asarlarini jahon adabiy kontekstida oʻrganib, qiyosiy adabiyotshunoslik rivojiga oʻzlarining munosib hissalarini qoʻshdilar. Adabiy aloqalar doirasida bajarilgan ilmiy ishlarga M.Xolbekov, Sh.Shamusarov, A.Qosimov, M.Bakayeva, S.Kamilova, T.Sultanov, S.Matkarimova va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini namuna sifatida koʻrsatish mumkin.

E.Ochilovning «XX asr fransuz sheʼriyati oʻzbek tilida (tarjimada mazmun va shakl birligi masalasi) mavzusidagi ilmiy ishi, M.Tojixoʻjayevning «Oʻzbek adabiyoti namunalari Martin Xartmann tarjimasi va talqinida» nomli monografiyasi, F.Sapayevaning Maxtumquli sheʼrlarining oʻzbekcha tarjimalari qiyosiy tahliliga bagʻishlangan tadqiqoti, R.Shirinovanning olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi xususidagi doktorlik dissertatsiyasi tarjimashunoslik yoʻnalishidagi ilmiy ishlarga misol boʻla oladi.

Xullas, xalqlararo madaniy-adabiy aloqalar kundan kunga rivojlanib borayotgan bugungi kunda qiyosiy tadqiqotlar adabiyotshunosligimizda kelajagi porloq, istiqbolli yoʻnalishlardan biridir. Xalqaro adabiy aloqalar doirasida komparativistik tadqiqotlar olib borish jarayonida, kamida ikki xalq, ikki adabiyotning, ayniqsa, oʻzimizning maʼnaviy qadriyatlarimiz, nazmiy va nasriy durdonalarimizning mohiyatini yanada chuqurroq anglaymiz.

Qiyosiy tadqiqot olib borishda metodologik yordam va namuna sifatida bu oʻrinda ayrim ilmiy ishlardan misollar keltirishni lozim topdik.

Oybek va jahon adabiyoti¹

XIX asrning 50–60-yillarida Chor Rossiyasining Oʻrta Osiyoni zabt etishi bilan yurtimizda mustamlakachilik davri boshlandi. Shu davrda masjid va madrasalar yopilib, arab va fors tillarining maʼnaviy-madaniy taraqqiyot vositalaridan biri sifatidagi maqomi pasaytirildi. Buning oʻrniga rus tili va rus adabiyoti shiddat bilan kirib keldi. Bu hol, bir tomondan, milliy tarixni oʻrganishga, milliy til va adabiyotning rivojlantirish jarayoniga salbiy taʼsir koʻrsatgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, oʻzbek xalqining oxir-oqibatda rus tili va adabiyoti orqali Yevropa, shuningdek, Amerika xalqlari adabiyotlarini – yangi adabiy-madaniy olamni kashf etishiga imkon berdi. Oʻzbek yozuvchilari jahon adabiyoti erishgan badiiy yutuqlar va tajribalarni oʻrganish asosida milliy adabiyotimizga yangi adabiy shakl va janrlarni, yangi badiiy-uslubiy vositalarni olib kirish boshladilar.

Ana shu jarayonda Mahmudxoʻja Behbudiy, Fitrat, Choʻlpon, Oybek, Gʻafur Gʻulom, Hamid Olimjon, Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Usmon Nosir, Zulfiya, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov nafaqat barkamol shoir yoki yozuvchi, balki zabardast tarjimon sifatida ham havas qilishga arziqli ishlarni bajardi. Oʻzbek xalqining jahon adabiyoti namunalari bilan tanishishi, ularni Navoiy yoki Qodiriy asarlarini oʻqigandek sevib oʻqishida badiiy tarjima oltin koʻprik vazifasini oʻtadi.

¹ Каримов Н. Ойбек ва жаҳон адабиёти // <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/naimkarimov-oybek-va-jahon-adabiyoti>.

Lekin bu ish oson bo'lmadi. XIX asrning 70-yillarigacha asosan fors va arab tillaridagi badiiy adabiyot namunalarini turkiy (eski o'zbek) tiliga tarjima qilgan tarjimonlar uchun Yevropa xalqlari tillari, jumladan, rus tili ham mutlaqo begona til edi. Shuning uchun ham 1870-yilda Toshkentda o'zbek tilida chiqqan boshlagan «Turkiston viloyatining gazetisi» o'z oldiga muhim va xayrli vazifani qo'yib, I.A.Krillov, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, N.A.Nekrasovning bolalarga bag'ishlangan kichik-kichik asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishni boshlab berdi. Bunga gazeta muharriri N.A.Ostroumovdan tashqari, Shohimardon Ibrohimov, Chanishev, Aydarov, Sattorxon, Mulla Olimlar jalb etildi. Rus adabiyotining dastlabki tarjimonlari tomonidan eski o'zbek tiliga o'girilgan ayrim asarlar Saidrasul Aziziy, Ali Asqar Kalinin, Abdulla Avloniyning darsliklariga ham kiritilib, rus-tuzem va jadid maktablari o'quvchilari e'tiboriga havola etildi. Bolalarbop badiiy shakl va ibratli-didaktik mazmun bilan yo'g'rilgan bu asarlar jadid bolalar adabiyotining maydonga kelishida mumtoz o'zbek adabiyoti va folklori an'analari bilan birga katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ammo bu tarjimalarga bugungi adabiy-badiiy mezonlar asosida yondashganda ularning til va uslub jihatidan murakkab ekani ko'zga yaqqol tashlanadi. Buning asosiy sababi tarjimonlarning badiiy tarjima amaliyotidan uzoq bo'lganligida ko'rinadi. O'zbek adabiy tilining keyingi rivojida birinchi navbatda, Cho'lpon va Qodiriyning ham yozuvchi, ham jahon adabiyoti namunalarining tarjimoni sifatidagi xizmatlari beqiyos. Ular bilan izma-iz o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlantirishiga va o'zbek xalqini jahon adabiyoti bilan tanishtirish ishiga katta hissa qo'shgan so'z sehragarlaridan biri Oybekdir.

Oybek umrining, Navoiy ta'rifi bilan aytganda, ilm maxzanini yig'ish fasli ikki tarixiy davr to'qnashgan yillarga to'g'ri

keldi. U hayotining ilk davrida, oz fursat bo'lsa-da, madrasada o'qib, arab va fors tillari bilan oshno bo'ldi, inqilobiy bo'ronlar bilan boshlangan yangi davrda esa e'tiborini ko'proq shu davrning muhim ijtimoiy masalalariga qaratdi.

Bu qanday davr edi? Bu, Oybekning ustozlari Munavvar qori Abdurashidxonov va uning maslakdoshlari uchun 1917-yil fevralidan keyin milliy mustaqillik umidi paydo bo'lgan, 1918-yil fevralida Turkiston muxtoriyati tugatilganidan keyin o'sha umid gullari xazon bo'lgan, lekin «noumid – shayton» hikmatiga amal qilgan ustozlar mustaqillik uchun kurashning yangi yo'llarini izlayotgan yillar edi. Ular kelgan fikr-xulosaga ko'ra, davlat idoralarini boshqara oladigan, ta'lim, fan, madaniyat va xalq xo'jaligining barcha sohalarini bo'yicha yuqori malakali milliy kadrlarni tayyorlamasdan turib, mustaqillik uchun kurashish samarasiz edi. Shuning uchun ham 1922-yilda Buxoro Xalq sho'ro jumhuriyatining mablag'i va ma'rifat fidoyilarining duoyi salomlari bilan 70 nafar yosh Germaniyaga o'qishga yuborildi. Ular ishlab chiqqan rejaga ko'ra, har yili taxminan shunchadan yoshlar nafaqat Germaniya, balki boshqa davlatlarga, xususan, Rossiyaning Moskva va Leningrad shaharlaridagi oliy o'quv yurtlariga ham yuborilishi va milliy kadrlar muammosi besh-o'n yil mobaynida hal qilinishi lozim edi.

«Финансы поют романсы» shu tarixiy davrning shiorlaridan biri edi. Munavvarqori ta'sirida ulg'ayib borayotgan Oybek ham talabalik paytlarida iqtisodchi bo'lishni ko'ngliga tugdi. Ammo u faqat iqtisodga doir adabiyotnigina emas, balki Tenning «San'at bo'yicha mutolaa», Frichening «San'at tarixi», Belinskiyning «Adabiy orzular», Lunacharskiyning «Pozitiv (ijobiy) estetika haqida» singari asarlarini qunt bilan mutolaa qildi.

Oybekning rus she'riyati klassiklari bilan tanishishida rus tili va adabiyoti muallimi Goryanovning xizmatlari katta. «So'zlarining, qo'llarining imo-ishorasi bilan taxtaga chiza-chiza rus tilini o'rgatishga uringan» Goryanov tufayli u Pushkin, Lermontov, Nekrasov, Blok she'riyati jozibasini ilk bor kashf etdi. Ayniqsa, Pushkin she'riyati uni maftun etdi. «Men Pushkin she'riyati bilan yashay boshladim, deb yozgan edi Oybek olis 20-yillarni eslab. – Yangi bir dunyoga kirdim, yangi hayot, yangi ilhom kashf etdim».

O'rta Osiyo davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakultetining iqtisod bo'limida tahsil ola boshlagan Oybek chuqurroq bilim olish maqsadida o'qishni Leningraddagi Xalq xo'jaligi institutiga ko'chiradi. U «Shimoliy Venetsiya»da iqtisodiy tanglikda, yarim och-yupun yashaganiga qaramay, yuqori malakali iqtisodchi bo'lish va ayni paytda she'riyatga bo'lgan ruhiy ehtiyojini qondirish uchun tinmay o'qiydi.

Oybekning bolalik davri o'rtoqlaridan biri Homil Yoqubov adib bilan Leningradda ilk bor uchrashgan kunlarni bunday xotirlagan edi: «...1927-yilning kuz faslida Oybek Leningradga kelib qoldi... Odatiy salom-alikdan so'ng biz tezroq O'zbekistondagi ahvolni bilishga qiziqdik. Oybekning hikoya qilishicha, O'zbekistonda mafkura maydonida keskin kurash boshlanibdi. Adabiyot sohasidagi yot mafkuraga qarshi kurash masalasi matbuot sahifalarida ko'tarilgan bahslarda Oybek ham qatnashibdi. Bu haqda u shu qadar kuyunib-yonib so'zlardiki, biz adabiyot allaqachon hayotining ajralmas qismiga aylanganini sezib turardik. Uning fikricha, ijodkor, avvalo g'oyaviy barqaror va o'ta bilimdon bo'lmog'i shart. «O'zi to'g'ri yo'lda turmagan yozuvchi o'zgalarni ham aslo Haq yo'lga boshlay olmaydi», degandi u. Shundan so'ng suhbat inson umrining mazmuni haqida ketdi...».

Xotirnavisning yozishicha, Oybek: «...Endi hamma imkoniyatlardan yaxshi foydalanib, faqat ixtisos(lik) fanlarini o'zlashtirish bilan qanoatlanmasdan, mustaqil mutolaa yo'li bilan adabiy-nazariy ma'lumotini chuqurlashtirish, rus va G'arbiy Yevropa badiiy ijod xazinalari bilan yaqindan tanishish niyatida ekanini hayajonlanib so'zlagan; «ijtimoiy, iqtisodiy va falsafiy fanlarga qiziqishi tobora kuchayib», «iqtisod fakulteti programmasi yuzasidan sistemali ravishda falsafa tarixi, qadimgi va yangi dunyo falsafasini chuqur o'rgan-gan». «Badiiy asarlarni aytmysizmi? – deb davom etgan xotirnavis. – Ular (Oybekning yotoqxonasida – N.K.) qalashib yotardi. Oybek bularning ko'plarini o'qishga ulgurur, o'qiganda ham sinchkovlik bilan g'oyaviy-badiiy mag'zini chaqib o'qirdi. U, xususan, poeziyani yoqtirardi. Pushkin, Lermontov, Nekrasov, Blok, Mayakovskiy, Yesenin she'rlarining ba'zilarini bizga yoddan o'qib berardi. Biz e'tibor berib tinglardik...».

Oybek Toshkent va Leningraddagi talabalik yillarida nomlari yuqorida tilga olingan shoirlar ijodi misolida rus lirikasidagi his-tuyg'u va lirik kechinmalarning porloqligidan, badiiy tasvir usullarining rang-barangligidan bahra olgan. Ammo rus she'riyatiga rom bo'lmasdan avval u Turkiyada tahsil olgan ustози Eson afandi va Cho'lpon ta'sirida yangi turk she'riyatiga ixlos qo'ygan edi. Oybek «Adabiyot, tarix, zamonaviylik» (1966) deb nomlangan suhbatida shu jarayon haqida ilk bor so'zlab, bunday degan edi: «Yangi turk poeziyasining asarlari meni ilk marta lirik soddalik yo'lida izlanishga o'rgatdi. Men turk poeziyasi bilan texnikumning studenti bo'lgan yillarimda tanishdim. O'sha paytda Bokuda Yahyo Kamol, Rizo Tavfiq, Abdulhaq Homid va boshqa bir necha turk shoirlarining asarlari nashr qilingandi. Bu asarlar mening ham qo'limga tushib qoldi. Bular hozir ham menda saqlanadi. Yaqinda ularni qay-

tadan varaqlarkanman, ilk marta ta'sirlanganimni ko'z oldimga keltirdim. Muhim va murakkab narsalar haqida soddagina qilib so'z aytish mumkin ekan. Qalbni zabt etgan his-tuyg'ularni, chuqur lirizmni ifoda etmoq uchun dabdabali shakl shart emas... Eng muhimi, kundalik hayot predmetlari, odatiy nutq poetik olamning butun dabdabasi va jozibasini yo'qqa chiqarib qo'yadigan ko'rinardi».

Oybek 20-yillarda Toshkentdagi «Turon» kutubxonasi fondidagi turk shoirlarining majmualari va «Sarvati funun» jurnalida bosilgan asarlarini mutolaa qilish jarayonida sodda uslubi va yoniq tuyg'ulari bilan an'anaviy o'zbek she'riyatidan keskin farq qilgan turk she'riyatiga mehr qo'ydi. U hatto, Ziyu Ko'kalp ta'sirida mashhur «O'zbekiston» she'rini yozdi.

Sovet mafkurachilari ta'biri bilan aytganda, panturkizm g'oyalari bilan sug'orilgan bu she'rning badiiy shakli Oybekka o'zbek lirikasining go'zal namunalaridan birini yaratish sevinchini bag'ishladi. Agar Ziyu Ko'kalp o'z she'rida turk tilini sharaflagan bo'lsa, Oybek o'z she'rida ona Vatani –O'zbekistonni ko'klarga ko'tardi.

Oybek turk she'riyatiga qiziqqa boshlashidan avval, «maktabdalik yillarida Sharq klassikasi bilan tanishib», «hirotlik buyuk Navoiy va ajoyib lirik, ozarboyjon adabiyotining buyuk siymolaridan bo'lgan Fuzuliyga benihoya mehr qo'ygan» edi. Bu mehr uning hayoti, qalbi va ijodini butun umri bo'yi yoritib, quyosh haroratini bag'ishlab turdi.

Oybek 1926-yilda jahon adabiyotiga ilk bor murojaat etib, Anatol Fransning «Bashariyat tarixi» hikoyasini tarjima qiladi. «Bashariyat tarixi», aslida, mustaqil hikoya bo'lmay, fransuz adibining «Jerom Kunyar afandining fikr va mulohazalari» degan kitobidan olingan. Bu kitob dastlab «Echo de Paris» gazetasining 1893-yil 15-mart – 19-iyul sonlarida

feletonlar turkumi tarzida bosilgan. Asar naql shaklida bayon qilingan dialoglar silsilasidan iborat bo'lib, ularda qahramonning davlat tuzilishi, armiya, urush, axloq va huquq haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Bu hikoya tarjimasini o'qir ekansiz, bir savol tug'iladi: «Oybek shu asarni to'la holda o'qiganmi yoki Anatol Frans asarining biror jurnal yo gazetada e'lon qilingan parchasinimi?» Bizningcha, Oybek dastlab shu hikoya bilan tanishgan bo'lsa ham, bu ibratli Sharq afsonasini tarjima qilganidan so'ng, «Jerom Kunyar»ni, albatta, o'qib chiqqan.

Anatol Fransning Oybek tarjimasida e'lon qilingan hikoyasi, garchand Sharq afsonalariga asoslangan bo'lsa-da, kitobxonlarda katta taassurot qoldirdi. Balki Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanidagi: «Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar», degan so'zlari bilan hikoyadagi: «Mening donishmand otam moziydan xabardor bo'lib ish qilsalar, ko'p xato qilmaslar edi, deb aytgan edilar», degan so'zlari o'rtasidagi mushtaraklik tasodifiy emasdir.

Har holda Oybek bu hikoyani tarjima qilibgina qolmay, undan o'zi uchun kerakli xulosalarni chiqarib oldi. Birinchi va eng muhim xulosa, bizningcha, shu edi: har bir inson, ayniqsa, ijodkor faqat o'z xalqining tarixi va madaniyatini emas, bashariyat (ya'ni jahon xalqlari) tarixi va madaniyatini ham bilishi lozim. Oybek shu asosiy xulosaga asoslangan holda jahon xalqlari tarixi va madaniyati (jumladan, adabiyoti)ni o'zi o'rganibgina qolmay, yosh avlodning ham shunday bilimga ega bo'lishi uchun ko'maklashishga ahd qildi.

Oybek 1930-yili O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning ijtimoiy fanlar fakultetini tugatganida, nafaqat iqtisod fani asoslarini egallagan diplomli mutaxassis, balki bir necha she'riy kitobi chop etilib, she'ri-

yat muxlislari e'tiborini qozongan iste'dodli shoir ham edi. 1935-yilga kelib, Germaniyada, shuningdek, Moskva, Leningrad va boshqa shaharlarda o'qib kelgan yoshlar hisobiga respublikada kadrlar masalasi ozmi-ko'pmi hal bo'lgan edi. Shuning uchun Oybek ikki sohadan birini tanlashga majbur bo'ldi va u «sevdigi» adabiyotni tanladi.

30-yillarning o'rtalarida adabiyot bo'yicha maktablar uchun o'quv dasturlari qayta ko'rib, darslik hamda majmualarga o'zbek va rus yozuvchilaridan tashqari, jahon adabiyoti klassiklarini ham kiritish lozim deb topildi. Maorif xalq komissarligining shu haqdagi qarori Oybek uchun ayni mudao edi. U 1935-yili o'rta maktablarning 9-sinfi o'quvchilariga atalgan «Adabiyot xrestomatiyasi» uchun buyuk olmon shoiri Haynrix Haynening «Sileziya to'quvchilari» va «Qullar kemasini» she'rlarini tarjima qildi. 1937-yilning Oybekni ham Til va adabiyot instituti hamda Yozuvchilar uyushmasidan uchirib yuborgan bo'ron tingach, u 1938-yil oxiri 1939-yil boshlarida prof. N.F.Deratani tomonidan tuzilgan «Antik adabiyot xrestomatiyasi»ning Rim adabiyotiga bag'ishlangan 1-jildini o'zbek tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo'ldi.

Garchand mazkur xrestomatiya eramizdan avvalgi III–I asrlar Rim adabiyotining Plavt, Terensiy, Katull singari namoyandalaridan tortib, imperatorlik davri (milodiy I–II asrlar) adabiyotining Petroniy, Apuley singari romannavislarining ijodini qamrab olgan bo'lsa-da, unda shu shoir va yozuvchilarning ayrim asarlari yoki katta hajmdagi asarlaridan parchalargina berilgan edi. Shunga qaramay, bu majmuaning nashr etilishi o'zbek xalqining madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Kitobxonlar Oybek tarjimalari tufayli antik Rim adabiyoti va uning buyuk namoyandalari haqida ilk bor tasavvur hosil qildilar. Bu Oybekning jahon adabiyotini o'rganish va tarjima qilish so-

hasida olib borgan ijodiy ishlarining o'ziga xos cho'qqisi bo'ldi. Agar antik davr yunon va Rim adabiyotlari jahon adabiyotining beshigi bo'lganini e'tiborga olsak, Oybek jahon adabiyoti yutuqlarini o'rganish va o'zlashtirish ishlaridan biri bo'ldi.

Yuqorida bayon qilingan so'zlardan shu narsa ayon bo'ladi-ki, o'tgan asrning 30-yillarida O'zbekistonda rus adabiyoti bilan birga jahon adabiyoti durdonalarini ham o'zbek tiliga tarjima qilishga va o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti yutuqlaridan bahramand bo'lgan holda rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Cho'lpon, Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Shayxzoda, Mirtemir, Usmon Nosir singari shoirlar shu imkoniyatdan foydalanib, Sh.Rustavelining «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon», V.Shekspirning «Hamlet», A.S.Pushkinning «Yevgeniy Onegin», «Boris Godunov», «Bog'chasaroy fontani», «Kavkaz asiri», «Suv parisi», «Mis chavandoz», M.Yu. Lermontovning «Demon» singari o'nlab asarlarini o'zbek navolarida yangratib yuborishdi. Oybek 30-yillarda shiddat bilan boshlangan shu ijodiy ishni 40-yillarda ham davom ettirib, jahon komediya san'ati qirollaridan biri Jan Batist Molerning «Tartyuf» komediyasini o'zbek tiliga o'girdi. Ammo adib bu asarni hozirgi O'zbek Milliy drama teatri buyurtmasi asosida shoshib tarjima qilgani, shuningdek, suronli davrning boshqa muhimroq masalalari bilan bandligi sababli unga sayqal berish imkoniga ega bo'lmagan. Shunga qaramay, bu tarjima bilan tanishgan kitobxon Oybekning asar g'oyasi, qahramonlarning sajiyalari va o'zaro munosabatlarini chuqur his qilgani hamda buni tarjimada berishga intilganini, albatta, sezadi.

Shuni yodda tutish lozimki, sovet davridagi adabiy-madaniy siyosat zaminida sobiq ittifoq hududlarida yashagan xalqlarni nafaqat kommunistik partiya va sovet davlati g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, balki internatsiona-

lizm niqobi ostida ruslashtirish maqsadi ham yotgan. Sovet davrida rus mumtoz va zamonaviy adabiyoti namoyandalarning juda ko'p asarlari milliy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga shu maqsadda tarjima qilingan. Ammo 20-yillarda A.Serafimovichning «Temir oqim», M.Shaginyanning «Gidrotsentral» singari davrning dolzarb mavzularidagi asarlar tarjima qilingan bo'lsa, 30-yillarning o'rtalariga kelib, rus va qardosh xalqlar adabiyotining durdonalarini tarjima qilishga ehtiyoj tug'ildi. A.S.Pushkin vafotining 100 yilligi munosabati bilan ulug' rus shoiri durdonalarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi xuddi shu davrga to'g'ri keldi. Oybek «rus hayotining qomusi» (V.G.Belinskiy) deb baholangan «Yevgeniy Onegin» she'riy romanini o'girish jarayonida Pushkinni jahon she'riyatining buyuk arboblardan biri sifatida kashf etdi. U bu asarni tarjima qilish va pushkinona poetik mahorat «sir»larini o'rganish jarayonida o'z ijodida ham, qolaversa, o'zbek she'riyatida ham yuksalish ro'y berishi mumkinligini sezdi. Ana shu sezgi va Pushkin asarining badiiy latofati «Yevgeniy Onegin»ni katta ilhom va muvaffaqiyat bilan tarjima qilishiga sabab bo'ldi. Oybek nafaqat o'zining, balki qalamkash do'stlarining ham Pushkin ijodi durdonalarini o'zbek tiliga tarjima qilganidan g'oyat mamnun bo'lib bunday yozdi: «Bu yil o'zbek adabiyoti uchun juda baxtli yil bo'ldi: Pushkinning ko'p she'r va poemalari, hikoya va qissalari tarjima etildi. «Muftax ul-jinon»larni o'qib, «oxirat azoblari» vahimasidan ko'zlarga yosh olib uxlaydigan zamonlar ko'pdan yo'qolgan. Endi o'zbek kitobxonlari Pushkin she'rlarining fikrlariga, musiqasiga berilib, go'zallikni tuyadilar».

Oybekning Pushkin ijodiga bo'lgan qiziqishi «Yevgeniy Onegin»ni tarjima qilish bilangina yakunlanmadi. U V.G.Belinskiyning Pushkin ijodiga bag'ishlangan maqolalarini qunt

bilan o'rgandi, uning «Poeziyaning xil va turlarga bo'linishi» maqolasini va shu maqoladan o'rin olgan ulug' shoirning «Qishloq», «Tun nuri sohir...», «Bulut» singari she'rlarini tarjima qildi. Uning nazarida, ketmon, traktor, gudok, fabrika, zavod haqidagi «she'rlar» bo'g'ziga kelgan kitobxonlar Pushkinning bu va boshqa asarlarida tarannum etilgan fikrlar, tuyg'ular, musiqaning go'zalligini tuyib yayrashlari, shoir-lar esa Pushkindan poetik mahorat «sir»larini o'rganishlari mumkin edi. «Pushkin asarlarini xalqqa yetkazish kabi sharafl-i ishni bajarish bilan bir qatorda, – deb davom etdi u, – o'zbek shoiri va yozuvchilari ham Pushkin ijodining boy xazinasini atroflicha tekshirish, o'rganish vazifasini qo'yishlari lozim. Yildan-yil o'sayotgan o'zbek adabiyotining gullashiga Pushkin ijodi katta ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir».

Oybekning o'zi nafaqat Pushkin, balki Lermontov, Tyutchev, Tolstoy, Chexov, Gorkiy, Blok «ijodlarining boy xazinasini» ham atroflicha tekshirib, o'rganib, ulardan saboq olishga urindi. Zero, jahon adabiyotining muhim bir qismi bo'lgan rus adabiyoti yutuqlarini o'rganish uning o'z mahoratining oshishi, ijodining yangi, yuksalish bosqichiga ko'tarilishi uchun zarur jarayon edi. «Rus tili va adabiyotini o'rganish bilan, – deb yozdi u bir maqolasida, – kishi butun jahon madaniyati va butun jahon adabiyoti bilan-da tanishishga imkoniyat topadi. Chunki jahon adabiyotining eng yaxshi asarlari rus tiliga mo'l-ko'l tarjima etilgan va hozir ham tarjima etilmakdadir».

Biz Oybekning bu so'zlarini o'qir ekanmiz, Pushkindek buyuk dahoning tug'ilishida buyuk ingliz shoiri Bayronning roli oz emasligi yodimizga keladi. Boshqa rus shoir va yozuvchilarining shakllanishida ham ingliz, nemis, fransuz, italyan adabiyotlari buyuk namoyandalari ijodining ta'siri oz bo'lmagan. Umuman, adabiy ta'sir, adabiy aloqa badiiy ijod-

ni harakatga keltiruvchi, yangilab turuvchi, boyituvchi muhim vositadir. Oybek 30–50 yillarda qaysi shoir yoki yozuvchi asarini tarjima qilgan, ijodini oʻrgangan boʻlmasin, shu shoir yoki yozuvchiga jahon adabiyotining vakili sifatida yondashib, uning ijodiy yutuqlaridan, tajribasidan bahramand boʻlishga, shu asosda ijodiy oʻsishga intildi.

Oybek juda koʻp isteʼdodli shoir va yozuvchining asarini tarjima qilgan. I.A.Krillov (masallar), M.Yu.Lermontov («Maskarad»), M.Gorkiy («Makar Chudra», «Lochin qoʻshigʻi»), Anna Axmatova («Mardlik», «Bogʻda gʻalati chuqur...»), A.Tvardovskiy («Garmon») shular jumlasidan. Ularning orasida falakning gardishi bilan urush yillarida Toshkentga kelib qolgan chex shoiri, lax adabiy tilining asoschisi Ondra Lisakovskiy ham boʻlgan. Uning «Samarqand kuzi», «Bombardimon vaqtida», «Konchi partizanlar qoʻshigʻi», «Men shoir» degan sheʼrlari 1943-yilda «Qilich va qalam» toʻplamida Oybek tarjimasida dunyo yuzini koʻrgan.

O.Lisakovskiy garchand chex adabiyotining koʻzga koʻringan vakili boʻlsa-da, biz uni jahon adabiyoti namoyandasi sifatida alqash niyatida emasmiz. Zero, jahon adabiyoti milliy adabiyotlarning shoh asarlaridan, yillar va zamonlar oʻtsa hamki, badiiy latofatini yoʻqotmaydigan asarlardan iborat xazinadir, oltin fondidir. Shubhasiz, O.Lisakovskiy singari ijodkorlarning ham adabiyotning bepoyon olamida oʻz oʻrni, oʻlan-toʻshagi bor.

Oybek jahon adabiyotining nafaqat ingliz, nemis, fransuz, balki fors, hind, ozarboyjon, oʻzbek va rus millatlariga mansub namoyandalarning oʻlmas asarlarini ham oʻqib-oʻrgandi yoki tarjima qildi. Har ikki holda ham ulardan estetik zavq olish bilan birga ularga badiiy mahorat maktabining ustozlari sifatida munosabatda boʻldi.

Oʻylaymizki, oʻzi ham «Qutlugʻ qon», «Navoiy» romanlari va goʻzal, dilbar, umrboqiy lirikasi bilan jahon adabiyoti xazinasi boʻyishiga hissa qoʻshdi.

Ishq, dard va isyon shoiri¹

Zamonamizning mashhur shoirlaridan biri «Isteʼdodning tabiati – isyon», deb taʼkidlagan edi. Darhaqiqat, chinakam har bir isteʼdod sohibi yer yuzidagi zulm va bedodlikka qarshi kurash va isyon uchun dunyoga keladi. Hayot va jamiyat haqiqiy talant nigohi bilan oʻziga boqib, soʻz va ifodalaridagi gʻam-gʻussa, kulfat va musibatlarni tan olgandagina bir qadar yengil tortib mazlum-u bechora, gʻarib-u gʻurabolarni tushkunlik va umidsizliklardan har qalay muhofaza etadi. Hech kim buni fahmlamasam ham, shoir fahmlaydi, xalq-u xaloyiq shafqatsiz va berahm voqelik qarshisida qoʻrqib-qaltirab ojiz qolganda ham shoir hayotga suyanadi. Zero, hayotga yelkadosh va maslakdosh ijodkorning umri boqiy boʻladi. Qadim Xorazmning isteʼdodli, demakki, isyonkor farzandi Avaz Oʻtar ana shunday benazir shoirdir. Avaz sheʼriyati anʼanaviy adabiyot bilan yangi oʻzbek sheʼriyati orasida mustahkam bir koʻprik vazifasini oʻtagan, desa xato boʻlmaydi.

Avaz oʻzigacha yashab ijod etgan turkiy va forsiy adabiyotdagi salaflari ijod maktabidan ilhomlanib saboq olgan. Ammo nainki oshiqona, balki orifona sheʼrlarida ham u Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Bedil kabi buyuk sharq shoirlarining vorisi va munosib izdoshi qiyofasida oʻzini koʻrsata bilgan. Chunki u ruh, maʼni, goʻzallik va haqiqat fayziga yetishishning asl maʼnaviy manbalariga tayangan.

¹ Хаққулов И. Ишқ, дард ва исён шоири// <http://kh-davron.uz>

*Istagil darveshlardin fayzi ma'ni istasang
Kim, xarobi ko'hnalarda bo'lg'usi maxsuri ganj.*

Avaz O'tarning fikr hayoti, axloqiy-ma'naviy qismati, izti-rob ko'lamini va ruhiy yuksalishlari boshqa bir shoirnikiga aytarli o'xshamaydi. Shoirlikda she'riyatda ko'p takrorlangan g'am-g'ussa, hasrat va anduhdan quvvatli hamda fojeroq bir tuyg'u – yaratuvchan ehtiros mavjud. Ana shu ehtiros bosh ko'targanda u o'zini goh unutsa, goh o'zidan qochib fano holdan najot istaydi

Dunyoda zabun xalq va foje Vatan ishqini bilan og'riq qalbchalik to'g'ri yo'l ko'rsatadigan ulug' rahnamo bo'lmaydi. Ammo kaltabin va ongi zaif kimsalar buni fahmlamaydilar. Chunki ular ezgulik va taraqqiyot dushmanlari, «riyozat bila bermayin nafsalar ranj», ishi «xo'rd-u xob» bo'lgan qorin bandalari. Bundaylar «dam-badam bedod-u jabr-u zo'rliklar» qilib «zulm ila» millatni xarob etguvchilar. Avazning xudbin amaldorlariga bo'lgan nafrat aks etgan she'rlari ko'paygan sari unga nisbatan dushmanlik xurujlari ham kuchaygan. Biroq bor-yo'g'i o'ttiz besh yilgina umr kechirgan, shu qisqa hayotning keyingi yillari ham kulfat va og'ir azoblarga to'la bo'lishiga qaramay, Avaz katta ijodiy meros yaratib qoldira oldi.

Poetik so'z hech payt vaziyat, maqsad, shoirning ichki ruhiy xususiyatlaridan ajralgan holda paydo bo'lmaydi. Bas shunday ekan, shoirlik mahoratini ham ijodkorning hayotga qizg'in aralashuv hislari, umrning hal qiluvchi fursatlardagi hayotiy qarashlari, g'oyaviy tug'yonlardan uzilgan masalaga tushirilmasligi kerak.

Avaz – umid shoiri, zamonasi tan olmagan, turfa xil ishonchsizliklar ichida qaddini tiklay borgan tilaklar kuychisi. U hammadan ortiq hayotdagi o'zgarishlarga, qullik va nodon-

lik kishanlari parchalanishiga umid bog'lar hamda ishonardi. Avaz ko'p ijodiy fursatlarini g'azal yozishga bag'ishlagan shoirlardan. G'azal – inson qalbining armonli ohanglari, dardli ruhning alohida va yaxlit manzarasi. G'azalnavislik – ruh haqiqatlarini aks ettirishdir. Bu ma'nolar xoh ishqiy mavzuda bo'lsin, xoh falsafiy yoki axloqiy yo'nalishlarda bo'lsin buning ahamiyati yo'q, hamma gap tiriklik yoki o'lim mohiyatida bahsga kirishgan Ruhning hurriyatida. Chunki ruhiy ko'tarilish bo'lmagan yurakda aqliy balandlik bo'lishi mushkul.

An'ana iste'dodni tarbiyalaydi. Did, saviya imkoniyatlarining ochilishi va kengayishiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq u yurakka o't yoqmaydi. Avaz tasviridagi oshiqning tushunchasida olam va odamdagi mavjud barcha yomonlik hamda noqisliklarning o'zak-negizi «ahli olam»ning muhabbatsizligida. Uningcha, haqiqiy baxt ham, taxt ham, poklik ham muhabbatda:

*To muhabbatni kulohin kiymasam ushshoq aro,
Emdi Iskandar masallik toji Doroni netay?*

Avaz – mazlumsevar shoir. Ezilgan el va yurt qayg'ulari uning ruhida. Shuning uchun bo'lsa kerak, unda el tilidan gapirish, «millati mazluma ahvolin parishon» etganlar bilan xalq nomidan poetik mubohasalar yaratish mahorati yorqin. Uning bu yo'nalishdagi she'rlarida so'z sadolari og'zaki nutqqa yaqinlashadi, xalqning asriy dardlari, turmushi va taqdiriga oid savollar qo'yilib, poetik ta'kidlar qilinadi:

*Bizni aylab xor-u zor-u notavon etmoq uchun,
Bermayin osori hurlik bandi zindon etdingiz.
Bu falokatlar uchun mas'ul o'lursiz oqibat,
Zulmi istibdod ila millatni vayron etdingiz.*

Avaz o'zidagi uyg'onish va fikriy o'suvni zamondan deb baholaydi, ongi uyg'onayotgan kishilarni o'ziga o'xshatadi.

Badiiy ijodda ba'zan shunday she'rlar dunyoga keladiki, ular alohida shoirlarnigina emas, davr va zamon she'riyatining nafasini belgilashga xizmat qiladi. Bunday she'rlar o'qilganda «Shoir kim va mahoratining kuchi nimada?» degan savolga kishi javob topganday bo'ladi:

*Yo'q jahon mulkida bizdek ojiz-u bechora xalq,
Zulm tig'i birla bo'lg'on bag'ri yuz ming pora xalq.*

Shoirning vazifasi – ezilgan odamning dilini ezish, ahvolning behad og'irligini pisanda qilib, ruhni jonsarak etishdan iborat emas. Balki har qanday qiynoq va nochorlikning sabablarini yoritish, ularga qarshi keskin norozilik uyg'otib, kurashga chorlashdan iborat. «Xalq» she'rida Avaz ham shu pozitsiyada turib qalam yuritgan.

«Adabiyot o'z oldiga qo'ygan maqsad borasida muvaffaqiyat qozonish uchun metaforalardan, allegoriyalardan, poetik vaznlardan, imo-ishoralardan foydalanadi», – deydi Rabindranat Thokur. She'riyatda tadbiiq qilinadigan poetik tasvir usul va vositalardan ham bosh muddao shu: his-tuyg'uga asoslangan fikrni jozibador, inson qalbiga teran va uzoq ta'sir ko'rsata oladigan uslublarda tasvirlashda muvaffaqiyat qozonish. Shoir buni mukammal darajalarda eplasa, demak u mahoratli. Uning qalamida sir bor – o'quvchini hayajonlantirish siri.

Avaz she'riyati g'oya va tuyg'ulari bilan emas, badiiy vositalari, serjilo tashbihlari obrazlar olamining originalligi bilan ham tahsinga loyiq. Bu tomondan ham, uning o'z so'zlari bilan ta'riflaganda, «Avaz nazmig'a har abyot-u devon o'xshamas»dir.

*Meni holim ash'orim ichradurur,
Bayon-u, bayon-u, bayon-u bayon,*

deydi Avaz. Bu – haqiqat! Avaz o'zining sevimli qahramoni – oshiq kechinmalari, orzu, dard va fikrlarini aks ettirganida o'z yurak holati va iztiroblari manzaralarini ham ularga uyg'unlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, Avaz g'azallarini uning shaxsiyati, shaxsiyatidagi porloq fazilatlar bezab turadi.

Avaz O'tarning fikr hayoti, ma'naviy toleyi, qalb iztirobi va ruhiy isyoni boshqa bir shoironikiga o'xshamaydi. Uning shoirligida o'zgalar tomonidan ko'p takrorlangan g'am-anduh va hasratdan quvvatli hamda ko'lamliroq bir tuyg'u mavjud.

Avaz ham dili ezgin, «yaralari ochiq» (Asqad Muxtor) shoirlardan. Uning nola-yu nadomat, g'ussa-yu hasratlarini ko'ngildan o'tkazib, ruhan idrok aylay bilgan she'rxon tasavvurida Avaz o'zbekning eng buyuk jafokash shoirlaridan biri sifatida suvratlanib qolishi shubhasizdir. Xato va kamchiliklaridan qat'i nazar o'nlab olimlarning xizmatlari tufayli yurtimizda avazshunoslik, degan fan tarmog'i shakllangan. Davr va zamon talablarini to'la inobatga olib, bilimdonlik bilan uni rivojlantirish lozim. Shunda Avaz O'tar bizga, biz esa uning hasratkash shaxsiyati va she'riyatiga har qalay yaqinlashgan bo'lamiz.

«Xamsa» obrazlar tizimida «Oshiq», «Ma'shuqa», «Raqib» uchligi¹

Har bir asarni u maydonga kelgan ma'naviy-ma'rifiy, tarihiy-badiiy, ijodiy-individual kontekstda, ayni paytda, umum-bashariy tafakkur doirasida muqoyasaviy planda kuzatadigan bo'lsak, biz ushbu bob markaziga qo'ymoqchi bo'layotgan

¹ Жўрақулов У. Алишер Навоий «Хамса»сида хронотоп поэтикиси. Монография. – Тошкент: Турон-иқбол, 2017.

obraz va tizim tushunchalarining bir qadar shartli ekani ma'lum bo'ladi. Ya'ni bu o'rinda antik yunon adabiyoti asosida shakllangan poetika ilmi, uning izchil davomi sifatida yashab kelayotgan Yevropa adabiy-nazariy tafakkuri maydonga olib chiqqan va bugun jahon xalqlari uchun yagona qoidaga aylanib bo'layozgan janr, kompozitsiya, syujet, obraz singari poetik birliklar kanonlarini boshqa bir adabiy-tarixiy maydonlarda shakllangan, mustaqil estetik hodisalarga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri qo'llash qanchalik o'zini oqlaydi, degan metodologik savolga duch kelamiz.

Garchi, bugun biz tayanadigan adabiyot nazariyasi fani, barcha zamon-makonlarga xos adabiy manbalarga nisbatan yagona mezon mavjud degan tushunchani ilgari sursa-da, har bir badiiy hodisaga nisbiy mustaqil fenomen sifatida qarash zarurati, ushbu tushunchaning to'la ma'noda o'zini oqlamasligini ko'rsatadi. Masalan, xitoylardagi dao, hindlardagi dxarma, yaponlardagi tsiogun asosida shakllangan poetik kanonlar, ularning negizida talqin etiladigan janr, kompozitsiya, syujet, obraz tushunchalari Yevropa nazariy poetika ilmidagi badiiy kanonlardan ma'lum darajada farq qiladi. Hatto Yevropa adabiyotining bir davridagi (masalan, Antik davr) nazariy kanonlar boshqa bir davrdagi (masalan, o'rta asrlar yoki Uyg'onish) nazariy kanonlar bilan ayniyatda emasligi kuzatiladi¹. Bizningcha, buning ijtimoiy-tarixiy davr, tuzum, adabiy muhit, poetik kanonlar, milliy va ijodiy individuallik singari qator obyektiv va subyektiv sabablari bor. Ammo bularning ichida eng muhimi, uch zamon va uch makon voqeligini poetik idroklash usuli

¹ Chunki yagona geografik hudud, yagona mentalitet doirasidagi millatlar hayotida Antik davr politeistik (ko'pxudolilik), o'rta asrlar va Uyg'onish davrlarida moneteistik (yakkaxudolilik) qarash yetakchilik qilganki, bu ularning badiiy tafakkuri, adabiy manbalarida bevosita o'z aksini topgan (U.J.).

– dunyoqarash, e'tiqod masalasidir. Nazariy-poetik kanonlar xilma-xilligining eng muhim sababi aynan shu, boshqa barcha sabablar birinchilikka da'vo qila olmaydi.

«Xamsa» tarkibini tashkil etuvchi besh doston alohida janr, syujet, kompozitsiya, ritm (vazn) xususiyatlarini namoyon etishi, fabula tizimi, obrazlarning tarixiy, rivoiy, xalqona asoslari turli zamon va makonlarga tegishli bo'lsa ham, toki yagona xronotop maydoni doirasida qaralmas ekan, Navoiy ilgari surmoqchi bo'lgan badiiy konsepsiyaning tub mohiyatini anglash mumkin emas. To'g'ri, «Xamsa»dagi Farhod chin, Shirin arman, Majnun va Layli arab, Bahrom va Ravshanak fors, Dilorom xitoy, Iskandar rum, Mehrnoz hind millatiga mansub. Ular orasidagi zamon munosabatlarini ham aniq belgilash mumkin emas. Chunki ularning ba'zilarida tarixiylik (xususan, Iskandar va Bahrom) xususiyati yetakchi bo'lsa, boshqalarida rivoiylik, afsonaviylik (Farhod, Majnun, Shirin, Layli va h.k.) xos.

Xo'sh, shunday ekan, «Xamsa» obrazlarini yagona tizim ostida uyg'unlashtiruvchi, bir butun badiiy xronotop tarmoqlari sifatida namoyon etuvchi asos konsepsiya nimada? Biz qaysi nazariy kriteriyga ko'ra, «Xamsa»da obrazlar tizimi, degan muammoni qo'ya olamiz? Agar bu tizim mavjud bo'lsa, qanday poetik strukturaga ega va uning asosida nima turibdi? Ushbu bo'limning bosh vazifasi ayni savollarga javob berishdan iborat. Shunda biz Sharq-islom adabiyotiga xos poetik kriteriylarning o'ziga xosligi, xususan, «Xamsa» obrazlari tizimi, unga xos xronotop poetikasi haqida muayyan xulosalarga ega bo'lishimiz mumkin.

Biz tomonimizdan ushbu bo'lim markaziga olib chiqilgan «oshiq», «ma'shuqa», «raqib» obrazlari adabiyot tarixida «Xamsa»dan oldin ham mavjud edi. Qadim (ya'ni xamsachilikka) epos, roman, doston va qator lirik janrlar (masalan,

elegiya, qasida, g'azal, sonet, oda, ruboiy va h.k.) tarkibida an'anaviy obrazlar guruhi o'laroq yashab keldi. Epos, roman, qissa singari sof epik janrlar badiiy strukturasi keng epik plandagi poetik vazifasini aniq-tiniq namoyon etdi. Muayyan tizim sifatida shakllandi. Avvalgi boblarda ta'kidlaganimizdek, ayni tizim Sharq mumtoz dostonchiligi, xususan, «Xamsa» obrazlari bilan to'g'ridan-to'g'ri genetik munosabatga ega. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tizimning paydo bo'lishi, tarixiy shakllanish bosqichlari, poetik vazifalarini to'g'ri belgilash uchun «oshiq», «ma'shuqa», «raqib»dan iborat uchlik obrazlar genezisi xususida muxtasar to'xtalish zarurati bor.

«Oshiq», «ma'shuqa», «raqib» uchligining «Xamsa» xronotopi tomon poetik hamda xronologik harakat trayektoriyasi taqriban shunday: ilohiy kitoblar – mif – epos – roman – qissa – doston – «Xamsa». Ayni obraz tizimi semantik-struktural xossasiga ko'ra «Xamsa»ga qadar quyidagi sinkretizm, differentsiatsiya va sintetizm bosqichlarini bosib o'tgan:

a) ilohiy kitoblar («Zabur», «Tavrot», «Injil», Qur'oni Karim)da. Bunda bashariyat uchun zarur, uning kelajak faoliyatiga qaratilgan muhim axborot sifatida nozil etildi¹. Ilohiy axborotlarda bayon etilishicha, yer yuziga qadam qo'ygan odam

¹ Ayni axborot Odam Ato, Momo Havvo va Iblis o'rtasida kechgan voqea tafsiloti sifatida o'zining aniq bayon strukturasi bilan ilohiy kitoblar, xususan, Qur'oni Karim sahifalarida nozil bo'ldi. Real dalillar, rad etib bo'lmas tarixiy asos, yuksak badiiy shaklda (i'jod maqomida) hikoya qilindi. Shunga ko'ra, bu voqea oyat, ilohiy ko'rsatma, shariat yo'li, ibrat, nasihat, yaxshilikka chaqiriq (amri ma'ruf), yomonlikdan qaytaruv (nahyi munkar) bo'lishi bilan bir qatorda ijodkor inson tayanishi, ulgi olishi, taqlid qilishi mumkin bo'lgan hikoya (badiiyat shakli) hamdir. Haqiqatan, adabiyotning ilk namunalarini mana shu asl manba negizida shakllandi. Yo'qdan bor qilish qudratidan mahrum odamzot, barcha ishlarda bo'lgani kabi, o'z adabiyotini kashf etishda ham har narsaga qodir Zot (Olloh)ning kitoblariga taqlid qildi. Mana shu dalilga tayangan holda «oshiq», «ma'shuqa», «raqib» uchligi ishtirok etadigan mazkur ilohiy voqea tafsiloti bayon etilgan matnni shartli ravishda «ilk syujet» deb atadik. Bu haqdagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar sifatida qarang: Драма жанри (ёзилиш санаси 2011 йил) // Журакулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент, 2015. – Б.49 – 53; Биринчи ўзбек романи – «Ўткан кунлар» (ёзилиш санаси 2014 йил) // Журакулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент, 2015. – Б.151 – 193; Ишқ қисмати шу азал-абад // Тафаккур. 2014. №3. – Б.54 – 61 (U.J.).

zoti borki, oxir bir kun o'z Yaratguvchisiga qaytadi. Boshqacha aytganda, yer yuzida hayot kechirishdan asl maqsad Yaratgan amriga muvofiq yashash. Shundagina inson mangu saodat (Uning visoli)ga erishadi. Ammo bu yo'lda jiddiy to'siqlar bor. Bu to'siq Iblis bo'lib, uning vazifasi insonni asl maqsad – Yaratgan buyurgan yo'ldan chalg'itish, jamoliga vosil bo'lish saodatidan mahrum etish. Bu ulkan jarayonda Iblisning yordamchilari juda ko'p: shayton, jinlar, inson nafsi, nafs yo'liga kirgan odamlar (shaytanat), turli-tuman dunyo ne'matlari (boylik, martaba, aysh-ishrat) va h.k. Demak, ilohiy kitoblarda Haq jamoli (jannat, ajr-mukofot)ga talabgor inson – oshiq, insonni bu ne'matlardan bahramand etuvchi Yaratgan (Olloh) – ma'shuqa (yoki ma'shuq), oshiq va ma'shuqa o'rtasiga to'siq bo'lishga intiluvchi kuch (Iblis) – raqib tarzida namoyon bo'ladi. Bu tizim ilohiy kitoblarda qanday bayon etilgan bo'lsa, zamon oxir bo'lgunga qadar shu holatda qoladi. Mutloq haqiqat sifatida o'zgarmaydi (bu tizim bashariyatning diniy-ma'rifiy, ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlarini ifodalaydi);

b) mifda – bunda syujet va obrazlar tartibi o'zgardi. Ba'zan ma'shuqa o'rnini raqib egallagan bo'lsa, ba'zida oshiq nazari tamomila boshqa obyektlarga qaratildi, bunda raqib goh homiy, goh do'st sifatida talqin qilindi. Keskin o'zgarish shunda ki, oshiq o'zining asl maqsadidan chalg'idi. Uning harakatlari xaotik tus oldi. Har uchala obraz individual sifatlarini yo'qotdi, umumlashdi (bunda bashariyatning nafsoniy, jismoniy va psixologik intilishlari aks etdi);

d) eposda. Epos uchligi qisman ilohiy kitoblar, qisman mif ta'sirida shakllandi. Zamonlar o'zgarishi (bu o'rinda mif hukmron bo'lgan – johiliya davrlari va ilohiy aqidalar hukm surgan ma'rifat davrlari nazarda tutilyapti)ga qarab, ayni uchlik mohiyati, shuningdek, epos syujet tizimi ham turli o'zgarishlar-

ga uchradi. Obrazlar ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik jihatdan milliylashdi. Oshiq – milliy qahramonga, ma’shuqa – millat onasiga, raqib – millat raqibiga aylandi (bunda insoniyatga xos ijtimoiy-milliy maqsadlar ifodalanadi);

g) roman, qissa, doston janrlarida. Bu janrlar doirasida «oshiq», «ma’shuqa», «raqib» uchligini birlashtirib turadigan yagona jihat ayni tizimning umumiylikdan xususiylikka, umuminsoniylik yoki milliylikdan individuallikka tomon og‘ishidir. Sharq va G‘arb adabiyotida ulkan zamon va makon ko‘lamini ishg‘ol etadigan bu janrlar ilohiy, umuminsoniy, milliy muammo (maqsad, dard, intilish)larni tom ma’noda xoslashtirdi. Bu janrlar doirasiga kirgan oshiq – o‘z jufti talabidagi insonni, ma’shuqa – ayni juftning o‘zini, raqib – juftlik orasiga tushgan boshqa bir talabgorni bildiradi. Bunga misol tariqasida «Tohir va Zuhra», «Oshiq G‘arib va Shoxsanam», «Bahrom va Gulandom» tipidagi dostonlarni, «Siyovush va Sudoba», «Yusuf va Zulayho» singari qissalarni, «Levkippa va Klitafont», «Armeniy va Tusenilda», «Tristan va Izolda» tipidagi romanlarni ko‘rsatish mumkin (bunda odamning maishiy, moddiy, jismoniy ehtiyojlari yuzaga chiqadi). Bu o‘rinda istisno o‘laroq o‘z cherkovi ordeni va Yaratgan amri uchun kurashni bayroq qilib olgan Yevropa ritsar romanlari, Xudo yo‘lida xizmat qiluvchi ruhoniylar haqidagi diniy-mistik qissalar, dramalar (misteriyalar)ni qayd etish joiz. Biroq Sharq-islom adabiy muhitida maydonga kelgan «Ismoil alayhissalom», «Zufnun», «Ka‘b ul-axbor», «Ibrohim Adham», «Shoh Mashrab» qissalari, islom shariati va tariqati ruhida ijod etilgan dostonlar bu qatorga kirmaydi. Ayni paytda, bu tip asarlar «Xamsa» badiiy konsepsiyasi, obrazlar tizimining shakllanishida muhim o‘rin tutganini yana bir bor ta’kidlash zarurati bor;

d) xamsa janrida: 1) universal badiiy matn qamrovini egalladi (besh doston yagona kontekstda umumlashdi); 2) epik tasvir ko‘lami kengaydi (makon-zamon jihatidan butun sayyorani qamrab oldi); 3) konseptual nuqtayi nazardan ilohiy miqyosga qaytdi (abror-odamning oshiqlik yo‘li Qur‘oni Karim asosida shakllantirildi); 4) oshiq – ma’shuqa – raqib haqidagi ilohiy axborot badiiy planda talqin etildi, asar poetik doirasiga asos qilib olindi; 5) uchlik obraz tizimini uch maqomda, bosqichma-bosqich badiiy aks ettirdi: avom ishq, xavoss ishq, siddiq ishq yoki hayvoniy (shahvoniy) ishq, majoziy ishq, haqiqiy ishq.

Oshiq – ma’shuqa – raqib obrazlar tizimi o‘zak-mohiyatida ishqning uch bosqichi turishi adabiyot tarixida ilk bor «Xamsa» janri misolida universal ko‘lamda o‘rtaga qo‘yildi. Shu nuqtayi nazardan «Xamsa»dagi obraz tushunchasi, obrazlar tizimi mohiyatini belgilovchi asos ishq fenomeni hisoblana-di. Bir yoki bir necha obraz tabiati, ichki semantikasi, maqomi (darajasi), xususan, xronotopik shakli va ko‘lamini bevosita ishq belgilaydi.

Sharq va o‘zbek mumtoz adabiyoti, islom tasavvufiy timsollar nazariyasiga oid manbalarda oshiq ishqning, ishq esa oshiqning fenomenal manbasi, quvvat zahirasi ekani qayd etiladi. Oshiqning mohiyati u hosil etgan ishq maqomi bilan belgilanadi. Oshiq atrofidagi barcha shaxs, narsa va hodisalar u erishgan maqom xronotopi doirasida mavjud bo‘ladi. Shunga ko‘ra oshiqning ma’shuqa tomon yo‘li har doim undagi ishq darajasi, holati va mezonlari bilan o‘lchanadi. Ammo oshiq harakati ma’shuqa harakati, oshiq xohishi ma’shuqa xohishi, oshiq holati ma’shuqa holatidan kelib chiqadi. Shu ma’noda oshiq ma’shuqa suratining aksi, soyasiga o‘xshaydi.

Ayni paytda oshiq – ma’shuqa – raqib uchligi uchun sinov maydoni, ishq va o’zlikni anglash jarayoni ilk uchrashuv, ayriliq, visol xronotoplarida sodir bo’ladi. Odatda ushbu xronotop shakllari syujet qurilishini tashkillovchi poetik komponent (motiv)lar hisoblanadi. Ammo ularning asl mohiyati syujetdan ko’ra obraz tabiatini yoritishda yorqinroq ko’rinadi. Aniqrog’i, badiiy asar tarkibidagi har qanday obrazning «hayot yo’li» shu xronotoplar oralab o’tadi. Bu xronotop maydonlarida sinaladigan qahramon o’zining kim ekani, qanday vazifa bilan dunyoga kelgani, nimalarga qodirligi va nimalarga loyqligini isbotlaydi. Umuman, «ilk uchrashuv», «ayriliq», «visol» xronotoplari uyg’un holatda faqat oshiq-ma’shuqa-raqib yoki bosh qahramonni emas, asardagi bir butun obrazlar tizimini uyg’un tahlil etish imkonini beradi. Hatto badiiy asardagi syujet, obraz, xarakter, portret, detal, uslub singari boshqa muhim komponentlar ham faqat uchrashuv (kontakt) jarayonida (zidlash, qiyoslash, muloqot ko’rinishida) o’zini to’la namoyon eta oladi.

...»Xamsa»dagi oshiq – ma’shuqa – raqib tizimi va bu tizimning bir butun janr xronotopida universallashuvi aynan «Mahbub ul-qulub» tasnifidan kelib chiqadi. Hatto muallifning o’zi xavoss ishq ta’rifida bevosita «Xamsa» qahramonlariga havola qiladiki, bu bizni oshiq – ma’shuqa – raqib uchligining bir butun «Xamsa» janri doirasida ichki semantik-struktural munosabatga ega ekani, ishq bosqichlarining tadrijiy yo’sini o’laroq bir-birini to’ldirishi, universal badiiy konsepsiyani ifodalashi xususida xulosa chiqarishga olib keladi. Xususan, Navoiy yozadi: «Inodi olinda teng ham podshoh, ham gado. Bedodi qoshinda bir ham fosiq, ham porso. Oshiq ko’ngliga ma’shuq havosin solg’uchi ham ul va bir jilvasi bila naqdi havosin olg’uvchi ham ul. Va oshiq mundoq baloning giriftori va mundoq ofatning beixtiyori...

Ishq ko’histoni bedodining noshodlaridin biri Farhodur va sahroyi junun zabunlaridin biri Majnundur...»¹.

Shularga asosan «Xamsa» obrazlar tizimidagi oshiq – ma’shuqa – raqib uchligini «Mahbub ul-qulub» tasnifiga ko’ra o’rganish, avvalo, Sharq-islom adabiyotining poetik o’ziga xosligini ko’rsatsa, ikkinchidan, «Xamsa» obrazlar tizimi mohiyatini to’g’ri belgilashga olib keladi degan tezisni ilgari surish mumkin.

«Mahbub ul-qulub» tasnifiga ko’ra ishqning ikkinchi maqomi bo’lib xavoss (xoslar) ishq keladi. Ishqning o’rta maqomiga mansub va asosida xavoss ishq turuvchi oshiq obrazini esa «Xamsa»dagi ikkinchi, uchinchi dostonlarda kuzatamiz. Ularning oshiqligi, ishq yo’lida ko’rgan-kechiryotganlari «Mahbub ul-qulub»dagi ta’rifga to’la mos keladi. Yuqorida qayd etganimizdek, «Mahbub ul-qulub»da bu ikki qahramonga ochiq ishoralar bo’lgani singari, ayni qahramonlar tabiati, maishati tasvir etilgan ko’p o’rinlarda «Mahbub ul-qulub» ta’rifiga aynan mos tushadigan o’rinlarni uchratamiz.²

Navoiy «Farhod va Shirin»dagi ishq konsepsiyasiga «ahli namoz» (ya’ni Ibrohim Adham) yo’lini asos qilib olgan. Asardagi oshiq – ma’shuqa – raqib uchligini ham ayni maqom asosiga qurgan. Farhodni ma’shuqa tomon olib boruvchi yo’l mehnat-mashaqqatlar oralab o’tadi. U ham, xuddi Ibrohim Adhamga o’xshab, muayyan xarita bo’ylab harakatlanadi. Uning faoliyatida tavakkul asosiy o’rin tutmaydi. Uning tavakkuli avvaldan tuzilgan reja doirasidan chiqmaydi (deylik, tilsim yozuviga ko’ra Ahrimanni yenggan Farhod tavakkuli ham oldindan belgilab qo’yiladi). Shuningdek, Farhod biografiyasi

¹ Alisher Navoiy. Ko’rsatilgan asar. – B.66.

² Masalan, Majnun Layli visoliga yetishgan nuqtada shunday tasvir keladi: Har ishki o’tub haloklikdin / Ayru emas erdi poklikdin / Ishq ahli bu nav’ o’lsalar pok / Gar vasi muabbad o’lsa ne bok... («L.M.», 250-bet).

(tugʻilishidan tortib, oʻlimiga qadar) muayyan dinamikadan kelib chiqadi. Dastlab u oddiy odamlar egallagan boʻlgan barcha ilmlarni egallaydi: oʻqish, yozish, hunar, harbiy ilm kabi. Soʻngra oʻz nomiga qilingan tilsim boʻyicha harakatlanaadi. Farhod erishadigan har bitta bosqich muayyan ilm, riyozat va mehnatni talab etadi (gʻor, suv xronotoplarida amalga oshirgan ishlarini eslang).

Farhod mana shunday mashaqqatli sinov yoʻlini bosib oʻtgandan keyingina yor jamolini koʻrishga erishadi. Ammo bu yoʻlda unga raqib toʻsqinlik qiladi. Bu vazifani asarda Xusrav bajaradi. Xusrav xuddi xalq ertaklari, doston va qissalaridagi raqiblar singari oʻz vazifasini mukammal bajaradi. Turli yoʻllar bilan oshiqning visol saodatiga erishuviga toʻsqinlik qiladi: Shiringa sovchi qoʻyadi, Farhodni asir oladi, odam yollab, oʻlimiga sabab boʻladi. Ammo Xusrav faqat zohiriy raqib, xolos. Mohiyatga koʻra qaralganda uning chin maʼnodagi raqib emas, oshiqning asl maqsadiga yetishuvi uchun bir vosita ekanini maʼlum boʻladi.

Farhodning asl raqibi hayotning oʻzi. Uning chin maʼshuqa, yaʼni Olloh visoliga yetishuvida oʻz hayoti toʻsiq boʻlib xizmat qiladi. Xusrav esa unga mana shu toʻsiqdan qutilishiga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan bu uchlik tizimidagi Shirinning oʻrni ham ikkinchi darajaga tushadi. U ham xuddi Xusrav kabi vositaga aylanadi. Natijada Farhod oʻlimi bir butun asar kontekstida fojia emas, yechim vazifasini bajaradi. Boshqacharoq aytganda, Ibrohim Adham singari soʻngsiz mashaqqatlar bilan manzilga yetib kelgan Farhod Kaʼbani topmaydi. Murodiga yeta olmaydi. Safarning ikkinchi bosqichi (Shirin yurtida kechgan voqelik nazarda tutilyapti) Farhod uchun azaliy dardning kulminatsion nuqtasi boʻlib keladi. Faqat oʻlim uni asl maqsadiga – Yor visoliga yetkazadi.

«Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» asarlarini «xavoss ishqi» konsepsiyasiga koʻra talqin etilganda mana shunday oddiy, ayni paytda oʻta murakkab talqin maydonga keladi. Aslida xavoss ishqi nisbiy stixiyaga asoslanadi. Shuning uchun bu yoʻlda chalkash, murakkab, tushunib boʻlmaydigan jihatlar koʻp. Negaki, bu yoʻlda inson tabiatidagi oliy va tuban sifatlar sinovdan oʻtadi. Bu esa obraz talqinida ayrim murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Bunday oshiq – maʼshuqa – raqib tizimi ham, ayni sababdan, ikki qatlamli harakat trayektoriyasiga ega.

Mana shu konsepsiyadan kelib chiqqanimizda, «Saddi Iskandariy»da tasvir etilgan yoʻl siddiq yoʻli, undagi badiiy talqin «siddiq ishqi» talqiniga qaratilgani maʼlum boʻladi. Haqiqatan ham, Farhod va Majnun obrazlaridan farqli oʻlaroq Iskandar siddiq ishqini talqin etadi. Negaki, muallif Farhod va Majnun obrazlarini tasvirlashda anʼanada mavjud xalq afsonalarini vosita qilib olgan boʻlsa, Iskandar haqidagi asarning maydonga keltirishda bevosita Qurʼoni Karim haqiqatiga tayanadi. «Qurʼoni karim» talqiniga koʻra Iskandar, avvalo, tarixda yashab oʻtgan real odam. Ikkinchidan va, eng muhimi, tom maʼnoda siddiq. Yaʼni Olloh buyurgan vazifani hech ikkilanmasdan, Yaratguvchiga cheksiz muhabbat bilan bajargan Haq oshigʻi.

Biroq Iskandar ham, aynan raqib masalasida Farhod va Majnun bilan qismatdosh (zotan, dunyoni Olloh visoliga yetish uchun bir vosita deb biladigan har bir eʼtiqod egasi, har qanday moʻmin uchun dunyo raqibdan boshqa narsa emas). Ammo bu shunday raqibki, uni oʻrganish, mahv etish yoʻlida maʼshuqa koʻrsatmalariga sadoqat bilan amal qilgan insonni mangu sadoqatga yetkazadi. Shu bois Iskandar yoʻli qandaydir tilsim xaritasi yoki ishq jazbasidan kelib chiqadigan xaotik soʻqmoqlar

oralab o'tmaydi. Uning yo'li aniq va ishonchli yo'l – Qur'oni Karim «xaritasi»ga asoslanadi. Bu xaritani Iskandar hech qachon qo'lidan qo'ymaydi. Xaritada belgilangan yo'ldan sira chekinmaydi. Qalbidagi ilohiy ishq uni shu qadar qat'iyat va sadoqatga olib keladi. Shuning uchun ham biz Iskandarni tom ma'noda siddiq, uning ishqini esa siddiq ishq deyishga haqlimiz.

Yuqoridagi ikki asardan farqli o'laroq «Saddi Iskandariy»da «arusi dahr» xronotopidagi turli-tuman raqiblarga o'ta kam e'tibor qaratiladi: jahongirlik shuhrati, hisobsiz boylik, dunyoning eng go'zal ayollari (Ravshanak, Mehrnoz, Chin go'zali) u qadar hal qiluvchi rol o'ynamaydi. Iskandar qat'iyat va so'ngsiz shijoat bilan o'z vazifasini bajaradi, xolos. Shu sabab Ollah marhamatiga erishadi. Dunyo hayotida valiylik, nabiylik maqomiga erishadiki, na Farhod, na Majnunning ishq saltanatida egallagan maqomi bunga teng kela oladi.

«Hayrat ul-abror»ning XLIX bobida Iskandar haqidagi mashhur bir rivoyat keltiriladi. Ayni rivoyat «Saddi Iskandariy» syujeti finishida ham aynan takrorlanadi. Rivoyat dunyoning bevafoqligi, undan hech kim, hech narsa olib keta olmasligi haqida. Bu rivoyatda sidq ahlining dunyo haqidagi xulosasi aks etgan. Umuman, ushbu xulosa «Xamsa»dagi konseptual sintezni, ayni paytda, dunyo haqida muallif to'xtamini ham ifodalaydi. Qarilik yoki o'lim arafasi (o'lim yosh-qarini tanlamasligi ham ulkan bir xulosa), oxirzamon yoki qiyomat universal ma'noda dunyo hayotining intihosidir. Bu universal voqelik Sharq adabiyotida, asosan, qish timsolida tasvirlanadi. Yetti iqlimni o'z bilimi va hukmi ostiga jamlagan Iskandar olamshumul safarlari so'ngida, qish faslida ustoz Arastu bilan inson umrining intihosi xususida so'zlashadi. Mohiyatan olganda, «Xamsa»dagi «bo'sh qo'l» konsepsiyasining nazariy asoslari shu suhbatda o'z ifodasini topgan.

Zotan, «Xamsa»ning qayerda tanazzul, keksayish, intiho-ga oid voqealar tasvir etilsa, albatta, qish fasliga bog'lanadi. Iskandar syujetida ham ayni mavzu «bo'sh qo'l» konsepsiyasi oldidan keladi. Go'yo muallif bu bilan o'z qahramonini dunyo va uning mohiyati haqidagi ulkan bir xulosaga tayyorlaydi. Ayni xulosa muallif tilidan shunday bayon etiladi:

*Navoiy, jahondin vafo istama,
Tutub benavolig', navo istama!
Birovga jahondin yetishmas ano
Kim, ul tutsa oyini faqr-u fano...*
(«S.I.», 533-bet.)

Bu xulosa «Xamsa»dagi boshqa qahramonlar xulosasi bilan aynan mos kelishi barobarida muallif badiiy konsepsiyasining Sharq-islom adabiyoti, xususan, epik poeziyasi kontekstidagi ulkan muloqot (global diskurs)ning salmoqli va muhim qismi ekanini ko'rsatadi.

Bundan chiqariladigan xulosa shuki, Sharq-islom tafakkuridagi o'lim u qadar katta fojia deb qaralmaydi. «Qutadg'u bilig» muallifi aytmoqchi, tirik odam borki, albatta o'ladi (aslida bu Qur'oni Karim oyatidan iqtibos: «Har bir tirik jon o'lim sharobini totguvchidir». 3: 185). Muhimi o'lim tomon qay holatda borishda. Boshqacha aytganda, dunyo maydonini qanday xulosa bilan tark etishda.

Bahrlar va ulardan hosil boʻluvchi vaznlar qiyosi¹

Aruz tizimida ruknlar birlashib, bahrlarni hosil qiladi. «Bahr» soʻzi arab tilida «dengiz» degan maʼnoni bildiradi. Manbalarda *bahrning* dengiz bilan aloqadorligi xususida deyarli maʼlumot keltirilmagan, faqat Sayfiy ushbu soʻzni istiloh bilan bogʻliq holda quyidagicha talqin qiladi: «Bahr «dengiz» degan maʼnoni bildiradi; ammo forsiy tildagi atamalarda u sheʼriyatdagi bir qancha turlarni ichiga olgan vaznli oʻlchovlarning toʻplam yoki sinflarining biri maʼnosini anglatadi. U dengizga solishtiriladi, chunki dengiz narsalarning turlarini, marjonlar, oʻsimliklar, hayvonlar va boshqalarni oʻz ichiga oladi, shuningdek, sheʼrlar ham izohlanayotganidek, turli bahrlarda yaratilgan boʻladi. Baʼzilar bundagi oʻxshashlikni joylashuvda deb aytadilar, kishi suv tubiga yiqilganda gangiydi va chalkashadi, sheʼriyat dengiziga yiqilganda ham vaznlarning koʻplab oʻzgargan shakllariga duch keladi»². Koʻrinadiki, Sayfiy «bahr» soʻzining lugʻaviy va istilohiy maʼnolari orasidagi bogʻliqlikka eʼtibor qaratarkan, aruz tizimidagi hech bir atama tasodifiy boʻlmasdan, muayyan asosga ega ekanligini taʼkidlamoqchi boʻladi.

«Navoiy ham, Bobur ham oʻz risolalarida zihof va rukndan keyin turuvchi asosiy masala vazn emas, balki bahr ekanini alohida taʼkidlab oʻtganlar. Bu holat oʻzbek aruzshunosligiga arab va fors aruzshunosligidan anʼana sifatida oʻtgan»³. Darhaqiqat, temuriylar davrigacha yaratilgan barcha risolalar, jumladan bu davr aruzshunosligi uchun asos boʻlgan nazariy manbalarda ham asliy ruknlar va zihoflar masalasidan soʻng bahrlar tavsifiga oʻtilgan.

¹ Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳлили. Монография. – Тошкент: Taʼlim-media, 2019.

² Сайфий. Арузи Сайфий / Нашрга тайёрловчи Ҳ.Блошман. – Калькутта, 1872. – С.15.

³ Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.74.

Ramal (ar.»boʻyra toʻqish»; «tuyaning loʻkillashi») – turkiy va forsiy sheʼriyatda keng qoʻllanilgan aruz bahrlaridan biri. Undagi *vatadi majmuʼlar* (V–) va *sababi xaffifʼlar* bir-birining orasida joylashgani va bu xuddi boʻyrani arqon bilan toʻqishni eslatgani uchun shunday atalgan. Baʼzi aruzshunoslarning fikriga koʻra, bu soʻz tuyaning loʻkillab chopishini anglatuvchi *ramalon* kalimasidan olingan, chunki uni oʻqishdan kelib chiqadigan ohang tuyaning loʻkillashini eslatadi¹. Shuningdek, baʼzi rivoyatlarda aytilishicha, ramal qoʻshiq nomlaridan biri boʻlib, u mazkur vaznda yozilgani uchun shu nom bilan atalgan. *Ramal* bahri *foilotun* (– V – –) asliy ruknining baytdagi takroriga asoslanadi. Asosan *musamman* va *musaddas*, baʼzan *murabbaʼ* ruknli vaznlarni oʻz ichiga oladi. «Funun ul-balogʻa»da *Ramal* bahrining 8 ta musamman ruknli, 3 ta musaddas ruknli, bitta murabbaʼ ruknli va bitta mutatavval (jami 13 ta) vaznlari keltirilgan. Eʼtibor qaratilsa, *Ramal* bahri asarda hazaj bahri singari batafsil emasligini sezish mumkin. Buni olim quyidagicha izohlaydi: «Bilgilkim, biz yuqori aytib erdukkim, uch bahrni sharh etoli deb. Emdi bu bahr (*Ramal* bahrining – D.Yu.) ning muzohifotining tarkibin va tartibin hazaj bahrindin qiyos qilsoq, maʼlum boʻlurkim, har bahrgʻa ne miqdor shuʼba lozim boʻlur. Agar barchasin bitir boʻlsoq, bu kitob aning ehtimolin qila olmas...»². Shu tariqa muallif endi *Ramal* bahrining faqat «matbui mashhur va muʼtabar» vaznlariga toʻxtalib oʻtadi.

Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon»da ushbu bahrning yettita musamman ruknli vaznlarini, toʻrtta musaddas ruknli vaznlarini va ikkita murabbaʼ va bitta *mutatavval* ruknli (jami 14

¹ Шамс Қайс Розий. Ал-мўъжам / Муаллифи сарсухану тавзеҳот ва ҳозиркунандаи чоп У. Тоиров. – Душанбе: Адиб, 1991. – С.65; Сайфий. Арузи Сайфий / Нашрга тайёрловчи Ҳ.Блошман. – Калькутта, 1872. – С.47 (форс тилида); Муҳаммад Фиёсуддин. Меъроҷ ул-аруз.

² Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға (Бодлиан кутубхонасида сақланувчи Elliott №-127 рақамли қўлёзма). – Б.115а.

ta) vaznlarini sanab o‘tadi. Bobur o‘z risolasida *Ramal* bahriga mansub 59 ta vaznni keltirib, ulardan 38 tasi musamman, 13 tasi musaddas, 6 tasi murabba’ va 2 ta mutatavval ruknli ekanini ta’kidlaydi. Ushbu vaznlardan 31 tasi musta’mal, 28 tasi muxtara’, 12 tasi musta’mali matbu’ vaznlardir¹. Abdurahmon Jomiyning «Risolai aruz» asarida *Ramal* bahrining jami 14 vazni keltirilgan bo‘lib, shulardan 7 tasi musamman, 5 tasi musaddas va 2 tasi murabba’ vaznlardir. Mazkur bahr vaznlarini keltirish jihatidan Navoiy va Jomiy risolasida o‘zaro yaqinlik bor. Atoulloh Husayniy *Ramal* bahri aslida arablarda musaddas shaklda bo‘lishini, juzvlari olti marta foilotundan iborat ekanini, forsiy she’riyatda esa musamman shaklida qo‘llanilishini aytish bilan cheklanadi, unda bahrdan hosil bo‘ladigan vaznlar keltirilmagan. «Aruzi Sayfiy»da esa ushbu bahrning 19 vazni keltirilgan, ularning 12 tasi musamman, 7 tasi musaddas ruknli vaznlardir. *Ramal* bahrining risolalardagi o‘rni va vaznlar miqdorini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

Risola nomi	Bahrning keltirilish o‘rni	Bahr mansub doira	Musamman vaznlar	Musaddas vaznlar	Murabba’ vaznlar	Mutatav-val vaznlar	Jami
«Funun ul-balog‘a»	3		8	3	1	1	13
«Mezon ul-avzon»	3	Mu’talifa	7	4	2	1	14
«Aruzi Sayfiy»	3	Mujtaliba	12	7	-	-	19
«Risolai aruz»	3	Mu’talifa	7	5	2	-	14
«Aruz risolasi»	5	Mujtaliba	38	13	6	2	59
«Badoyi’ us-sanoyi’»	8	Mujtaliba	-	-	-	-	

¹Хасанов С. Бобурнинг «Аруз risolasi». – Тошкент: Фан, 1981. – Б.77.

Biz temuriylar davrida yaratilgan aruzga doir risolalarda bahrlar masalasini qiyosiy jihatdan o‘rganish asnosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Xalil ibn Ahmad yaratgan aruz tizimida 15 ta bahr (*Tavil, Madid, Basit, Vofir, Komil, Hazaj, Rajaz, Ramal, Sari’, Munsarih, Muzori’, Xafif, Muqtazab, Mujtass* va *Mutaqorib*) mavjud edi, keyinchalik uning izdoshi Abulhasan Axfash Balxiy ushbu bahrlar qatoriga yana bir bahr (*Mutadorik*)ni qo‘shib, arab bahrlari sonini 16 taga yetkazdi. Bu ko‘rsatkich arab tilida undan keyin yaratilgan manbalar: Mahmud Zamaxshariyning «Al-qistos», Abu Zikriyo Xatib Tabriziyning «Al-kafi fil aruz val qavofiy», Abu Jaysh al-Ansoriy Andalusiyning «Aruzi Andalusiyy» va boshqa asarlarda aynan takrorlandi.

2. Forsigo‘y aruzshunoslar Xalil ibn Ahmad ta’limotini mukammalashtirib, bahrlar sonini ko‘paytirdilar. Bahrom Saraxsiy, Buzurgmehr Qosimiylar aruzning yangi bahrlarini kashf etdilar. Bizgacha yetib kelgan aruzga doir ilk forsiy asar «Al-mo‘jam»da mavjud 16 ta bahrga yana uchta bahr (*G‘arib, Qarib, Mushokil*) qo‘shilib, 19 ta bahr tahlilga tortilgani holda, risolada aruzshunoslar kashf qilgan 21 mustahdas (yangi) bahrlar haqida ham aytiladi.

3. Nasiriddin Tusiyning «Me‘yor ul-ash‘or» asarida 18 bahr keltirilgan bo‘lib, unda avvalgi risolada tilga olinmagan *Maqlubi tavil* bahrining berilishi hamda *Mushokil* va *G‘arib* bahrlarining tushib qoldirilishi muallifning ushbu masalaga o‘z salafidan ayri munosabatda bo‘lganini ko‘rsatadi.

4. Temuriylar davri aruzshunosligida bahrlar miqdorini keltirishda har xilliklar bor. Shayx Ahmad Taroziy o‘z risolasida bahrlar sonini 40 ta deb ko‘rsatsa, Abdurahmon Jomiy, Atoulloh Husayniy, Alisher Navoiy va Sayfiy Buxoriylar ular-

ning miqdorini umumiy ma'noda 19 ta deb belgilaydilar. Ular orasida Abdurahmon Jomiy masalaga bir oz o'zgacharoq yondashib, «Risolayi aruz»da 14 bahrni misollar bilan izohlaydi, arab aruziga xos bo'lgan *Tavil*, *Komil*, *Basit*, *Madid*, *Vofir* bahrlariga keng to'xtalib o'tirmaydi. Boburning «Aruz risolasi»da esa ushbu bahrlarga qo'shimcha ravishda yana ikki bahr (*Ariz* va *Amiq*) tadqiq qilingan. Ushbu risolalardan faqat «Aruzi Sayfiy»da bahrlarning lug'aviy ma'nolariga ham to'xtalib o'tiladiki, bu bevosita risolaning qo'llanma xarakteriga ega ekani bilan bog'liq.

5. Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a» asarida nomi keltirilgan 40 ta bahrdan 20 tasi aruzshunoslikka doir boshqa forsiy va arabiy manbalarda uchramaydi. Bu holat ushbu bahrlarning mumtoz aruzshunoslik uchun ham yangi ekanligini va ularning aksariyatini muallifning o'zi kashf etganligini ko'rsatadi.

6. Shayx Ahmad Taroziy bahrlarni ikki katta guruh: mutafiq ul-arkon hamda muxtalif ul-arkonga ajratishda vatan-doshimiz Mahmud Zamaxshariyning «Al-qistos» asaridagi tasnifga suyanadi. Bu tasnif keyinchalik Bobur risolasida ham istifoda etilgan.

7. «Funun ul-balog'a»da muxtalif ul-arkonga kiruvchi bahrni hosil qilishda juftlashtirish (uxti) tamoyiliga amal qilish lozimligi ta'kidlanadi, unga ko'ra yangi bahr hosil qilinganda ushbu bahr ruknlari o'zidan avvalgi bahr ruknlarining aksini takrorlashi lozim, agar bu shart ado etilmasa, u bahr sifatida tan olinmaydi. Bu tamoyil temuriylar davridagi boshqa risolalarda kuzatilmaydi.

8. Aruzshunoslik tarixida *maf'uvlotu* asliy rukni bahr yasa-maydi degan qat'iy qarash mavjud edi. Shayx Ahmad Taroziy ushbu asliy rukndan *Saqil* bahri hosil bo'lishini asoslab, o'z

risolasida ushbu bahrning ikki vaznini keltirdi va *Saqil* bahrini aruz nazariyasiga olib kirdi.

9. Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» asarida 19 bahr, 160 ta vazn keltirilgan. Navoiy o'z risolasida tayanch manba sifatida Abdurahmon Jomiyning «Risolayi aruz» asaridan foydalangani uchun aruzshunoslikda mavjud an'anaviy 19 bahrgagina to'xtalib o'tadi.

10. Zahiriddin Muhammad Boburning «Aruz risolasi»da an'anaviy 19 bahrga qo'shimcha tarzda yana ikki bahr (*Ariz* va *Amiq*), jami 21 bahr keltirilgan. Shunga binoan uning asarida 9 doira, 537 vazn tahlil qilingan.

11. Shayx Ahmad Taroziy asarida keltirilgan *Javil* bahri Zahiriddin Muhammad Bobur keltirgan *Ariz* bahri bilan, *Jadid* bahri *Amiq* bahri bilan tarkiban bir xil bo'lib, ular manbalarda turli nomlar bilan atalgan.

12. Aruz tizimi urg'u bilan bog'liq she'riy o'lchov bo'lib, unda so'z urg'usi emas, balki rukn urg'usi yetakchilik qiladi va bunday urg'u ritm yaratishga xizmat qilganligi uchun ritmik urg'u deb ataladi. Mumtoz aruzshunoslikda garchi urg'u alohida hodisa sifatida ta'kidlanmagan bo'lsa ham, mutalavvun hodisasining temuriylar davridagi risolalarda qayd etilishi ritmik urg'uning aruzshunoslik tarixida muayyan o'ringa ega ekanini va mumtoz aruzshunoslarimizning aruzni urg'u bilan bog'liq holda talqin qilganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ijodkorlarning aruz ilmiga doir risolarini bahrlar va vaznlar misolida qiyosiy o'rganish natijalari turkiy aruzshunoslik temuriylar davrida o'zining tadrijiy takomiliga yetganligini ko'rsatadi.

Biografik romanda g'oya va kompozitsiyaning qiyosiy talqini¹

Qiyosiy adabiyotshunoslik sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda turli adabiy hodisalar muqoyasa qilingan. Bir yoki bir necha adabiy hodisani tipologik qiyos markaziga qo'yish orqali badiiy asarlarning umumiy va xususiy jihatlari topiladi. Keng qamrovli tahlil amalga oshiriladi. Bugungi kunda qiyosiy adabiyotshunoslik sohasiga o'z hissasini qo'shayotgan rus tanqidchisi Yu.I.Mineralov adabiy qiyosning qo'llanilish miqyosi nihoyatda kengligini, bir milliy adabiyotni xuddi tilshunoslikda turli tillar muqoyasa qilinadigandek boshqa adabiyot bilan, u yoki bu yozuvchilarning ijodini, yoki bo'lmasa, ularning asarlarini syujet-kompozitsiyasi, uslubi, g'oyaviy mazmuni jihatidan va hokazo ko'rinishlarda o'zaro muqoyasa qilish mumkinligini, adabiyotni san'atning bir turi sifatida musiqa, rassomchilik va boshqa lisoniy bo'lmagan san'at turlari bilan ham qiyoslash kerakligini ta'kidlaydi².

O'zbek adabiyotshunosligida keng miqyosli tipologik tadqiqotga misol sifatida A.Qosimovning «Tipologik o'xshashliklar va o'zaro ta'sirning nazariy muammolari» doktorlik dissertatsiyasi³ni qayd etish mumkin. Ishning asosiy maqsadi A.de Sent-Ekzyuperi va A.Kamyu ijodidagi an'ana, novatorlik masalasi, ijodkorlarning o'zbek tiliga qilingan tarjima variantlarini tahlil qilish, A.Kamyuning zamonaviy o'zbek nasriga ta'siri muammolarini o'rganishdan iborat bo'lib, vazifalar qatoriga g'oya talqini, an'ana, novatorlik, janr va

¹ Хажиева Ф.М. Биографик роман жанри хусусиятлари (И.Стоун, М.Кориев ва Н.Норматов асарлари асосида). – Тошкент, 2018.

² Минералов Ю.И. Сравнительное литературоведение. – М.: Высшая школа, 2010. – С.3.

³ Қосимов А. Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсирнинг назарий муаммолари (А.де Сент-Экзюпер ва А.Камю ижоди мисолида): Фил. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б.45.

qahramonlar o'rtasidagi tipologik o'xshashliklarni aniqlash, A.Kamyu mahorati qirralarini belgilash va h.k.dan iborat. Demak, tipologik qiyos nafaqat bir adabiy hodisani o'rganishni, balki bir necha tipologik o'xshashliklarni tahlil qilishni ham taqozo etishi mumkin. Shunday ekan, ishda biografik roman xususiyatlarini ko'rsatish uchun janr namunalari imkon qadar har tomonlama tahlil qilinishi talab etiladi. Roman janriga xos bo'lgan jihatlardan biri roman poetikasi masalasi hisoblanadi.

Biografik romanda syujet va kompozitsiya, mavzu va g'oya, maktub, dialog, portret, peyzaj, tush, gallyutsinatsiya, badiiy detal, badiiy tafsilot kabi adabiy tushunchalar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Syujet prototip hayotini aks ettiradi. Asardagi mavzu va g'oyalar prototip faoliyati, hayotiy falsafasiga bog'lanadi.

O'zbek adiblari tomonidan yaratilgan «Ibn Sino», «Ro'zi Choriyevning so'nggi vasiyati» hamda amerikalik yozuvchi Irving Stoun qalamiga mansub «Iztiroblar va quvonchlar», «Hayot ishtiyoqi» romanlarining har birida mavzu va g'oya, syujet va kompozitsiya o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

«Ibn Sino» hamda «Iztiroblar va quvonchlar» romanlariga diqqat qaratadigan bo'lsak, ularda turli davr voqealari badiiy ifoda topgan bo'lsa-da, syujetining shakllantirilishida **mushtaraklik** bor. Ikkala asar ham realistik uslubda yozilgani uchun voqealar dinamik tarzda, sabab-oqibat zanjirida rivojlanib boradi. Romanlar syujeti bevosita biografiyasi bayon etilayotgan shaxslar hayot yo'llarini tasvirlovchi va ularning vafotlari bilan tugaydigan chiziqdan iborat. Har ikkala asar syujeti an'anaviy biografiyadan farq qiladi. Romanlar qahramonlarning dunyoga kelish voqeasi bilan boshlanmaydi. Biri – o'n uch yoshli o'spirinning hayotda o'z yo'lini belgilay-

digan lahzasidan, ya'ni Mikelanjelo san'at olamiga kirib kelishidan; ikkinchisi – o'n sakkiz yoshli yigit Ibn Sinoning hali yosh bo'lishiga qaramasdan elga tanilgan, bilim olishning eng yuqori pallasiga ko'tarilgan davridan boshlanadi. Qahramonlarning bolalik yillari, ota-onalari to'g'risida ma'lumot retrospeksiya beriladi. Bu bilan biografik roman mualliflari kitobxonni bayon bilan zeriktirmay, syujet tuguni sifatida o'z qahramonlari hayotining ziddiyatlar, konfliktlar, bo'ronli ijodiy hayot, boshqacha aytganda, iztiroblar va quvonchlar boshlanadigan dramatik momentini belgilaydilar. O'quvchini voqealar girdobiga to'g'ridan-to'g'ri jalb qilib, qiziqtirib qo'yadilar. «Iztiroblar va quvonchlar»ning dastlabki sahifalarida freska chizish bo'yicha birinchi ustoz Girlandayo bilan dastlabki uchrashuvga o'tlanishi arafasida hayajondan kechasi uxlo olmay chiqqan Mikelanjeloning ichki hissiyotlari tasvirlangan. Undan so'ng Mikelanjelo tug'ilgan Florensiyaning ko'hna ko'chalari, arka va gumbazli binolari, marmardan o'ymakorlik yo'li bilan yaratilgan fasadlar, haykallar, bozorlarni ekspozitsiya sifatida badiiy tasvirlaydi.

«Ibn Sino»da muallif asarni Buxoroyi sharifning gumbazli binolari, tor ko'chalari, bozor-u do'konlari tasviridan boshlaydi, so'ng alloma Ibn Sinoning kitob do'konidan Forobiyning «Ilohiyot» risolasini sotib olib, kechasi bilan uxlamasdan «zakiy muallim»i bilan gaplashib chiqqani voqeasini bayon etadi. Asarning dastlabki qismlarida ora-orada har ikki allomaning ota-onalari, oila a'zolari haqida ma'lumot berib boriladi. Bu ma'lumotlar qatoriga Mikelanjeloning ukalari, tuqqan onasi va tug'ilish voqeasi, o'gay onasi, uning pazandaligi, ital-yancha ovqatlar, odatlar; Ibn Sinoning ota-onasi va ularning to'ng'ichlariga mehr-ixloslari, allomaning yagona ukasi, Afshonadagi dala hovlilari, bolalik xotiralari kiradi.

Ikkala asar **syujeti orasida** ham **farq** mavjud. Jumladan, Irving Stoun asarida syujet Mikelanjelo hayoti va faoliyati bilan bog'liq bir chiziqdan (bu ko'proq biografik janrga xos) iborat bo'lsa, «Ibn Sino»da u bir necha tarmoqdan tashkil topgan. Shu o'rinda aytish joizki, Maqsud Qoriyev otashparastlar diniga mansub Sanam bilan bog'liq syujet chizig'ini yaratgan. Unda Ibn Sinoning ushalmagan muhabbati, o'sha zamondagi oddiy xalq vakillarining hayotini ko'rsatish va, asosiysi, xalq orasida Ibn Sino haqida yoyilgan afsonalardan foydalanish maqsadi nazarda tutilgan. Ibn Sino tarafidan o'limga qarshi yaratilgan dori, uning shogird qo'lidan bexosdan tushib ketishi oqibatida insonni o'limdan asrab qolishdan iborat olamshumul kashfiyotning amalga oshmay, ora yo'lda qolgani, shundan so'ng allomaning vafot etgani to'g'risidagi rivoyat va shu kabilar Sanam bilan bog'liq syujet chizig'idan joy topgan. Asar boshida tutash holda turgan syujetning bu ikki chizig'i voqealar rivoji davomida alohida-alohida ko'rinishda shakllantirilgan.

Har ikki asarni inson buyukligi va u qoldirgan merosning abadiyligi haqidagi **mavzu birlashtirib turadi**. «Iztiroblar va quvonchlar»da ham, «Ibn Sino»da ham ikki buyuk shaxsning hayoti, faoliyati va qoldirgan o'lmas asarlari badiiy tusda hikoya qilinadi. O'quvchi syujetning ana shu voqealari silsilasida tafakkuri, maqsad va intilishlari, xayollari bilan o'z zamonasidan ancha ilgari ketgan, o'z tafakkuri mevalari bilan hamma zamonlarga xizmat qila oladigan ulug' mutafakkirga ro'baro' keladi.

«Iztiroblar va quvonchlar» hamda «Ibn Sino» romanlarining bosh qahramonlari mutafakkir shaxslar bo'lishiga qaramasdan, turli soha vakillari. Shunday bo'lsa-da, bu asarlarda tipologik o'xshashliklar bo'lgani singari mavzu va g'oya, syu-

jetni shakllantirish va kompozitsiyani tuzish jihatdan musharakat jihatlar bor; shuningdek, har bir asar o'ziga xos, so'z san'atining betakror namunalaridir.

Irving Stounning «Hayot ishtiyoqi» va Nodir Normatovning «Ro'zi Choriyevning so'nggi vasiyati» biografik romanlari mavzu va g'oyasi, syujet va kompozitsiyasida ham **mushtarak** jihatlarni kuzatish mumkin.

«Hayot ishtiyoqi»da bosh qahramon sifatida golland rassomi Vinsent Van Gogning badiiy obrazi yaratilgan bo'lib, uning hayot yo'li va ijodiy yaratmalari tarixi syujetning asosini tashkil qiladi.

Nodir Normatov asarida, yuqorida aytilganidek, o'zbek rassomi Ro'zi Choriyev hayoti va ijodi yoritilgan. Taniqli adib Erkin A'zamov asar yaratilishi to'g'risida shunday deydi: «*Bu kitobni yozish N.Normatovning burchi edi. Ro'zi Choriyev xuddi shunday ajoyib asarga qahramon bo'lishga arziydigan inson edi. Nodir bu rassomni yaqindan bilardi. Ushbu asari yozuvchi do'stimning ulug' rassomga chin ehtiromi ramzi bo'libdi*».¹

Rassomning bolalik chog'laridan tortib, vafotiga qadar – mashaqqatli, ammo sermazmun va sermahsul hayotini aks ettirgan bu asarning yaratilish sababini muallif romanning boshidayoq qayd etadi. Rassomning «*Birgalashib bir kitob yozsag-u, shu kitob ularning (ixlosmandlarning) savollariga (Qanday qilib rassom bo'ldingiz?) javob bo'lsa...*»², degan taklifi biografik romanning yaratilishiga turtki bo'lgan.

Har ikki asarning kompozitsiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, ular bir-biridan **farq** qiladi. Biri («Hayot ishtiyoqi»)ning kompozitsion qurilishi an'anaviy, spiralsimon, ya'ni voqealar xronologik tarzda rivojlanuvchi yagona syujet chizig'iga ega.

¹ Улуфов А. Улуғ рессом ҳақида роман // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2009. №27.

² Норматов Н. Рузи Чориёвнинг сўнги васияти. – Тошкент, 2008. – Б.4.

Asar Van Gog bilan bog'liq bir syujet chizig'idan iborat bo'lib, unda buyuk impressionist rassom Van Gog hayoti, ijodiy kamoloti, ruhiy kechinmalari, ijodga bo'lgan betinim ishtiyoqi tasvirlanadi. An'anaviy biografiyadan farqli ravishda I.Stoun yaratgan «Hayot ishtiyoqi»da syujet chizig'i Van Gog tug'ilishi tarixi bilan boshlanmaydi. Van Gog romanga o'z hayot yo'lini topishi arafasida turgan, kartinalar galereyasida sotuvchi bo'lib ishlab, kun kechirayotgan yigirma bir yoshli yigit sifatida kirib keladi. Ursula ismli qizni sevib qolgan Van Gog sarguzashtlari – syujetning asosiy voqealari uning muhabbati rad etilgandan so'ng boshlanadi. Ruhan singan yigit nima qilarni bilmay, ruhoniylkni qabul qilib, o'z hayotini bechoralarga yordam berishga baxshida qilmoqchi bo'ladi, ammo shaxtyorlar orasida yurganida bekorchilikdan ko'mir bilan ularning suratlarini chiza boshlaydi. Chizilgan suratlarda shaxtyorlar tashqi ko'rinishidan ham ko'ra, ularning xarakteri, kasbiy qiyofasi namoyon bo'ladi. Buni yigitning o'zi ham his etadi. Shundan so'ng Vinsentda rassom bo'lish istagi paydo bo'ladi. Muqaddima (prolog) va sakkiz qismdan iborat asosiy syujet Van Gog yashab, ijod qilgan shaharlarning nomlari bilan (London, Borinaj, Etten, Gaaga, Nyuenen, Parij, Arl, Sen-Remi, Over kabi) atalgan. Har bir joy bilan bog'liq voqealarda, tarixiy shaxslar jonli ishtirok etadi. Van Gog hayoti va ijodi syujetni rivojlantiradi. Shu bilan bir qatorda, muallif asarda Yevropaning turli qishloq va shaharlaridagi san'at ahli va san'at dargohlari, rassomchilik maktablari to'g'risida ham so'z yuritadi. Van Gog chizayotgan rasmlar vositasida o'quvchini kambag'al dehqonlar, oddiy xalq vakillarining hayoti, ularning uyi, ishi, oilasi kabilar bilan tanishtiradi. Shu tariqa rassom yashagan ijtimoiy-tarixiy davr manzarasi hosil qilinadi. Bu esa badiiy roman syujetining asosiy xususiyatlaridan biridir. Ana shu

tarixiy-ijtimoiy sharoit fonida rassom yaratgan kartinalarning tarixi bilan tanishib boriladi.

O'zbek yozuvchisi Nodir Normatov yaratgan «Ro'zi Choriyevning so'nggi vasiyati»da rassomning badiiy biografiyasi noan'anaviy usulda yaratilgan. Roman uch qismga ajratilgan va qismlar bir-biridan bayon texnikasi bilan tubdan farqlanadi. Adibning syujet va xarakter yaratish texnikasini o'zbek adibi I.G'afurov quyidagicha ta'riflaydi: «U tabiiy hodisalarni tabiiy maqomini topib chizadi. Shu xolos. «Chizish» so'zi Nodir Normatovning badiiy usuliga g'oyatda mos, bu usulni rosmana xarakterlaydi. U batafsil uzoq tasvirdan ko'ra chizishni yaxshi ko'radi, zero, chizishda ham chizish bor – Nodir xarakter qirralarini kesma punktir bilan chizadi. Voqealardan voqealar shunday kesma punktirlarda tug'ilib bir-biriga g'uluv bilan ulanib boradi. Bunda tabiiyki, bayonda parokandalik xavfi ham tug'iladi, voqeaning boshi, davomi va oxiriga bog'lanmay qolishi ehtimoldan xoli emas. Ammo yozuvchi qandaydir o'ziga ma'lum hikoya qilish zahiralarni bizga bilintirmaygina qo'llab, syujet va kompozitsiyada yaxlitlik, butunlikka erishadi. Kesma punktir vositasida hikoya tarzida erishilgan butunlik – Nodirning yozuvchilik mahorati va badiiy uslubining o'ziga xos, uni boshqalardan ajralib turadigan ko'zga ko'rinarli qirrasidir»¹.

Qiyoslanayotgan mazkur ikki asar arxitektonikasida tubdan farq bo'lsa-da, har ikki asarda ham xronikal syujetdan foydalanilgan; bundan tashqari, ularda yoritilgan mavzu va g'oya bir-biriga mushtarak.

Har ikki asarda bosh qahramon rassom bo'lganligidan bu asarlarda san'at va uning sirli olami mavzui keng va atroflicha

¹ Фафуров И. Нодирнинг Ойтоши ёки Сурхон руҳи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2010. №52 (4087).

yoritib berilgan. Ularda buyuk musavvirlar, san'at maktablari, rassomchilikning o'ziga xos qonun-qoidalari to'g'risida bayon etilgan. I.Stoun XX asr boshlarida G'arbiy Yevropada yashab ijod etgan ko'plab rassomlar haqida ma'lumot berib, jumladan, impressionizmning mohiyati va uning boshqa oqimlardan farqini – uning mohiyati rassomchilikning umumiy qonunlariga bo'ysunmasdan, voqelikni taassurotlar prizmasi orqali chizish, rassom nigohida qay tarzda gavdalangan bo'lsa, shundayligicha polotnoga tushirishda ekanini Van Gog ijodi misolida, jonli voqealarda ko'rsatgan.

«Hayot ishtiyoqi» va «Ro'zi Choriyevning so'nggi vasiyati» romanlarida yana bir **mushtarak jihat** bor – bu ularda ifodalangan insonparvarlik va san'atga fidoyi bo'lish g'oyasidir. Bu mushtaraklik adabiy ta'sir natijasida tug'ilmay, har ikki bosh qahramonning hayoti va faoliyati mazmunidan, roman mualliflarining badiiy maqsadidan kelib chiqadi.

I.Stoun yaratgan Van Gog – telbalarcha ijodga berilgan shaxs. Kitobxon uning o'ta fidoiyligidan hayratga tushadi, chunki u san'atni o'z shaxsiy hayotidan ustun qo'yadi. Umri davomida yagona kartinasini sota bilgan rassom har qanday muvaffaqiyatsizlikka qaramay, o'z ijodiy yo'nalishiga sodiq qoladi. Ommaga ma'qul tushadigan, ammo hayotiy haqiqatdan yiroq kartinalarni chizishdan bosh tortadi. O'zining ishlariga Van Gog quyidagicha ta'rif beradi: «*Mine are better... Mine are truer, deeper. I'll take my life of reality and hardship. That is not the road on which one perishes*».¹ («Mening kartinalarim yaxshiroq... Meniki haqqoniyroq va falsafiyroq. Haqiqat va qiyinchilik yo'lini tanlayman. Birov halok bo'ladigan yo'l emas bu»).

¹ Stone Irving. Lust for Life. – New York: Pocket books, 1945. – P.181 – 182.

Van Gog impressionizm oqimiga mansub rassom bo'lgan. Yangi shakllangan impressionizm va uning vakillarini Yevropa, boshqa har qanday yangilik va hamma joyda bo'lgani singari darhol hazm qila olmaydi, chunki ular «o'z asarlarida xunuklik va axloqsizlikni tasvirlashadi» va shu orqali «achchiq haqiqat tomon, undan esa chin go'zallikni» ko'rsatishga intilishadi. Dastlabki qarashda paradoksal bu ibora aslida roman mohiyatini, mag'zini, g'oyaviy mazmunini ifodalaydi.

Asarda kuchli pafos va bo'rttirish usuli yetakchilik qiladi. Van Gog xarakteriga xos xususiyatlar shunchaki sanab o'tilmay, voqealar vositasida ochib boriladi. Asarda doim pulga muhtoj, och va telbalarcha yuradigan Van Gog umri past tabaqa vakillari: konchilar, fohishalar, kambag'al dehqonlar orasida kechadi. Ular bilan birga achchiq hayot kechiradi. Qo'lidan kelganча mehr-oqibatli bo'lib, ulardan yordamini ayamaydi. Konchilarning og'ir ahvolini ko'rib achinganidan oxirgi kiyimigacha bo'lib beradi. «*The suit of clothes he left with the old man who had fragile written across his back. The underwear and shirts he left for the children, to be cut and made into little garments. The socks were distributed among the consumptives who had to descend Marcasse. The warm coat he gave to a pregnant woman whose husband had been killed a few days before by a cave-in, and who had to take his place in the mine to support her two babies*»¹. («U egni-boshini ortiga mo'rt yozuv bitilgan qariyaga qoldirdi. Ichki kiyim va ko'ylagini yosh bolalarga ko'ylakcha qilib bichish, tikish uchun hadya qildi. Paypoqlarini Markass shaxtasiga tushib, silga chalinganlarga bo'lib berdi. Issiq paltosini bir necha kun oldin shaxtada ro'y bergan baxtsiz hodisada halok bo'lgan erkakning homilador bevasiga berdi;

¹ Stone Irving. Lust for Life. – New York: Pocket books, 1945. – P.69.

Chunki ayol ikki go'dagini boqish uchun erining o'rnini egalashga majbur bo'lgandi»).

Ko'rinib turibdiki, Vinsent tabiati uning xatti-harakatlari-da ko'rsatilgan. Muallif bunday batafsil tasvir orqali Vinsentda fidoyilik va yuksak shafqat bilan xarakterlanadigan insonparvarlik hissi hamma narsadan ustun turishini ko'rsatadi. Keyingi boblardagi voqealar ham muallifning bosh qahramonga xos aynan ana shu xususiyatga ayriча e'tibor qaratganini ko'rsatadi.

Asarda Van Gog timsolida insonparvarlik va fidoiylik ulug'lanadi. Bosh g'oya ham mana shu.

N.Normatovning «Ro'zi Choriyevning so'nggi vasiyati» asarida o'zbek rassomining insonparvarligi va fidoyiligi milliy mentalitet doirasida tasvirlangan. Adib asarda o'z qahramoni xarakterini ko'proq muallif xarakteristikasi va bayon vositasida yoritishga harakat qilgan.

Muallif asar davomida qahramonining odamiyligi, o'zbek xalqi ayniqsa, o'z yurti Surxon zamini odamlariga cheksiz muhabbatini voqealar orqali ham ko'rsatib boradi. Binobarin, Ro'zi Choriyev o'z kartinalarida aynan oddiy xalq vakillarini aks ettiradi. Negaki san'at mazmunini butun olam va uning markazida turgan insonga bo'lgan muhabbat tashkil qiladi. Ana shunday muhabbatsiz olamni ham, odamni ham real aks ettirish mumkin emas. Roman muallifi ana shu haqiqatni teran anglagan holda, o'z qahramonining insonga bo'lgan muhabbatini birinchi planga olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, I.Stounning «Hayot ishtiyoqi» va N.Normatovning «Ro'zi Choriyevning so'nggi vasiyati» romanlari bosh qahramon tanlash tamoyili, qalamga olingan mavzu va badiiy g'oya nuqtayi nazaridan mushtarak. Ammo tarixiy-ijtimoiy sharoit, milliy mentalitet, tarixiy shaxs

bo'lgan bosh qahramon ruhiy olami, hayot tarzi, orzu-intilishlarining turlichaligidan kelib chiqadigan o'ziga xoslikdan tashqari, har bir yozuvchining individual tasvir usuli, voqealarni tanlash tamoyili mavjud. Nodir Normatov romanida, Irving Stoun asaridagidan farqli o'laroq, ayrim o'rinlarda bayon, muallif munosabati, publitsistik uslub yetakchilik qiladi. «Ro'zi Choriyevning so'nggi vasiyati»da «Hayot ishtiyoqi»dagi singari syujet izchil, voqealar ketma-ketligida rivojlanib bormaydi. Yozuvchi asarning uch qismida uch xil kompozitsion qurilmadan foydalanadi. Bu qismlarda voqealar davom etmaydi, balki bu qismlar bir-birini to'ldirishga, chuqurlashtirishga, ma'lum hodisaga turli rakursdan qarashga, o'quvchining turlicha idrok etishiga yo'naltirilgandir. Nodir Normatov romanida an'anaviy va modern romanchilik uslublarining sintezini ko'ramiz. Umuman, mazkur roman o'zbek adabiyotida o'ziga xos hodisadir.

Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm¹

XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'z faoliyati va asarlari bilan butun afkor ommanining diqqatini tortgan amerikalik adib Jek London ijodi va hayotiy biografiasida adib bilan zamon nuqtayi nazaridan deyarli ketma-ket yashagan, ijtimoiy kelib chiqishi va hayot yo'li ma'lum ma'noda yaqin bo'lgan Abdulla Qahhor e'tiborini ham qozongan. Abdulla Qahhor, o'zi e'tirof etganidek, Jek London asarlari bilan tanish bo'lgan. Adabiyotshunoslarning kuzatishiga ko'ra, u Jek London adabiy maktabidan bevosita ta'sirlangan. Abdulla Qahhor o'zining

¹ Қобилова Н.С. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадий психологизм. – Тошкент, 2019.

bir qator hikoyalarini, «Sarob» romanini yaratishda amerikalik adibning «Martin Iden» romani syujeti skeletidan, shuningdek, yozuvchining biografiasidan foydalangan.

Jek London hayotning butun mashaqqatlari, ziddiyatlari, miqyoslari bilan to'qnash keladi va keyinchalik bularning barini o'z asarlarida badiiy qayta gavdalantiradi. Mana shu hayotiyli sabab adib romanlari, qator povest va hikoyalari, pyesalari butun jahon kitobxonlarining sevimli mulkiga aylangan. Jek London hikoyalari hamisha qahramonning rang-barang ruhiy holati tasviriga duch kelamiz. Jek London ko'p hollarda qahramonning ichidan turib uning ichki olamini kashf qiladi.

Abdulla Qahhor hikoyalari qisqaligi, asosan, qahramon ruhiy holatining uning qiyofasidagi aksi tasviri, qahramon nutqi va detallarga asoslangani bilan ajralib turadi. Abdulla Qahhor Jek London singari bir yoki bir necha voqeani batafsil, barcha ikir-chikirlari bilan qalamga olmaydi. Adibning hikoyalari voqelikning bir momentini qayd etgan fotosuratlariga o'xshaydi. Ularda har bir so'z, detal yoki tafsilot Sharq mumtoz lirikasidagi singari kuchli ramziy yukka ega va mana shular orqali qahramonning ichki olami kashf etiladi.

Har ikkala adib ijodida badiiy psixologizm kompozitsion asos darajasiga ko'tarilgan hikoya bor. Bu – Jek Londonning «Buyuk sehrgar» hamda Abdulla Qahhorning «Ko'r ko'zning ochilishi» hikoyalaridir. Har ikki hikoyada ham qahramonlar inson psixologiyasidan foydalanib o'z maqsadlariga erishadilar. Bu ikki hikoya psixologik motivning kompozitsion asos darajasiga ko'tarilishi, syujeti bilan bir-biriga yaqin bo'lsa, «Hayotga muhabbat» hamda «Ming bir jon» hikoyalari g'oyaviy jihatdan mushtarak. Har ikkala hikoyada ham hayot va o'lim oraliqida turib, tirik qolish uchun kurash olib borgan qahramonlar tasvirlanadi.

«Martin Iden» va «Sarob» romanlari o'rtasida bir qator mushtaraklik ko'zga tashlanadi. Bu, eng avvalo, qahramonlarni tanlash va voqealar rivojida ko'rinadi. Har ikkala romaning bosh qahramoni – ijodkor shaxslar. Ularning har ikkalasi ham kambag'al oiladan chiqqan.

Asar voqealari boshlanganda Martin ham, Saidiy ham ota-onalaridan ajralib, yetim bo'lib qolgan edilar; har ikkala qahramonning bu olamdagi eng yaqin kishilari – opalari edi. Saidiyning bir, Martinning ikki opasi bor edi. Tabiiy qon-qardoshlik bog'lab turgan bu opalar o'z jigariga ona singari har qancha mehribon bo'lmasin, ular Martin va Saidiyning yuksak orzu-niyatlarini anglay olmaydilar. Ruf otasi, onasi, akalari-dan iborat to'laqonli badavlat oilaning erka farzandi bo'lgani singari, Munisxon ham onasi va akasining mehr-muhabbati panohida to'q, betashvish hayot kechiradi.

Har ikkala romanda ham pochcha obrazi bor. Martinning pochchasi Bernard Xigginbotam va Saidiyning pochchasi Muhammadrajab savdogarlik bilan shug'ullanadi. Ularning ikkalasi ham o'z rafiqalarini ayovsiz xo'rlaydi, bu mushfiq ayollarni inson o'rnida ko'rmaydi, uka tufayli oilada g'idi-bidi bo'lib turadi. Gertrudaning taqdiri Martinning yurak-bag'rini ezgani singari, Saidiy ham opasiga qarab qattiq iztirob chekadi. Martin ham, Saidiy ham ma'lum muddatga qo'li kaltalik sabab pochchalarinikida turishga majbur bo'ladilar. Har ikkisining orasi pochchasi bilan boshqalar tushunmaydigan orzu-niyatlar tufayli – Martinda adib bo'lish orzusi, Saidiyda esa o'qishga kirish niyati tufayli buziladi.

Har ikkala asar qahramonlarining hayotidagi juda muhim o'zgarish – ular ilohiy muhabbat bilan sevgan qizni uchratishlari voqeasi bilan boshlanadi. Ruf ham, Munisxon ham yuqori

tabaqa vakili bo'lib, Martin uchun ham, Saidiy uchun ham qo'l yetmas yuksaklikda yashaydilar.

Voqealar har ikki romanda bir-biriga mushtarak ravishda rivojlanib boradi. Yuqori tabaqaga mansub bo'lgan boy-badavlat qizga erishish maqsadi Martin va Saidiyning birdek iztirobga solib, ulardagi ichki kuchni uyg'otib yuboradi. Har ikkala yigit o'z sevgilisiga munosib bo'lish, unga erishish uchun jamiki imkoniyatni ishga soladilar. Martin va Ruf o'rtasidagi muhabbatni Rufning yaqinlari qabul qila olmaganlari singari, Munisxonning akasi Muxtorxon ham ikki yosh o'rtasidagi munosabatga yuzaki qaraydi, bilib turib o'zini bilmaslikka soladi.

Voqealarning keyingi rivoji roman mualliflarining badiiy maqsadiga ko'ra turlicha rivojlanadi. Martin kapitalizm sharoitida mumkin bo'lgani singari kutilmagan muvaffaqiyatga, katta boylikka erishadi. Saidiy esa mustabid tuzumning minglab qurbonlaridan biriga aylanadi. Yechim esa har ikki asarda o'xshash: tabiat tomonidan katta potensial kuch ato etilgan, yuksak orzu-maqsadlar bilan yashagan ikki navqiron yigit xudkushlikka yuz tutadilar.

«Martin Iden» va «Sarob»da motivlararo mushtaraklik ham ko'zga tashlanadi. Binobarin, voqealar Martin va Saidiyning o'zlari uchun yangi bo'lgan muhitga – birining o'zi yot bo'lgan tabaqa vakillari xonadoniga, ikkinchisining universitetga qadam qo'yishi bilan boshlanadi. Rufni ham, Munisxonni ham birinchi ko'rishdayoq yigitda barq urib turgan sog'lom navqironlik o'ziga jalb qiladi; umuman, har ikkala qiz ijtimoiy tafovut haqida o'ylab ko'rishga, bu yigitlarning yuksak ma'naviy dunyosi bilan tanishishga ulgurmay, tabiiy maylning asiri bo'lib qoladilar. Har ikkala romanda birinchi uchrashuvdayoq maftun bo'lish motivi bor. Bu romanlarda qahramonlar xarakterini ishlashda ham mushtaraklik ko'zga tashlanadi. Har

ikki yigit ma'shuqa nazariga tushish uchun favqulodda vaziyat tug'ilishini orzu qiladi. Martin va Ruf, Saidiy va Munisxonning muloqot qilib turishlariga vosita bo'ladigan badiiy detal – kitoblar, mutolaa edi. Kitob vosita bo'lgani har ikki asarda bir-biriga o'xshash epizod orqali muayyanlashtiriladi. Har ikki romandagi velosiped detali, velosipedda shahardan tashqariga sayrga chiqish epizodi, Martin va Saidiyning matbuotda chiqadigan asarlarini ustunlar bilan o'lchashi, yozuvchilikdan maqsad – boylik orttirish orqali ma'shuqa vasliga erishish ekani, jamiki orzu-a'mollaridan judo bo'lgan oshiqning bir payt qo'l yetmas yuksaklikda deb tasavvur qilingan, pirovardida esa bosh egib kelgan mahjubani rad etishlari kabi motivlar ham mushtarak.

Ammo bu mushtarakliklar Abdulla Qahhor romanining original asar ekanini rad etishga asos bo'lolmaydi. Chunki o'xshash syujetlar boshqa yozuvchilar ijodida ham uchrab turadi¹.

Har ikki romanda davr psixologiyasiga moslasha olmagan qahramonlarning tragik qismati qalamga olingan. Qiyoslanayotgan ikki romanda bir-biridan keskin farq qiladigan ikki xil milliy psixologiya tasvirlangan. Milliy psixologiya ko'proq oilaviy-maishiy masalalarda namoyon etilgan.

Jek London qahramon ruhiy dunyosini batafsil, tadrijiy o'sishda ko'rsatadi va badiiy psixologizmning monolog, gallyutsinatsiya va psixologik parallelizm shakllaridan keng foydalanadi. Abdulla Qahhor esa o'z qahramonlarining ruhiy-psixologik holatlarini ko'proq ularning xatti-harakati, qiliqlari orqali ko'rsatadi. Fikrlar, hislarning uzluksiz oqimini, dialektikasini ko'rsatish (analitik prinsip) «Sarob»da ko'p uchramaydi.

¹ Норматов У. Адабий ўхшашликлар хусусида // Норматов У. Етуклик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982. – Б.120 – 133.

Omon Muxtor va Oskar Uayldning badiiy-estetik olami¹

Qiyosiy adabiyotshunoslikning asosiy o'rganish obyekti bo'lgan, bevosita adabiy aloqalar, ta'sirlar, o'zlashtirmalar, tipologik o'xshashliklar hamda milliy adabiyotlar rivojining o'ziga xos xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan ishlar filologiya uchun muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga barchada birdek qiziqish uyg'ota oladi.

Adabiyotshunoslikdagi so'nggi yillarda olib borilgan izlanishlarni kuzatar ekanmiz, komparativistikaning nihoyatda keng qamrovli soha ekaniga ishonch hosil qilish mumkin. Biz ham bir tadqiqot doirasida ko'zgu, portret ramz va motivlarining nasr va she'riyatdagi o'rnini o'rganish imkoni cheklangan degan xulosa asosida badiiy adabiyotdagi ko'zgu, surat ramzlarining g'oyaviy-estetik vazifasini o'zbek va G'arb adabiyotidagi bir nechta yozuvchilarning nasriy asarlari asosida olib borishni ilmiy ishimiz uchun asosiy maqsad qilib oldik. Maqsadni amalga oshirish uchun qiyoslash, chog'ishtirish usullaridan keng foydalandik.

Tadqiqotimizda o'zbek adabiyotshunosligida ilk bor Oskar Uayld ijodi o'rganish obyekti qilib olindi. Shu bilan birga Omon Muxtor asari birinchi marta Oskar Uayld asari bilan qiyosiy asosda o'rganildi.

Dissertatsiyada asosiy tadqiq obyekti sifatida turli tarixiy davr, geografik makon, ijtimoiy-siyosiy tuzum hamda o'ziga xos adabiy-estetik muhitda yashab ijod qilgan ikki yozuvchi tanlab olindi. Ularning biri, ijodining asosiy qismi XX asrning

¹ Тоирова Н.И. Бадий адабиётда кўзгу ва сурат рамзларининг гоёвий-эстетик ва-зифалари (Омон Мухтор ва Оскар Уайльд асарлари асосида). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2018. – Б.68 – 79.

so'ngi choragi va XXI asrning boshlariga to'g'ri kelgan, zamonaviy o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan yozuvchi Omon Muxtor bo'lsa, ikkinchisi asosan, XIX asrning so'ngi choragida ijod qilgan va estetizm yo'nalishining asoschilaridan bo'lgan taniqli ingliz adibi Oskar Uaylddir.

Mazkur adiblar bir tadqiqot doirasida o'rganish uchun tanlab olinganining asosiy sababi ular tomonidan yaratilgan «Ko'zgu oldidagi odam» va «Dorian Greyning portreti» romanlari hisoblanadi. Birinchidan, Omon Muxtor romanida ko'zgu (Siroj muallimning ko'zgudagi aksi) Oskar Uayld romanida portret (Dorian Greyning yoshlikda chizilgan surati), asosiy ramziy obraz sifatida gavdalanadi. Ikkinchidan, har ikki roman ham yozuvchilarning ijodiy-poetik olamida muhim o'ringa ega bo'lib, adiblar mazkur asarlar paydo bo'lgunga qadar o'ziga xos ijodiy evolyutsiya yo'lini bosib o'tgan. Demak, ko'zgu va portret ramzlariga asos bo'lgan asarlar ijodiy izlanishlar samarasidir.

XX asrning 90-yillariga kelib, Omon Muxtor ham shakli, ham mazmuni jihatidan o'ziga xos bo'lgan, xalq afsona va ertaklari motivi asosiga qurilgan realistik nasr uchun yangi bo'lgan romanlar yaratdi. «Ming bir qiyofa»(1994), «Ko'zgu oldidagi odam»(1996), «Ayollar mamlakati va saltanati», «Ffu»(1997), «Aflotun»(1998) shular jumlasidandir. «Ming bir qiyofa» mustaqil, biridagi voqealar davomi ikkinchisida kuza-tilmagan, bir-birini badiiy-g'oyaviy mantiq bog'lab turuvchi uch hikoyatdan tashkil topgan.

Omon Muxtorning ko'plab asarlarida ramziylik muhim ahamiyat kasb etgan. Tarixiy mavzuga bag'ishlangan «Aflotun» asari bunga yorqin misol bo'la oladi. «Undagi sahro, ayniqsa, quduq, lagan, sandiq, suv – bular ramzlar. Demak, shart-

lilik kuchli»¹. Bu yerda xalq afsona va ertak elementlari ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Omon Muxtorning «Tepalikdagi xaroba», «Ming bir qiyofa», «Ko'zgu oldidagi odam» romanlari yaxlit holda «To'rt tomon qibla» (2001) trilogiyasini tashkil etgan². Uch romandan iborat «Sharq daftari» deb berilgan bu romanlar yozuvchining ijodiy tajribasida muhim bosqich sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Omon Muxtor asarlari bir-birini takrorlamaydi. Ularda inson tafakkurining muayyan qirralarini yorqin badiiy obrazlar, ramziy detallar orqali yoritishga harakat qilingan. Inson tabiatida ezgulik va yovuzlik mujassam, degan Sharq falsafasiga tayangan holda yozuvchi an'anaviy ijobiy va salbiy qahramon tushunchalaridan voz kechadi.

Omon Muxtorning «Ishq ahli» va «Buyuk farrosh» nomli romanlarini o'z ichiga olgan «Navoiy va rassom Abulxayr» kitobi 2006-yili chop etildi. 2009-yili nashr qilingan «Odamlar kulishlari kerak» nomli kitobiga adibning xuddi shu nomdagi yangi romani va kichik hajmdagi asarlari kiritilgan. 2010-yili nashr qilingan «Xotin podshoh» kitobiga «Xotin podshoh», «Egilgan bosh», «Maydon» romanlarini o'z ichiga olgan. Omon Muxtor, shuningdek, «Daraxtlar parvozi», «Shuhrat domla» nomli esselar muallifi hamdir.

Omon Muxtorning ijod olamiga qiyoslash uchun tanlaganimiz ingliz adibi Oskar Uayld Yevropa va jahon adabiyoti tarixida estetizm adabiy oqimining yorqin namoyandasi, shoir, essenavis, nasr ustasi, komediyalar muallifi sifatida o'z o'rniga ega. Oskar Uayld shifokor-oftolmolog oilasida dunyoga keldi.

¹ Муҳаммад Али. Кунту сабот билан тикланган қаср // Ўзбекистон адабиёти санъати. 1998. №23 – Б.3.

² Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.176.

Oskar yoshligidan fenomenal qobiliyatga ega bo'lib, atrof-olamga jiddiy nazar bilan qarar va shu bilan birga, tashqi ko'rinishiga, chiroyli va hashamdor liboslarga juda ruju qo'ygan bola edi. 1871–1874-yillarda Dublin universitetida tahsil olgan davrda qadimiy tillarni o'zlashtirish va Ellada madaniy merosini o'rganishga katta e'tibor qaratdi. Bu O.Uayld estetikasining shakllanishida poydevor rolini o'ynadi. Keyin (1874–1877-yillari) o'qishni Angliyada, Oksford universitetida davom ettirib, barcha gumanitar fanlardan yuqori yutuqlarga erishdi, o'zining nozik badiiy didini namoyon etdi.

Oskar Uayld 1875-yili Italiyaga sayohat qiladi. Ana shu sayohat taassurotlari asosida yaratilgan «Ravenna» dostoni uchun 1878-yili Oksford universitetining eng taniqli bitiruvchilariga beriladigan Nyudigeyt mukofotiga sazovor bo'ladi.

Oskar Uayld zamondoshlari Balzak, Ivan Turgenev, Lev Tolstoy, Fedor Dostoyevskiylar ijodini qadrlagan bo'lsa-da, o'z ijodida realizm tamoyillariga rioya etishni xohlamadi. «Yolg'on san'at inqirozi» maqolasida voqelik (hayot) san'atga taqlid qiladi, deya ta'kidlaydi. U shu tariqa san'atni hayotdan ustun qo'yadi, hayotdan ko'ra san'at asarining nafasati, jozibadorligi va maftunkor tarovatini afzal ko'radi.

Rus adabiyotshunosligida Oskar Uayld ijodi bilan shug'ullangan dastlabki munaqqidlardan bo'lgan A. Volinskiy fikricha, «yozuvchi tashqi olamni jonsiz, passiv kuch va qo'pol, qotib qolgan realizm sifatida inkor etadi. Haqiqiy borliqqa xayolot, fantaziya kuchini, ya'ni «yolg'onni» qarshi qo'yadi»¹.

Umuman olganda, Oskar Uayld qarashlari o'ta ziddiyatli edi. U ayrim maqolalarida estetizm va individualizm g'oyalari ni targ'ib qilsa, boshqalarida Angliyadagi burjuaziya jamiyati-

¹ Гиленсон Б.А. История зарубежной литературы конца XIX – начало XX века. – М.: Академия, 2008. – С.215.

ni keskin tanqid ostiga oladi. Ba'zi asarlarida, ayniqsa, ertaklarida shaklan va mazmunan estetizmdan uzoqlashganini kuzatish mumkin.

Aslida, ertak janri Uayld uchun qulay bo'lib, hayotiy muammolar haqida, yozuvchiga yot bo'lgan maishiy, naturalistik tafsilotlarga berilmasdan hikoya qilish mumkin edi. Uning ertaklari lirizm va mistika bilan sug'orilgan. Uayld ertaklari lo'nda, chiroyli tuzilgan bo'lib, ko'pincha sentimental ohangda bo'lib, hikoyatga yaqin turadi.

Oskar Uayld o'z ertaklarida burjua jamiyatining mazmunsiz va najotsiz hayotiga sira o'xshamaydigan yorqin, turli ranglarda jilvalanib turuvchi yangi olamni tasvirladi. Ertaklarda yozuvchiga xos badiiy fantaziya, uslub bejirimligi namoyon bo'ladi. Oskar Uayldning bu davrda yaratgan hikoyalari «Kentervil arvohlari» (1887), «Lord Arturning jinoyati» (1891) ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

O.Uayld ijodini tadqiq etgan olimlar (R.Ellman, Yu.Kovalev, A.Zverev) uning ertak janriga xos bo'lmagan asarlarida ham ertakona-mifologik obrazlar, motivlar, syujet va uslubning paydo bo'lishi ijodkor olamni mo'jizalarga boy, ertakka monand qabul qilgani bilan izohlaydilar.

Xulosa qilinadigan bo'lsa, adib estetik qarashlaridagi ziddiyatlar uning ijodidagi yagona roman – «Dorian Greyning portreti»da ham yaqqol namoyon bo'ladi. Roman yozilishiga turtki bo'lgan voqea quyidagi: bir kuni yozuvchi musavvir do'sti Bezil Uord (romanda Bezil Xolluord) ustaxonasida malla sochli, juda chiroyli yigitni ko'rib, mana shunday benazir go'zallik bir kun kelib vaqt va ehtirosning domidan qochib qutula olmasligi haqidagi fikrini bildiradi. Bunga javoban musavvir suratni vaqt ta'siridan saqlash, asarning asl holidagi maftunkorligini saqlab qolish uchun portretini qayta

va qayta yaratishga tayyor ekanini aytadi. Roman juda tez, ya'ni «bir nafasda» yozib tugallanadi. Unda yozuvchining shu vaqtga qadar yaratgan ertak, hikoya va esselaridagi g'oyalar o'z aksini topadi. Roman haqidagi munozaralarni oldindan bilganday asar muqaddimasida: «There is no such thing as a moral or immoral book. Books are well written, or badly written. That's all»¹ (Axloqiy yoki axloqsiz kitob bo'lmaydi. Faqat yaxshi yoki yomon yozilgan kitoblarga bo'ladi xolos), deydi muallif.

Oskar Uayld ijodiy-estetik olamining shakllanishida san'at nazariyotchilari Jon Ryoskin, Uolter Peytarning qarashlari muhim rol o'ynagan bo'lib, «Dorian Greyning portreti» romani muallif tomonidan ishlab chiqilgan estetizm nazariyasining badiiy in'ikosi sifatida paydo bo'lgan. Omon Muxtorning 90-yillarda yaratilgan «Ming bir qiyofa», «Ko'zgu oldidagi odam», «Ayollar mamlakati va saltanati», «Ffu», «Aflotun» singari romanlari shakl va mazmun jihatdan ana shu davr adabiy jarayonida yangilik bo'lib, ularda xalq afsona va ertaklarining motivlari, sharq falsafasi va adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodiy merosi bilan birga, G'arb modern adabiyotiga xos ruhiy olam manzaralari tasviri uyg'unlashib ketgan.

Xullas, Oskar Uayldning «Dorian Greyning portreti» va Omon Muxtorning «Ko'zgu oldidagi odam» romanlari yaqin bir asrlik vaqt oralig'ida, turli ijtimoiy-siyosiy jamiyatda yaratilgan bo'lishiga qaramay, ularni inson tabiatidagi ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, ruh erkinligi va qulligi mavzusi hamda asarlarning g'oyaviy mazmunida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ramziy obrazlar birlashtirib turadi. Asarlardagi g'oyalar mushtarakligi Valijon va Dorian obraz-

¹ Wilde Oscar. The Picture of Dorian Gray // www.planetebook.com

lari orqali insonning komillik yo'lidagi intilishlari tasvirida namoyon bo'ladi.

Ilm-fan yuksak darajada rivojlangan va axborot texnologiyalari tezkor sur'atlarda taraqqiy etayotgan hozirgi davrda ham badiiy adabiyotning inson hayotidagi o'rni yetakchi bo'lib qolmoqda.

Bu o'rinda turli qamrovdagi adabiyotlararo aloqalarni o'rganish, ularga obyektiv baho berish, mushtarak va farqli jihatlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy va Vilyam Shekspir ijodida badiiy tamoyillar mushtarakligi va o'ziga xoslik¹

Badiiy so'z ustalari Navoiy va Shekspir merosida tipologik o'xshashliklarning ahamiyatga molik tomonlarini ko'rsatishga urinar ekanmiz, ular dunyoqarashida muhim o'rin tutgan mavzulardan biri muhabbat muammosiga e'tiborimizni qaratamiz.

Alisher Navoiy asarini («Layli va Majnun») Shekspirning («Romeo va Julyeta») asari bilan qiyoslash uning XVII asrdanoq jahonshumul va ilmiy o'rganilgan badiiy ijodini jahon adabiyoti kontekstida o'rganish yo'lida bir urinish desak, xato bo'lmaydi. Ikkala san'atkor ishq mavzusidagi yuksak badiiy asarni yaratar ekan, fojiali sevgi tarixini syujetga asosiy manba qilib olishdi.

O'z navbatida, «Romeo va Juletta»ning sevgi tarixi ham xuddi shuningdek, italiyalik novellanavislar tomonidan bir necha marotaba qayta ishlangan Mateo Bandello novellasi

¹ Маматкулова Х.А. Алишер Навоий ва Вильям Шекспир ижодида баддий тамойиллар муштараклиги ва ўзига хослик («Лайли ва Мажнун» достони ҳамда «Ромео ва Жульетта» трагедияси мисолида). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009. – Б.24 – 49.

(1554) bu muhabbat tarixini butun Yevropaga mashhur qildi. Bu tarixni fransuz tilida Per Buato yaratdi (1559). Fransuz tilidan ingliz tiliga Vilyam Peytner tarjima qilib, nashr qildirdi. Ingliz shoiri Artur Bruk «Romeus va Julyetaning fojiali tarixi» nomli poema yaratdi.

Sharq mutafakkiri «Alloh qudratining nishonasi» bo'lmish buyuk tuyg'uga «Mahbub ul-qulub» asarida mukammal ta'rif beradi¹. «Layli va Majnun» dostonida ham ishq masalasiga doir nazariy mulohazalar bayoniga bag'ishlangan baytlarni keltiradi:

*Ey ishq, g'arib kimiyosen,
Bal oyinayi jahonnamosen.
Ham zotingga darj kimiyoliq,
Ham oyinayi jahonnamoliq².*

Allomaning ta'kidlashicha, ishq ham «kimiyo», «ham oynayi jahonnamodir». Ishq insonga yaqinlashsa, gavdasining loyi tuproqdan o'zga narsa bo'lmagan insonning yuzini, tanini oltiniga aylantiradi, bu bilan ham kifoyalanmay uni o'tda kuydirib, tamoman eritadi. Bu kuyish natijasida uning vujudi va ruhi oltindek pok bo'ladi, ya'ni kimyolanish jarayonida uning vujudi o'zidagi qusurlardan qutulib va fazilatlar kasb etib, kamolotga erishadi.

Shekspir asarida ham ishq mavzusi ko'p qirrali yoritiladi. Shoir personajlari bu haqda turli sharoitlarda turlicha fikr yuritadilar. Shekspirda sevgi haqida birinchi xizmatkorlar gapirishadi, ular uchun sevgi – qizlar bilan ko'ngilxushlik; enaganing

¹ Қаранг: Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. – Тошкент, 1983. – Б.49.

² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XX томлик. – Тошкент: Фан, 1992. IX том. – Б.293.

ham Julyettaning yoshligida yiqilganini eslab aytgan gaplari va fikrlari ularnikidan qolishmaydi. Asarda Benvolio va Merkutsio ishq haqida istehzoli so'zlashar ekan, ko'ngilochar hissiyotlar haqida xizmatkorlarning qo'pol va sodda gaplaridan farqli ravishda yosh aslzodalar bunday hissiyotlardan nafratlanishadi va Romeoning oshiqqligini masxara qilib kulishadi.

G'arb mutafakkiri Shekspir oksyumoronlardan unumli foydalanib ishq tavsifining nihoyatda yorqin namunalari yaratadi: a brawling love – savdoyi junun; a loving hate – suyakli nafrat; a heavy lieghtness – qo'rg'oshin pat; a cold fire – sovuq alanga; a sick health – sog'lom bemor. Mutafakkir shoir ishqning ta'rifida davom etar ekan, poetik mahorat bilan uning sitamkorligini, o'tday kuydirishini, bu o't oshiqni ko'z yoshdan jamg'arilgan **dengizga g'arq etishini** bayon etadi.

Sharq va G'arbda ishq konsepsiyasiga bo'lgan munosabatlar yaqinligini va muhabbat muammosining badiiy yechimidagi g'oyaviy o'xshashlikni V.M.Jirmunskiy ham e'tirof etadi: «Dunyoviy muhabbat (ishqi majoziy) konsepsiyasi Haqqa bo'lgan muhabbatning majozii sifatida tasavvuf an'analari bilan bog'liq»¹. Tasavvufning mumtoz sharq she'riyatiga, xususan «Layli va Majnun» asosidagi muhabbat konsepsiyasiga ta'siri qanchalik katta bo'lgani fanga ma'lum.

Dostonda ham, tragediyada ham qahramonlar fojiasini tasvirlash orqali nohaqlik va adolatsizlik qoralanadi. «Ziddiyat qahramonlarning hissiyotlari asosida tug'ilmaydi... Fojia adovat va dushmanlik dunyosi bilan qahramonlarning ajoyib tuyg'usi to'qnashuvidan yuzaga keladi»². Ikkala asarda ham qahramonlar xatti-harakatlarini yo'naltiruvchi 5 ta asosiy lavha mavjud:

¹ Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. – Л.: Наука, 1979. – С.182.

² Аникст А. Творчество Шекспира. – М.: Наука, 1963. – С.228.

1. Ilk uchrashuv.
2. Dil izhori.
3. Ayriliq.
4. Istamagan kishi bilan nikohga majburlash.
5. Xotima.

Navoiy dostonida ham, Shekspir tragediyasida ham muhabbat an'anaviy munosabatlar me'yorini buzadi. Birinchi holatda ijtimoiy tengsizlik, Laylining otasi «devona» Qaysga qizini berishdan or qiladi¹. Ikkinchi holatda azaliy oilaviy nizo to'siq bo'ladi. «Romeo va Julyetta»da qahramonlar yashirincha nikoh o'qitishadi. Bu haqda ota-onalarini ogohlantirishmaydi. Ularning roziligini olish ilojisizligini anglab, bu haqda og'iz ochmaydilar. «Layli va Majnun»da faqat Majnun ota-onasining istagiga qarshi chiqa oladi, Layli esa ota-onasiga bo'ysunadi. Ikkala ijodkor ham qahramonlarining o'ziga xosligiga urg'u berishadi.

Ikkala asarda ham sevishganlar halok bo'ladilar. Majoziy ishq vujudni yo'q qilib yuboradi. Romeoning o'limi Julyetta-ning, Laylining o'limi (jisman) Majnunning jisman o'limiga olib keladi. Laylining onasiga qilgan vasiyatiga ko'ra har ikkalasini bir kafanga o'raydilar va bir qabrga qo'yadilar. Har ikki sevishgan yor shu yo'sinda bir-birlariga abadiy qovushdilar:

*Kirdi ikki jism bir kafang'a,
Yo'q, yo'q, ikki ruh bir badanga
Donadek o'lub iki badan bir,
Dona qobug'i kibi kafan bir
Yoshurdi chu oy-u kun yuzin abr,
Chun go'r bir erdi, bo'ldi bir qabr
(292-bet).*

¹ Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б.225.

Shunday qilib, yuqorida bayon qilingan fikrlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Navoiy va Shekspir ilgari surgan g'oyalar mushtarakligi sabablari adabiy aloqa va uslublar ta'siriga emas, balki asarlar yaratilgan davr muammolari, kayfiyati va ularni badiiy aks ettirishdagi yozuvchi iste'dodi, tafakkuri imkoniyatlariga bo'rib taqaladi.

Navoiy va Shekspir gumanizmini harakatga keltiruvchi barcha tamoyillarini o'z ijodiy, ilmiy, ijtimoiy faoliyatlarida bevosita ifoda ettirishga harakat qilganlar. Bu ularning davlat boshlig'i, milliy til mavqeini ko'tarish va taraqqiyotiga asos solish, shaxs erki va insoniy muhabbat xususidagi mushtarak qarashlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy «Layli va Majnun» dostonini Shekspirning «Romeo va Julyetta» tragediyasi bilan qiyoslash ikki buyuk ijodkorning ishq konsepsiyasiga munosabatlarining g'oyaviy yaqinligini ko'rsatdi. Ikki mutafakkir nuqtayi nazarida komillikning muhtasham poydevori ham, oliy cho'qqisi va so'nmas nur manbayi ham ishqdir.

G'arb uyg'onish davri mutafakkiri inson e'tiborini uning o'z go'zalligiga, jismoniy va botiniy barkamolligiga (yuksak fazilatlar egasi sifatida) qaratgan bo'lib, ana shu barkamollikni badiiy adabiyotda ifoda etishga intilgan. Uning fikricha, go'zal inson, albatta, go'zal dunyoviy hayot sohibi bo'lmog'i lozim.

Sharq uyg'onish davri mutafakkiri esa butun e'tiborini insonning ruhiy kamoloti masalasiga qaratgan. Uning uchun go'zal dunyoviy hayot pirovard maqsad emas, balki boqiy ruhiy yuksaklikka erishish uchun bir imtihon vositasi, xolos. Alisher Navoiy va Shekspirning biz tahlil etayotgan asarlari zamirida ana shu g'oya va o'zaro tafovut yotadi. Ammo shunga qaramay, ikkala shoir ham real dunyo go'zalliklari orasida ishqni go'zallikning bosh manbayi deb qaraydilar. Qahramon-

lar dunyodagi eng qudratli ma'naviy kuch deb muhabbatni bilishadi. Uning ilohiy qudratiga tayanib yashaydilar. Shu ishonch ularni inson sifatida tengsiz yuksakliklarga - hayot, davr, olam va odam mohiyatining tub ildizlarini belgilaydigan g'oyaviy kengliklarga olib chiqadi.

«Boqchasaroy fontani» poemasi va Mirtemir ijodi¹

«Boqchasaroy fontani» poemasi A.S.Pushkinga katta shuhrat keltirgani ma'lum. Aslida bu asar, V.M.Jirmunskiyning yozishicha, J.Bayronning «Korsar» poemasi ta'sirida yozilgan². O'zbek adabiyotida mazkur asarning ijodiy ta'siri Mirtemirning «Suv qizi» poemasining yaratilishiga asos bo'lgan.

«Boqchasaroy fontani» poemasining «Tatar qo'shig'i» qismida tutqun qiz Maryamning taqdiri hikoya qilinadi. Bu g'amli hikoya asarga epik mazmun baxsh etgan. Natijada qahramonlarning tuyg'u-kechinmalari, o'y-fikrlari yaxlit syujetni vujudga keltirgan. Shu jihatlar inobatga olinsa, Pushkin va Mirtemir poemalaridagi mushtarakliklar quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

1. Har ikki poema ham **ertak ruhida** yaratilgan. «Boqchasaroy fontani»da ertakka xos an'anaviy boshlanma yo'q. «Suv qizi»da esa bunday boshlanma («Qadim chog'da, dengiz bo'yida... Hayot ko'rgan ekan bitta chol») mavjud. Biroq ikkala poemadagi obrazlar xam ertakmonand. Binobarin, Pushkin poemasida podsho Taroy, Zarema, Maryam, Maryamning otasi, og'a; Mirtemirda sulton, chol, uning qizi Orzi, qaroqchi Alibobo qiyofalarida namoyon bo'lgan. Bu esa ruhiy-ma'naviy jihatdan o'xshash obrazlarni yuzaga keltirgan.

¹ Кувватова Д. «Боқчасарой фонтани» поэмаси ва Миртемир ижоди.

² Жирмунский В.М. Байрон и Пушкин. – Л.: Наука, 1978. – С.116.

2. Har ikkala poemada ham **mehribon otalar va qizlar obrazi** yaratilgan. «Boqchasaroy fontani»da Maryam tasviri:

*Uning yumshoq sevimli nozi,
Tabiati, laziz ovozi.
Yonib turgan moviy ko'zlari.
Dona-dona shirin so'zlari
Bir-biridan jozibadordi;
Hammasida ajib kuch bordi¹.*

«Suv qizi»da Orzi tasviri:

*Bo'lar ekan cholning bir qizi,
Shamshod uning bo'yiga xushtor.
Labi pista, yuzi qirmizi,
Dastor olma kabi zab naqshdor.
Sochlariga ilhaq majnuntol.
Qo'shig'iga bulbullar xumor.
Ko'zi shahlo va tillari bol²*

E'tibor berilsa, qahramonlar portretidagi o'ziga xoslik milliylik bilan aloqador. Pushkin o'z qahramonini moviy ko'zli, Mirtemir esa shahlo ko'z tarzida ifoda etadi. Ulardagi ruhiy-ma'naviy yaqinlik nafaqat tashqi ko'rinishi, balki iste'dodi orqali ham namoyon bo'ladi. Chunki Maryam ham, Orzi ham qo'shiq kuylaydi. Mirtemir Sharq mumtoz adabiyoti mavjud an'anaviy o'xshatishlarni (bo'yning shamshodga qiyoslanishi, labning pistaga, yuzning qirmizi olmaga o'xshatilishi kabi) mohirona qo'llaydi.

¹ Пушкин А.С. Танланган асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1999. – Б.171.

² Миртемир. Асарлар. Уч томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – Б.385.

«Boqchasaroy fontani» da:

*Amaldorlar, boylar izma-iz
Orqasidan izlab yurardi.
Yigit-yalang «Oh...» deb o'yida,
Azob chekar edi ko'yida.*

«Suv qizi»da:

*Ko'rgan ko'zning quvonchi ekan,
Ko'rgan yigit qolmas sevgisiz...*

Bu bilan qizlarning nihoyatda go'zalligi ifoda etilmoqda.

3. Syujetlararo o'xshashlik. Maryam tatarlarning Polshaga hujumi vaqtida podsho haramiga keltirilgan. Orzini esa qaroqchi Alibobo chashma bo'yidan o'g'irlab saroyga olib kelgan. Ayni zamonda tutqun qizlarning haramdagi hayoti tasvirida mutanosibliklar bor. Ko'rinadiki, har ikki shoir ham ayollar erksizligi mavzusini hayotiy lavhalarda yoritgan. Bu, o'z navbatida, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik kurashini ham o'zida ifoda etadi. Garov va sulton yovuzlik timsoli, Maryam bilan Orzi erksizlik qurboni sifatida ko'zga tashlanadi. Har ikkala poema ham qayg'uli yakun topadi. Ya'ni Maryam «tarki umr» etadi. Orzi esa haramda farzandli bo'ladi va qizi bilan o'zini daryoga tashlaydi.

4. Epik makon mushtarakligi. Har ikki asarda ham asosiy voqealar podsho harami, Dunay sohillari, Qora dengiz bo'yalarida bo'lib o'tadi.

Ko'rinadiki, Mirtemir Pushkinning «Boqchasaroy fontani» poemasidan ijodiy ta'sirlangan. Uning o'ziga xosligi mavzuni milliy ranglarda ifoda etganida ko'rinadi. Bu adabiyotimizda jahon poemachiligi badiiy-estetik tajribalari turli shakllarda namoyon bo'layotganini bildiradi.

She'riy talqinda ekvivalent va adekvat yondashuv

(«Na'matak» she'rining ruscha tarjimalari misolida)¹

She'riy tarjimada asliyatning poetik parametrlari hisoblangan shakl (qofiya, vazn, turoq, hijolar soni, ohangdorlik, musiqiylik) va mazmunga (timsoliylik, leksik resurslar va stilistik figuralar) adekvat yoki ekvivalentlik darajasida yaqinlasha olish muallif fikr va tuyg'usining, maqsad va g'oyasining qayta in'ikos etishini ta'minlaydi.

Asliyat matnida mujassamlangan poetik unsurlarning barchasini birdek saqlab, tarjimaning *muqobil* – ekvivalentli yoki *aynan* – adekvatli tarjimasini yaratish, ayniqsa, she'riy tarjimada o'ta murakkab jarayondir. Bunday murakkablik asliyat matnidagi she'riy san'atlar, ekspressiv unsurlar kabi funksional birliklarning o'zga til doirasida aynan muqobillik darajasida tenglasha olmasligida ko'rinadi. Adabiyotshunos Sh.Sirojiddinov monografiyasida shunday ta'rif beradi: «Tarjima vazifalaridan biri – tarjima matni asliyatning to'liq kommunikativ o'rnini egallashi va asliyat o'quvchisi imkoniyatiga teng darajadagi badiiy zavq mazmuniy va mundarijaviy (strukturaviy) uyg'un muvozanatni (muvofiqlik) tarjima o'quvchisiga taqdim etilishidir»².

She'riyat tarjimasida bunday murakkabliklardan chiqish maqsadida asliyatning deformatsiyalanishiga (yo'qotishlar, qo'shishlar, o'zgartirishlar va h.) hamda definitsiyalanish (funktional birliklarning nomutanosibligi)ga yo'l qo'yiladi, ya'ni she'riy tarjima o'zida yuqorida sanab o'tilgan ka-

¹ Салимова Д. Шеърий таржимада муаллиф бадий нияти ва поэтик маҳоратининг қайта ифодаланиши (Фафур Фулом ва Ойбек шеърларининг таржималари мисолида). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2018.

² Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадий таржима асослари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – Б.16.

tegoriyalardan birortasining o'zgartirilishiga ehtiyoj sezadi. Shularni inobatga olib, tarjimon poetik shakl va mazmuni qayta yaratish maqsadida erkin yondashuv yo'lidan borishi mumkin. Bu holat tarjima nazariyasida erkin ijodga imkon beradi va o'z o'rnida bunday imkoniyat me'yorlariga amal qilish talab etiladi. Tarjima matnida mutarjim tomonidan poetik mazmun va shaklni qayta yaratish uchun erkin yondashuv yo'li tanlanar ekan, asliyatning ekvivalent va adekvat tarjimasining amalga oshirilishi tarjimonning ikkilanishiga olib keladi, ya'ni tarjimon she'r tarjimasini qayta yaratib bo'lmagan sharoitda o'zgartirishlar va yo'qotishlarsiz ekvivalentlik va adekvatlik o'z samarasini bera oladimi, degan savollar tug'ilishi tabiiy. Holbuki, adekvatlik, adekvat asliyat bilan tarjimaning bir-biriga teng bo'lgan «aynan» natijasidir.

Adekvat tarjimada asliyat matnining tarjima matnga tenglashishi mazmunan, estetik va funksional jihatdan o'zgarishlarsiz, qayta yaratilgan va maksimal tarzda tarjima qilingan bo'ladi. *Adekvatlik* tushunchasi asliyat bilan tarjima o'rtasiga tenglik ishorasining qo'yilish natijasidir, ya'ni tarjimada ikki matn bir-biri bilan shaklan, mazmunan va so'zma-so'z yaqinlikni hosil qilib, matnning pragmatik, uslubiy jihatdan *aynan* ko'rinishiga ega bo'ladi. Bunday tarjimada ayrim erkinliklarga – qo'shishlar va yo'qotishlarga yo'l qo'yilmasligi uning asosiy shartlardan biridir. Tarjimashunos, lingvist, va adabiyotshunos olimlar ekvivalent va adekvat tarjima tushunchalarining bir necha konsepsiyalarini ishlab chiqqan bo'lishlariga qaramay, tarjima nazariyasining bu muhim ikki kategoriyalari hanuz ilmiy munozaralar doirasida qolmoqda. Taniqli rus tilshunosi, professor Lev Nelyubin ekvivalentlik va adekvatlik atamalarini o'zi tuzgan «Tarjimashunoslik atamalarining izohli lug'ati»ga kiritarkan, olimlar tomonidan ishlangan kon-

sepsiyalardan asosiy fikrlarni uyg'unlashtirib, adekvat va ekvivalent tushunchalarining umumiy ta'rifini bir necha variantdagi izohlarda keltiradi. Ushbu ta'riflardan birida «adekvatlik o'z mohiyatiga ko'ra, uch komponentga ega» deb ko'rsatadi: 1) asliyat mazmunini tarjimada to'g'ri, aniq, to'kis shakllantirish; 2) asliyat til birliklarining to'g'ri yetkazilishi; 3) tarjima qilinayotgan tilda dastlabki matn (asliyat) tilining mufassal qayta yaratilishi»¹dan iboratdir. Professor L.Nelyubin ta'kidlaganidek, *ekvivalentlik* – tarjima va asliyat mazmunining maksimal darajadagi muvofiqligi, tengligi, o'zaro monandligidir. Bizningcha, *ekvivalent tarjima* asliyat mazmunining ekvivalentlik turlaridan birida qayta yaratilishidir. Ko'rinib turibdiki, L.Nelyubin ta'riflagan adekvatlik mohiyati ekvivalentlik mohiyati bilan umumiy ma'noda uyg'unlashib ketadi, ya'ni «asliyat mazmunining to'g'ri, aniq, to'kis yetkazilishi» ekvivalentlikning «asliyat mazmunining tarjimaga maksimal darajadagi muvofiqligi»ni talab etadi. Tarjimashunoslik manbalarida ekvivalentlik darajalari, turlari xususida olimlarning turlicha izoh va tavsiflari beriladi. Adabiyotshunos olim Sh. Sirojiddinov adekvatlik va ekvivalentlikni tarjima vazifalaridan biri sifatida baholaydi: «Tarjima matni asliyatning to'liq, kommunikativ o'rnini egallashi va asliyat o'quvchisining imkoniyatiga teng darajadagi badiiy zavq, mazmuniy va munda-rijaviy (strukturaviy) uyg'un muvozanatni (muvofiqliklar) tarjima o'quvchisiga taqdim etishdir».²

Mutaxassislar qisman, to'liq, mutlaq va nisbiy ekvivalentlik kabi turlarni farqlaydilar. Chunonchi, professor Ya.Ret-

¹ Нелюбин Л. Толковый словарь по переводоведению. Третье издание, переработанное. – М.: Флинта, Наука; 2003. – С.13, 253.

² Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадий таржима асослари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – Б.16.

sker «Tarjima nazariyasi va tarjima amaliyoti» («Теория перевода и переводческая практика») darsligida «qisman va to'liq» yoki «nisbiy va mutlaq» («частичный и полный», «относительный и абсолютный») ekvivalent turlari to'g'ri-sida ma'lumot berarkan, mutlaq va to'liq ekvivalentlikni quyidagicha izohlaydi: «To'liq ekvivalentlik – so'zning ma'nosiga tarjimada to'liq mos tushuvchi so'zni qo'llashdir.» («Полными эквивалентами являются так, как охватывают полностью значение всего слова, а не одного из его значений».)¹ Ya.Retsker nazariyasida L.Nelyubin ta'riflagan asliyat mazmuniga maksimal darajadagi muvofiqlik aynan mutlaq ekvivalentlik shartlari bilan mos keladi. Xuddi shuningdek, adekvatlikda «asliyat til birliklarining to'g'ri yetkazilishi»ni talab etadigan shartlari qisman yoki nisbiy ekvivalentlik me'yorlari bilan tenglasha oladi. Chunki ekvivalentlikning *qisman* yoki *nisbiy* kategoriyalari asliyatning qaysidir atributlarini (belgilarini), unsurlarini muqobillik darajasida tarjimaga yaqinlashtira olsa, *mutlaq* va *to'liq* ekvivalentlik, aksincha, asliyatning jami – janriy, vazniy, mazmuniy, ma'noviy va shakliy unsurlariga teng qiymatda muqobillasha olishi kerak.

Ushbu taxminlardan kelib chiqib aytish mumkinki, she'riy tarjimada ijodiy erkinlik faqat nisbiy va qisman ekvivalentlikda qo'l keladi. Ikki til sistemasi va ikki ijtimoiy-madaniy hayotning turli ekanligi bois, she'r vazni, shakli, ohangdorligi, milliyligi, davr koloriti kabi nazmiy belgilarning barchasini birdek saqlab qolish ma'lum tafovutlar tufayli adekvat – «aynan» va mutlaq ekvivalentlik tarjimani aks ettirmasligi tabiiy. Bunday vaziyatda har qanday she'riy tarjima tartib-qoidalarining qat'iy belgilanmaganini nazarda tutib, tarjimon

¹ Рецкер Я. Теория перевода и переводческая практика. Очерки лингвистической теории перевода (Наше наследие). – М.: Валент, 2007. – С.15.

asliyatning qaysidir jihatlarini o'zgartirishga majbur. Aksariyat holatlarda she'r shakli saqlanadi, biroq ma'lum miqdorda mazmun o'zgartiriladi yoki aksincha, asliyat mazmuniy xususiyatlari to'liq ekvivalentlikka ega bo'lib, shakliy unsurlarni qayta yaratishda ijodiy erkinlikka yondashiladi. Chunonchi, XX asr o'zbek she'riyatining taniqli tarjimoni, shoir Aleksandr Naumov ijodida vazniy transformatsiyaning asliyatdan farqlanishini, shoira-tarjimon Yuliya Neymanning tarjimonlik talqinlarida esa shaklga sodiq qolish maqsadida mazmunni o'zgartirish holatlari kuzatiladi. Buning sababi, bizningcha, poetiklik tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlar – vazn, qofiya, hiyo, turoq, ohanglarning dominantlik (ustuvorlik) mavqei-da turgani uchun mutarjim asosiy e'tiborni asliyat shaklini saqlab qolishga intilishidandir. Masalan, Oybekning «Lolalar» va «Do'stim, o'y o'yla» she'rlarining ruscha tarjimalarini misol keltirish mumkin:

*Qirlarda lolalar go'yoki mash'al,
Kutamen har bahor sizni, lolalar!
Ko'zlar izingizda har bahor, har gal,
Yodingiz ko'ngilda, tinmas nolalar...¹*

A.Naumov tarjimasi:

*Опять весна в холмы упала,
И землю в зелень облекли,
И вы мигнули мне, тюльпаны
Как маленькие маяки².*

¹ Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. II том. Шейрлар. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.274.
² Гафур Гулям. Айбек. Стихотворения. Переводы с узбекского. – М.: Детская литература, 1983. – С.158.

Oybek:

*Do'stim, o'y o'yla, erinma, his qil,
Xayollar dengizi misli xazina.
Haqiqat duriga to'ladir chin dil,
Ijod et, chekinma, ixtiro izla.¹*

Yu.Neyman tarjimasi:

*Ни чувствовать, ни думать не ленись,
Пускай, безбрежен океан познания,
Прилежно изучай и даль и близ.
Не в познаванье ль наше воздаянье?..²*

Berilgan misollardan anglash mumkinki, she'r tarjimasiga adekvatlikdan ko'ra asosan ekvivalentlikning to'liq turi mos kelmoqda. Chunki «qisman yoki to'liq», «nisbiy yoki mutlaq» (Ya.Retsker), ayrim hollarda «formal yoki dinamik» (Yu. Nayda) kabi ekvivalentlik turlaridan birida yondashish aynan she'r tarjimasiga xosdir.

Biz yuqorida adekvatlik mohiyati ekvivalentlik mohiyati bilan umumiy ma'noda uyg'unlashib ketadi, deb ta'kidlagan edik. Nazarimizda, shu sababli ayrim tarjimashunos mutaxassislar ekvivalentlik va adekvatlikni ikki mustaqil atama sifatida izohlasalar, (A.Shveyser, Ya.Retsker, N.Garbovskiy) yana bir guruh tarjimashunoslar ekvivalentlik va adekvatlikni bir-biridan jiddiy farq qilmaydigan bir-biriga sinonim atamalar sifatida qabul qiladilar (V.Vinogradov, J.Ketford, L.S.Barxudarov, I.Alekseyeva, R.Levitskiy). Jumladan, rus tilshunos olimi V.Vinogradov *ekvivalentlikni* – teng baholi, *adekvatlikni* – *birxillik*, ya'ni to'liq muvofiqlik ma'nolarida qo'llagani va bular

bir-biri bilan muayyan darajada farqlanmagani sababli ekvivalentlik bilan adekvatlik atamalarini bir kategoriyaga mansub bo'lgan ikki nomdagi tushuncha deb qabul qiladi. Olim badiiy asarga, xususan, she'riy tarjimaga adekvat yondashuvda imkon qadar asliyatni tarjima bilan yaqinlashtirishni ma'qul deb hisoblaydi. Shu bilan birga V.Vinogradovning fikricha, she'riy tarjima asliyatning mukammal identifikatsiyasi darajasida baholana olmaydi, chunki she'riy asarda vertikal kontekst turlari bo'lgan – allyuziya, realiya, ramzlar ekvivalentlik tarjima saviyasini tushiradi. Shu bois adekvatlik va ekvivalentlikka nisbiy hodisa sifatida qarab, bunday nisbiylikning bir necha darajalarini ko'rsatib beradi¹.

Davr ijtimoiy-siyosiy sharoitlarining rivojlanib, o'zgarib turishi tarjimashunoslik ilmida ham yangicha qarashlarning paydo bo'lishiga ta'sir etmay qolmadi. Amerikalik olim Yudjin Nayda² formal va dinamik ekvivalentlik konsepsiyasida dinamik ekvivalentlikning shartlarini asliyat bilan tarjima matnlarini chog'ishtirish yo'li bilan aniqlamasdan, balki asliyatni ona tilida qabul qiluvchining reaksiyasini xuddi shu matnning tarjima tilida qabul qiluvchining reaksiyasi bilan chog'ishtirish orqali aniqlamoq kerak, degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Uning fikricha, agar ushbu reaksiyalar intellektual (zakiiy) va emotsional (ruhiy) planda bir-biriga mos tushsa, demak, tarjima ekvivalentligi yuzaga keladi. Lingvistika tomonidan qaralgan bu nuqtayi nazarda ekvivalentlikning umumiy qoidasi keltirilsa-da, o'z o'rnida ushbu qoida adekvatlikka ham taalluqli ekanidan dalolat beradi. Olimning ta'kidlashicha, badiiy asar spetsifikasiga

¹ Виноградов В. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). – М.: Издательство института общего и среднего образования РАО, 2001. – С.53.

² Найда Ю. К. Науке переводить // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – М., 1983. – С.114.

¹ Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. II том. Шеърлар. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.300.

² Айбек. Мой голос. Собрание сочинений. Том пятый. Стихотворения и поэмы. – Тошкент: Литература и искусство, 1987. – С.94.

xos bo'lgan so'z o'yinlari, idiomatik birliklar adekvatlikka mutlaqo bo'ysunmaydi. Ya.Retsker monografiyasida ta'kidlanganidek, «adekvatlik kriteriyasida asliyatda mavjud vositalarning tengligi aynan tarjima natijasini bermagan holatda voqelikning ma'lum bir qismigagina muvofiq uchrashi bilan asliyatning maksimal darajadagi yaqinligini ta'minlashi nazarda tutiladi. Yuqori saviyada mahorat darajasida qilingan tarjima tahlili uning tenglik darajasini ko'rsatadi¹.

Tarjimaga doir fikrlarni hamisha mutlaqlashtirib bo'lmaydi, chunki har qanday tarjima asarining tahlil natijasi o'laroq fikrlar o'zgarishi sodir bo'lishi mumkin. Tarjima tanqidi filologiyaning boshqa sohalaridan shu jihati bilan ham farq qiladi. Fikrimiz dalili sifatida N.Tixonovning tarjimonlik faoliyatida, xususan, Oybekning «Chimyon daftari» turkumiga mansub «Na'matak», «Xayr, Chimyon!» she'rlari tarjimasida uchraydigan adekvat va to'liq ekvivalentli yondashuvning funksional ko'rinishlarini misol keltirish mumkin. Realistik tarjima an'analari 50-yillardan boshlangan bo'lsa-da, ayrim she'rlarning o'ttizinchi yillardanoq adekvat tarjimalari mavjud edi. «Birinchi qor», «Xayr, Chimyon!», «Yor ko'zlarining...», «Na'matak» kabi she'rlarni misol keltirish mumkin.

«Na'matak» badiiy latofati ufurib turgan betakror lirik she'r namunalaridan biri sifatida XX asr o'zbek she'riyatida o'rniga ega. Ushbu she'rning g'oyaviy maqsadida go'zallikning ezgulik yaratishga qodir ekanini anglatuvchi badiiy niyat mujassam. Shoir badiiy niyatini mujassamlantirishga xizmat qiluvchi tasviriy-ifodaviy vositalar, so'z o'yinlari uning rus tilidagi tarjimasida ham nafaqat fikr bilan fikrning, jumla bilan jumlaning va shakl bilan shaklning, shuningdek, qofiya tartibi, she'r

¹ Рецкер Я. Теория перевода и переводческая практика. Очерки лингвистической теории перевода (Наше наследие). – М.: Валент, 2007. – С.16.

ohangdorligida ham Oybekni aynan takrorlaydi. Agar nisbiy ekvivalentlik matn shakli yoki mazmunini «aynan»lashtirish maqsadida ish ko'radigan bo'lsa, unda matnga dinamik yoki formal yaqinlashish talab etiladi. Adekvatlikda va to'liq ekvivalentlikda har ikkisi ham asliyat bilan «aynan»lashtiriladi. N.Tixonov «Na'matak» she'ri tarjimasida formal, ham dinamik ko'rinishda ana shu aynanlikni qayta tiklay olgan. Tarjimon ijodida formalizm shakli asliyatning grammatik va uslub xususiyatlari qandaydir nusxa olish bilan emas, balki muallif tili va uslub xususiyatlarini o'zbek tilining tabiati va tabiiy imkoniyatlari darajasida aks ettira olganlik mahoratidan kelib chiqadi:

*Nafis chayqaladi bir tup na'matak,
Yuksakda, shamolning belanchagida,
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul!
Viqor-la o'shshaygan qoya labida –
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...¹*

*Чудно качается куст Наъматака
Там, наверху в ветровой колыбели,
Солнцу – корзина цветов белоснежных.
Гордо над краем утесистой щели
Чудно качается куст Наъматака...²*

N.Tixonov va Oybek shoir, yozuvchi, tarjimon, adabiyotshunos bo'lib faoliyat yurgizishgan. Ular bir-biri bilan ijtimoiy-siyosiy hayotda hozirjavob publitsist, g'oyaviy qarashlari o'zaro monand ham edi. Bir adabiy, siyosiy muhit-

¹ Ойбек. Танланган асарлар. Тўрт томлик. Биринчи том. Шеърлар, поэмалар. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1957. – Б.182.

² Гафур Гулям. Айбек, Хамид Алимджан. Стихотворения и поэмы. Большая серия. – Л., 1980. – С.285.

da ijod qilgan bo'lsalar-da, his-tuyg'ularini she'riy satrlarga ko'chirishda har ikki ijodkor ham mohir ekanligi ma'lum. Oybekning o'zi ham tarjimon bo'lgani bois, yaqin do'sti N.Tixonovning «Na'matak» she'rini ruschaga o'g'irganidan, tarjima tilidan ko'ngli to'lgan va ijobiy baholagani haqida xotira yozgan.¹ Umuman, N.Tixonov tarjimonlik faoliyatida Oybekning «Xayr Chimyon!», «Ilk qor», «Yor ko'zlarining ishqini, xumorini yod et» kabi lirik she'rlari mukammal tarjimalar sifatida baholanishi mumkin. Ushbu she'r tarjimalari ekvivalentlik va adekvatlik talablariga to'liq javob beradi. Shu bois, davrlar o'tsa ham, ushbu she'rlarning yuqoridagi muqobil tarjimalari boshqa mutarjimlar tomonidan o'g'irilishga ehtiyoj sezmaydi. Chunonchi, «Yor ko'zlarining ishqini, xumorini yod et» she'rini tarjima bilan solishtirganimizda she'rning muallifi Oybek tarjimoni N.Tixonov, yoki aksincha, she'rni yozgan N.Tixonov, uni tarjima qilgan Oybekmi degan savol tug'ilishi tabiiy. Chunki she'r tarjimasini bilan favqulodda o'xshash holatda talqin etilishi G'.Salomov ta'kidlaganidek, «mo'jiza»ga o'xshaydi:

Yor ko'zlarining ishqini, xumorini yod et!

Милой глаза, что влекут так безудержно,

(Ya'ni: Betinim jazb etgan yor ko'zlarining)

Ko'k gulshani durlar kabi porlaydi bu oqshom.

Неба вечерний цветник – словно жемчужина краса,

(Ya'ni: Ko'k gulshandir – go'yo durlardek chiroyli)

Har tog'da va qirda yotar nozli bir orom,

На равнинах, в горах всё нежнее покой, всё укромней,

(Ya'ni: Qirlarda, tog'larda nozli, xilvatli orom)

¹ Bu haqda qarag'ng: Oybek zamondoshlari хотирасида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б.19.

Dunyodagi ko'zlar aro shahlosini yod et¹.

Среди глаза всего мира вспомни милой глаза².

(Ya'ni: Dunyodagi ko'zlar aro yor ko'zlarini yod et).

Ko'rinadiki, to'liq muqobillik darajasi she'riy tarjimada o'zini tamoman oqlaydi.

«Saddi Iskandariy» (Navoiy) va «Iskandarnoma» (Nizomiy) debochalari³

Mavzu va faslda qo'yilgan ilmiy muammo nuqtayi nazari-dan ikki doston debochalarini to'la qiyoslash mumkin. Biroq badiiy mahorat va ijodiy individuallik hodisalarini aniqroq tasavvur etish uchun qiyoslanayotgan obyektlarda adekvatlik va tipologik jihatlarining bo'lishi ko'proq maqsadga muvofiq hisoblanadi. Har ikki dostonning dastlabki to'rt bobi bu jihat-dan to'la talabga javob beradi, shu bois biz asosiy e'tiborni mazkur boblarga qaratamiz.

Nizomiy «Iskandarnoma»si debochasida kirish va asosiy bob yoki tasvir va bosh mavzu o'rtasidagi uyg'unlik Navoiyda bo'lgani kabi kuchli emas. Nizomiy sarlavhalari qisqa va asosiy mazmunni ifodalashga qaratilgan, ularda qofiya, ritm va obraz-lilik yo'q. Navoiy esa katta mehnat va mahorat bilan kichik bir sarlavhani o'sha bob mazmuniga ham, butun asardan ko'zlan-gan maqsad va mavzuga ham muvofiqlashtirishga intiladi.

Adabiy komparativistikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan **tematologiya** nuqtayi nazaridan xamsanavislik

¹ Oybek. Танланган асарлар. Тўрт томлик. Биринчи том. Шеърлар, поэмалар. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1957. – Б.184.

² Гафур Гулям. Айбек, Хамид Алимджан. Стихотворения и поэмы. Большая серия. – Л., 1980. – С.307.

³ Исмоилов И.А. Алишер Навоий «Садди Искандарий» дostonининг қиёсий таҳлили. – Тошкент, 2019.

doirasida yaratilgan iskandarnomalarning mavzulari ham e'tiborga molik. Garchi iskandarnomalarning mavzulari genezisiga ko'ra qahramonlik mavzulariga taalluqli bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan mualliflarning originallikka intilishi faqat asar nomining emas, mavzuning ham o'ziga xoslik kasb etishiga olib kelgan. Firdavsiyning «Iskandarnoma»si qahramonlik mavzusida, Nizomiy «Iskandarnoma»si ham ko'proq jangnoma xarakteriga ega, lekin unda mavzu tarkibiga lirik, axloqiy-ma'naviy ruh ham qo'shilgan. Xusravning «Oyinayi Iskandariy»si qisman jangnoma, ko'proq axloqiy-didaktik yo'nalishga mansub. Jomiyning «Xiradnomayi Iskandariy»si esa jangnomalik xususiyatini butunlay yo'qotib, sof didaktik xarakter kasb etgan. Navoiy qo'yg'an nom ham asar mavzusini biror predmet yoki motivga aloqadordek ko'rsatsa-da, mazmunan qahramonlik va axloqiy-ma'rifiy jihat tenglik kasb etgan. Shu tarzda, nomlardagi turfaalik mavzulardagi o'zgarishlarni aks ettirib borgan. Bunday o'ziga xoslikni fotiha baytlar misolida ham kuzatish mumkin.

Sharqda yaratilgan iskandarnomalarda baroati istihlol borasida o'ziga xos an'ana mavjud, ularning aksariyati deyarli bir xil bayt bilan boshlanadi.

<i>Firdavsiyda:</i>	Bar on ofarin, k-o' jahon ofarid, Zamin-u, zamon-u makon ofarid.
<i>Nizomiyda:</i>	Xudoyo, jahonpodshoy turost, Zi mo xidmat oyad, xudoy turost.
<i>Amir Xusravda:</i>	Jahonpodshoho, xudoyi turost, Azal to abad podshoyi turost.
<i>Jomiyda:</i>	Ilohi, kamoli ilohi turost, Jamoli jahon podshohi turost.
<i>Navoiyda:</i>	Xudoyo, musallam xudoliq sanga, Birov shahki, da'bi gadoliq sanga.

Abdibek Sheroziyda: Jahonofarino, ilohi turost,
Ba mulki jahon podshohi turost.

Ye.E.Bertels o'z vaqtida mazkur an'anaga e'tibor qaratib, Nizomiy, Xusrav, Jomiy va Navoiy baytlarini o'zaro qiyoslagan va mualliflar o'rtasidagi farqni ko'proq ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog'lab asoslashga harakat qilgan edi.

Faqat xamsanavislik an'anasida yaratilgan iskandarnomalarda emas, bu toifaga kirmaydiganlarida ham debochalar an'anaviy xarakterga ega. Nizomiy va Navoiy dostonlari an'anaviy hamd bilan boshlanadi. Epik hamdlar ko'lamdorlik, vazmin ifoda, obrazlar tizimi bilan lirik hamdlardan farqlanadi. Tavhidning badiiy funksiyasi Nizomiy va Navoiyga qadar tayin bo'lib ulgurgan, shu bois bunday boblar bir maqsadning ikki ijodkor tomonidan qanday ifodalanishi, ijodiy individuallikni kuzatish uchun juda qulay vaziyat hisoblanadi.

Navoiy dostonidagi munojotda aniq voqeaviylik bo'lmasa-da, biror nazariy fikr yoki asos, uning amaliy isboti kabi qismlar, ular o'rtasida ichki bog'lanish mavjud. Mana shu izchillik, avvalo, ijodkor fikrlarining ta'sirli chiqishiga xizmat qilgan. Nizomiy dostonidagi munojotda esa mazkur xususiyat u qadar sezilmaydi, uning tasvirlari bir xil ohang va bir xil mazmunda. Navoiy kabi fikrga turli asoslar keltirmaydi, u birgina «yaxshi yoki yomon bo'lsam ham, sening taqdiring tufayli» degan asosni ta'kidlaydi. Navoiy esa qo'shimcha tarzda banda gunohlarining kechirilishiga akobirlar fikri, Horun haqidagi rivoyat va boshqa mantiqiy asoslar ko'rsatadi. Bunga sabab umidvorlik tuyg'usiga urg'u berish edi, ya'ni Navoiy munojotida Nizomiydan farqli o'laroq umidvorlik ustuvor. Navoiy o'z gunohlarini umumiy qayd etib qolmay, konkret misollar keltiradi, o'zini ko'proq malomat qiladi. U bobdagi bu-

tun tasvirni Allohning karim sifati atrofida birlashtiradi, hatto sarlavhani ham shu nuqtaga tutashtiradi. «Akramul-Akramin» iborasining turli ma'nolarini sharhlab, mantiqiy xulosalar chiqaradi. Nizomiy munajatida esa hidoyat so'rash yetakchi. U Tangrining biror sifati, masalan, karim yoki rahim sifatlariga alohida e'tibor qaratgan emas, balki to'g'ridan-to'g'ri Allohga murojaat qilish, uning qudrati haqida so'zlashga intiladi. Nizomiyda ham oxirgi bayt ikki bobni o'zaro uyg'unlashtirishga xizmat qilgan.

Qiyoslar payg'ambar haqiqati borasida Nizomiy va Navoiyning dunyoqarashi yaqin ekanini ko'rsatadi:

Nizomiy	Navoiy
Fikrlar ko'proq badiiy yo'sinda aks etgan	Fikrlar nisbatan ochiq, hatto, Odam va undan keyingi payg'ambarlarning Muhammad (a.s.)ga nisbatan mavqeyi aniq qayd etiladi.
Payg'ambarning islom rivojida ko'rsatgan jasoratlari va ulug' zot ekani, sharafini ta'kidlashga ko'p e'tibor qaratgan. Fikrlarini asoslash uchun payg'ambar mo'jizalari, xususan, «shaqqal-qamar» voqeasi, payg'ambarning harbiy harakatlari xususida to'xtaladi.	Ilohiy mo'jizalar xususida so'zlagan bo'lsa-da, ko'proq payg'ambarning yangi shariat barpo etgani va uning oqibatlarini haqida so'z yuritadi.
Na'tda Navoiyda kuzatilgan Muhammad (a.s.) zoti tasviridan to'unga Qur'on nozil bo'lgunga qadar vaqtning sabab-oqibat tarzidagi ifodasi yo'q.	Tartib orqali tushunarliklik, badiiy tasvirdagi tizimlilikni ta'minlashdan tashqari, koinotning yaratilishi ham muayyan tartibga ega ekani, jumladan, Muhammad (a.s.) ana o'sha jarayonda muhim o'rin tutishini ko'rsatib berishga muvaffaq bo'lgan.

Nizomiy va Navoiyning me'roj borasidagi qarashlari juda uyg'un, lekin Navoiy bu bobda ham o'z ijodiy prinsipiga muvofiq yangi yo'ldan yurishga intilgan.

Har ikki ijodkor payg'ambarning Tangri huzuridan qaytishi tasvirida ham o'ziga xoslik ko'rsatgan. Navoiy Muhammad (a.s.)ning bir damlik safardan buyuk himmati bilan ummati murodini hosil qilib qaytganiga diqqatni qaratsa, Nizomiy me'roj voqeasidan so'ng choriyorlarga sano aytadi. Nizomiyning bu tasvirlari debochanavislik an'anasiga muvofiq, chunki Sharq debochalarida manolib doimiy tarkibiy qism sanalgan.

Alisher Navoiyning badiiy mahorati, kashfiyotlari mohiyatini to'g'ri va to'la ko'rsatish uchun u tayangan manbalar bilan atroflicha tanishish, ular orasidagi bog'lanishlar xususiyatini tahlil qilish zarur. Bu ma'lum faktning saralanishidan boshlab, shakllanishi, badiiy tasviri va talqiniga qadar bo'lgan oraliqda ijodkorlarning individualligini aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Xamsanavislik doirasidagi iskandarnomalar Sharqda yaratilgan Iskandar qissalarining oltin halqasi. Ular qadimgi davrdan muallif davriga qadar bo'lgan folklor, diniy-tarixiy, adabiy-falsafiy merosning ensiklopedik umumlashmasi va hosilasi sifatida namoyon bo'ladi.

Navoiy «Saddi Iskandariy»da ham debochani asar mazmuniga muvofiqlashtirish prinsipiga amal qiladi. Har ikki dos-tondagi **tavhid**, **munajat**, **tavsif na't**, **me'roj na't** kabi boblar an'anaviy bo'lgani uchun umumiylikka ega. Qolgan boblar maqsadi, mazmuniga ko'ra farqlanadi, tafovutlarning yuzaga kelishi davrlar o'tishi bilan ham izohlanadi.

Nizomiy debochasi boblarini bog'lab turuvchi «ketma-ketlik», Navoiy debochasida «uzviylik» darajasiga ko'tarilgan va

kirish bob o'ziga xos kompozitsiyaga aylangan. Navoiyning tafakkur tarzi va tasvir uslubiga xos sistemali yondashuv de- bochadagi boblar tartibi va tasvirida aniq namoyon bo'ladi.

Navoiy tasvir uslubiga muayyan fikrni turlicha poetik ifodalarda tasvirlash – poetik variatsiya hodisasi ham xos. Navoiy tasviridagi poetik variatsiya tabaqalanish xususiyatiga ham ega, ya'ni ularning ba'zilar murakkab bo'lsa, ba'zilar sodda xarakter kasb etadi, poetik variatsiyaning xilma-xilligi istalgan saviyadagi kitobxonga ijodkor fikrining yetib borishiga zamin bo'lgan.

Alisher Navoiy ijodining Ozarboyjon adabiyotiga ta'siri¹

Jahon adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodini o'rganish qariyb olti yuz yillik tarixga ega bo'lib, bu davr mobaynida Sharq va G'arb mamlakatlarida navoiyshunoslikka doir ko'plab durdona asarlar yaratildi hamda ulug' shoir va mutafakkir ilmiy-ijodiy merosining jahon madaniyati tarixidagi o'rnini yuqori baholandi.

O'zbek-ozarboyjon adabiy aloqalari, Alisher Navoiy she'riyati, shoir ijodining ozarboyjon mumtoz adabiyotiga ta'siri va adabiy merosining Ozarboyjonda o'rganilishi kabi masalalar B.Valixojayev, A.Hayitmetov, Yo.Is'hoqov, N.Komilov, A.Hojiahmedov, A.Rustamov, M.Muhiddinov, A.Qayumov, S.G'aniyeva, R.Vohidov, M.Hakimov, I.Haqqulov, A.Abdudodirov, M.Akbarova, N.Bozorova, K.Mullaxojayeva, M.Sharipov kabi olimlarning ilmiy asar hamda maqolalarida o'z aksini topgan.

¹ Султанов Т. Алишер Навоий ва Озарбайжон адабиёти: тарихий илдиэлар, аъналар, ворисийлик (Кишварий ва Содиқий асарлари мисолида). – Тошкент, 2019.

Mushtarak til, madaniyat va an'analarga ega bo'lgan o'zbek va ozarboyjon xalqlari orasidagi tarix uzoq o'tmishga borib taqaladigan adabiy aloqalar XV asrda Alisher Navoiy tufayli yuksak cho'qqiga chiqdi. Nizomiy Ganjaviy, Imodiddin Nasimiy, Ashraf Marog'iy, Qosim Anvor kabi ozarboyjon shoirlarining asarlaridan bahramand bo'lgan Navoiy o'z davridan boshlab hozirga qadar Kishvari, Xatoyiy, Fuzuliy, Rahmatiy, Sodiqiy, Amoniy, Zafar, Soib, Qo'vsiy va boshqa ko'plab ozar shoirlarining ijodiga ta'sir ko'rsatdi. O'zbek shoiri ijodiyotidagi insonparvarlik, chuqur ma'no, yuksak san'atkorlik mahorati asarlarining ulkan jo'g'rofiyada – butun Turkistondan tashqari Ozarboyjon, Eron, Turkiya va hatto Hindistonda ham yoyilishiga sabab bo'ldi. Navoiyshunos olim Porso Shamsiyevning ta'kidlashicha, Navoiy qo'lyozmalarining dunyoga tarqalishida Abduljamil va Sultonali Mashhadiy kabi xattotlar muhim o'rin tutgan.

Ko'pchilik manbalarga asoslangan holda shuni ayta olamizki, Nizomiy merosi O'zbekistonda Navoiy davriga qadar ham keng yoyilgan, sevib o'qilgan edi. Alisher Navoiy ozar shoiri Nizomiy Ganjaviyning «Panj ganj» asaridan badiiy ta'sirlangan holda turkiy tilda «Xamsa» asarini yozgan bo'lsa, Ozarboyjonda Ne'matulloh Kishvari, Muhammad Fuzuliy, Sodiqbek Afshor Sodiqiy, Ahdiy Bag'dodiy va boshqa mashhur ijodkorlar Navoiy asarlaridan ilhomlanib nazira, taxmis, tazkira hamda dostonlar yaratishdi.

Navoiy ijodining ozarboyjon adabiyotiga ta'sirini ko'rsatuvchi eng muhim manbalardan biri chig'atoy lug'atlaridir. Bunday lug'atlarning aksariyati Eron va Ozarboyjonda yozilgani e'tiborni tortadi. Mualliflar orasida faqat Fazlullohxon va Muhammad Ya'qub Chingiy hindistonlikdir. Mazkur lug'atlarning Hindistonda yaratilishi Navoiy asarlari ta'sir darajasini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu asarlardan «Badoye' ul-lug'at» chig'atoy tilining eng eski lug'atlaridan biridir. Iroq shevasi va ozarboyjon tili xususida so'z yuritilgani lug'atning originalligini belgilaydi.

Yana bir muhim lug'at «Sangloh»da ozarboyjon shoiri Muhammad Fuzuliy ijodidan namunalar keltirilgan.

XVI asrda Safaviylar hukumat tepasiga kelishdi. Ozarboyjon adabiyotining oltin davri hisoblanadigan mazkur asrning eng taniqli shoirlari Xatoyiy (Shoh Ismoil) va Fuzuliydir. Xatoyiy (1486–1524) Fuzuliy va Soibdan oldin Navoiy yo'lidan borib, o'z asarlarini ona tilida yozish orqali ozarboyjon adabiy tilining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Uning devonidan tashqari, «Dahnoma», «Nasihatnoma» nomli dostonlari ham sodda, xalqqa tushunarli tilda yozilgani bilan ajralib turadi.

Xatoyiy ijodida Navoiy she'rlariga o'xshash jihatlar ko'p. U ham Navoiy kabi insonning mavjudligini kuylash, uning samimiy, real va hayotiy muhabbatini ulug'lash, hayotdan zavqlanish, umrdan unumli foydalanish g'oyalari ilgari surgan. Jumladan, uning «Gəlmədi» («Kelmadi») radifli g'azali vazn, radif va uslub jihatdan Navoiyning mashhur «Kelmadi» radifli g'azalini eslatadi:

Alisher Navoiy:

*Kecha kelgumdur debon, ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.*

Ismoil Xatoyiy:

*Dəmbədəm yol gözləmə, ol sevgi yarım gəlmədi,
Qalmışam qış möhnətində, novbaharım gəlmədi.*

XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning boshlarida Ozarboyjonda yashagan mashhur shoir, mohir nosir, man-

bashunos olim, xattot va miniatyurachi rassom Sodiqbek Afshor Sodiqiy ham Alisher Navoiy g'azallaridan ilhomlanib naziralar, shuningdek, «Majolis un-nafois» asari ta'sirida «Majma' ul-xavos» tazkirasini yozgan. Sodiqiyning «She'rlar» asaridagi 40 ta ozarboyjoncha g'azalni Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotidagi 2600 ta o'zbekcha g'azal bilan mazmun, shakl va uslub jihatdan taqqoslaganimizda, Sodiqbek Afshorning Navoiy g'azallaridan adabiy ta'sirlangan holda 21 ta nazira yozgani aniqlandi.

Alisher Navoiy asarlarining ozarboyjon shoirlari ijodiga ta'siri natijasida ozarboyjon mumtoz adabiyotida bebaho asarlar yuzaga keldi va «oltin davr» boshlandi. Alisher Navoiyning ozarboyjon adabiyotiga ta'siri va adabiy merosining o'rganilishi, g'azallarining Ne'matulloh Qishvari ijodiga ta'siri hamda Sodiqbek Afshor Sodiqiy ijodida Alisher Navoiy an'analari masalalari o'zbek va ozarboyjon adabiyotshunosligi uchun muhim tadqiqot maydoni bo'lib qolaveradi.

Nazorat savollari:

1. O'zbekistondagi qiyosiy tadqiqotlar istiqboli haqida qanday tushunchaga egasiz?
2. O'zbek adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida o'rganish qanday samara beradi?
3. Abdulla Qahhor va Jek London asarlaridagi umumiy va o'ziga xos tomonlar nimalardan iborat?
4. Namuna sifatida berilgan qiyosiy tadqiqotlardan birini qiyosiy tahlil mezonlari bo'yicha o'rganib chiqing va baho bering.

MUSTAQIL IZLANISH UCHUN MAVZULAR

1. Oybek va Pushkin ijodida peyzaj tasviri.
2. A.P. Chexov va A. Qahhor hikoyalarda falsafiylik.
3. Sharq va G'arb adabiyotidagi an'anaviy obrazlar.
4. O'zbek romanlarida antik obrazlar.
5. Abadiy mavzular va ularning qiyosiy talqini.
6. Jahon adabiyotida beg'ubor bolalik mavzusi.
7. Jahon dramaturgiyasida sig'inish motivi.
8. Sharq she'riyatida qish obrazi.
9. G'arb she'riyatida bahor obrazi.
10. G'afur G'ulom va jahon adabiyoti.
11. I.V.Gyote ijodida Qur'oniy motivlar.
12. F.Dostoyevskiy va U.Hamdani ijodida psixologizm.
13. Nemis adabiyotida sharqona motivlar.
14. Sharq adabiyotida G'arb sivilizatsiyasi.
15. Ixtiro – jahon adabiyoti kontekstida.
16. O'zbek va rus realistik romanlarida ijtimoiylik.
17. A.N.Tolstoy asarlarida Qur'oniy mavzular.
18. Jahon adabiyotida jinoyat va jazo motivi.
19. Jahon adabiyotida xiyonat motivi.
20. G'azal janrida aksioma (isbot talab qilmaydigan xususiyatlar).
21. Jahon she'riyatida sog'inish motivi.
22. O'zbek hikoyalarda milliy g'urning ifodalanishi.
23. Antik davr dramalarida fojea estetik kategoriya sifatida.
24. Navoiy va Ogahiy ijodida mifologik motivlar.
25. Umar Xayyom va Pahlavon Mahmud ruboiylarida poetik mushtaraklik.
26. Sharq va G'arb adabiyotida donishmand obrazi.
27. M.Lermontov va M.Yusuf poeziyasida afsuslanish motivi.
28. Dostoyevskiy va Shatobrian: an'ana va mahorat.
29. Jahon adabiyotida ideal shoh obrazi.
30. Folklor motivlarining yozma adabiyotdagi transformatsiyasi.
31. Nosir Zohid va Viktoriya Shvabning «Qasos» romanlari.
32. Bir xil nomdagi asarlar komparativistikasi.
33. O'zbek prozasida baxt motivi.
34. Rus yozuvchisining turkiy olami.
35. O'tkir Hoshimov va Tohir Malik ijodida diniy motivlar.
36. Jahon adabiyotida sayyor arxiteplari.

KOMPARATIVIST OLIMLAR

Qiyosiy adabiyotshunoslik yoʻnalishida ilmiy ish olib borishni maqsad qilgan tadqiqotchi, albatta, komparativist olimlar va ularning ilmiy-nazariy xulosalari, qiyosiy adabiyotshunoslik rivojiga qoʻshgan hissasini bilishi kerak. Shu maqsadda dunyoga mashhur yevropa va rus komparativistlari toʻgʻrisida qisqacha maʼlumot beramiz.

I.G.Gerder (1744–1803) shoir va yozuvchi, tarjimon, qiyosiy adabiyotshunoslik borasida ilk nazariy fikrlar bildirgan nemis olimi. Oʻzining «Insoniyat tarixi falsafasiga doir gʻoyalar» (1784) asarida birinchilardan boʻlib barcha yevropa xalqlari uchun umumiy boʻlgan, yagona madaniy tarixiy jarayonning birligi gʻoyasini ilgari suradi. «Nemis adabiyotidan lavhalar» kitobidan esa bu fikrni mantiqan davom ettirib, barcha yevropa xalqlari uchun umumiy boʻlgan adabiy hodisalar, anʼanalar kabi masalalarni yoritadi. «Xalq qoʻshiqlari» antologiyasida (1778–1779) badiiy adabiyotda folklorning oʻrni va yevropa xalqlari uchun mushtarak tomonlari haqida soʻz yuritadi.

I.V.Gyote (1782–1832) shoir, olim, tarjimon, I.G.Gerderning mushtarak madaniy jihatlar haqidagi nazariyasini davom ettirib, fanga «jahon adabiyoti» atamasini olib kirgan. Mashhur «Faust», «Gʻarb-u Sharq devoni» va koʻpgina boshqa asarlar muallifi. Ayniqsa, uning «Gʻarb-u Sharq devoni» qiyosiy metodologiyaga asoslanib yozilgan asar boʻlib, unda Gʻarb va Sharq – jahon adabiyotini tashkil qiluvchi ikki buyuk qoya ekani isbotlab berilgan. Shuningdek, Gʻarb va Sharq doimiy adabiy aloqada ekani, ular orasida umumiy adabiy qonuniyatlar mavjudligi ochib berilgan.

T.Benfey (1809–1881) nemis olimi, sanskritolog, qiyosiy adabiyotshunoslik nazariyotchisi. U fan olamida birinchi boʻlib «syujetlar migratsiyasi», yaʼni syujetlarning jahon adabiyoti boʻylab koʻchib yurish nazariyasini yaratgan. Olim qadim sanskrit asari boʻlgan «Panchatantra»ni tarjima va tadqiq qila turib, undagi syujetlar koʻchib yuruvchi syujetlar ekanini, turli xalqlar folklorida uchrashini qiyoslash metodi orqali isbotlab bergan. T.Benfey fan olamida birinchi boʻlib, «Orient und Occident» («Sharq va Gʻarb») jurnaliga asos solgan. Bu jurnalda dastlabki qiyosiy tadqiqotlar oʻz aksini topgan. Bugungi kunda olim asos solgan «syujetlar migratsiyasi» nazariyasi asosida bir qancha ilmiy loyihalar bajarilmoqda¹.

A.A.Potebnya (1835–1891) – birinchi boʻlib nazariy poetika asoslarini ishlab chiqqan olim, tilshunos, faylasuf, tarjimon. U oʻzining «Nazariy poetika» asarida fan tarixida birinchilardan boʻlib poeziya va proza, badiiy tasvir vositalari, poetik va mifologik tafakkur, stilistik figuralar haqida ilmiy nazariy xulosalarini bayon qilgan. Uning adabiyotshunoslikka doir ayrim izlanishlari keyinchalik adabiyotshunos M.Baxtin tomonidan davom ettirilgan.

G.M.Brandes (1842–1927) – daniyalik adabiyotshunos olim, publitsist, koʻpgina ilmiy asarlar muallifi. «XIX asr Yevropa adabiyotida asosiy yoʻnalishlar» nomli kitobida birinchi boʻlib ayni haqiqatni, yaʼni bir xalqning dahosi, ikkinchi bir xalq dahosiga ehtiyoj sezadi va bu ehtiyoj unga katta kuch, gʻayrat bagʻishlaydi degan fikrni ilgari suradi. Uning ilmiy asarlari asosan jahon adabiyotining buyuk daholari ijodi tahliliga bagʻishlanadi.

X.G.Gadamer (1900–2002) – nemis faylasufi va adabiyotshunosi. Germenevtika – talqin sanʼati nazariyasi asoschisi. «Haqiqat va metod», «Goʻzallikning dolzarbli» kabi asarlar

¹ Вечные сюжеты и образы в литературе и искусстве русского модернизма // modernista.moscow/

muallifi. Uning asarlari qiyosiy adabiyotshunoslikda tarjima va talqin, tahlil va talqin kabi masalalarga asos bo'lib xizmat qiladi.

Kurt Vays (XXasr) – nemis komparativist olimi, Tyubingen universiteti professori. Qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha yaratilgan «Yevropa xalqlarining zamonaviy adabiyoti»(1939), «Qiyosiy adabiyotshunoslikda tadqiqotchilik muammolari»(1948) kabi jamoaviy ilmiy asarlarning tashabbuskori bo'lgan.

D.Dyurishin (1928–1997) – qiyosiy adabiyotshunoslik nazariyasi tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan slovak olimi, adabiyotni tipologik jihatdan o'rganish yo'nalishining jahondagi eng yirik mutaxassisidir. Olimning «Slovak realistik hikoyachisi va N.V.Gogol»(1966), «Adabiy komparativistika muammolari» (1967), «Adabiy komparativistika tarixi va nazariyasidan»(1970), «Adabiyotni qiyosiy o'rganish»(1972), «Adabiy komparativistik nazariya»(1975), «Slovak adabiy komparativistikasi tarixi»(1979), «Slovak adabiy komparativistikasi bibliografiyasi»(1980) kabi bir necha kitoblari jahonning ko'plab tillariga tarjima qilingan. D.Dyurishinning «Adabiyotni qiyosiy o'rganish nazariyasi» asarida jahon adabiyotshunosligida qiyosiy tahlil metodining paydo bo'lishi, shakllanishi yoritilgan. U tipologik tahlil adabiyotshunoslik uchun muhim masalalaridan biri ekanini ko'rsatadi va uning vazifasini adabiy ta'sirning tipologik va genetik (adabiy asarlar, yozuvchilarning ijodiy merosi, adabiy maktablar, janrlar, uslublar shakllanishi va boshqalar) mohiyatini aniqlash, ularning ichki qonuniyatlarini ochishdan iborat deb belgilaydi.

A.Dima (XXasr) – rumin adabiyotshunosi, akademik, qiyosiy adabiyotshunoslik xalqaro assotsiatsiyasining a'zosi. Uning mashhur «Qiyosiy adabiyotshunoslik tamoyillari» monografiyasida jahon komparativistikasining tadrijiy taraqqiyoti, rumin qiyosiy adabiyotshunosligi, xalqaro adabiy aloqalarning

turlari va shakllari, komparativistikaning nazariy va amaliy ahamiyati kabi bir qator masalalar yoritilgan. Olim xalqaro adabiy aloqalarning turlari haqida yozar ekan, genetik jihatdan yaqin bo'lmagan, ijtimoiy va tarixiy jihatdan uzoq xalqlar adabiyotida ham tipologik o'xshashliklar bo'lishi mumkinligini isbotlaydi¹. A.Dima yaratgan nazariya turli xalqlar adabiyotida o'xshash va farqli tomonlarni tahlil qilish orqali, ular orasidagi umumiy qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi (Masalan, Mark Tven va G'afur G'ulom asarlari komparativistikasi)

A.N.Veselovskiy (1838–1906) – rus adabiyotshunosi, akademik. Tarixiy poetika nazariyasi asoschisi, qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik bo'yicha yetuk mutaxassis olim sifatida slavyan, Vizantiya, G'arbiy Yevropa xalqlari adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida o'rgangan. «Roman va qissa tarixi», «Tarixiy poetika» kabi ilmiy asarlar muallifi.

V.M.Jirmunskiy (1891–1971) rus adabiyotshunosi, komparativist olimi, xorij va o'zbek adabiyoti tadqiqotchisi. Turli xalqlar adabiyoti tipologiyasini, jumladan «Odissey» va «Alpomish» asarini qiyosan o'rganish asosida sayyor (ko'chib yuruvchi) motivlar nazariyasiga asos solgan. «Turkiy epos», «Qofiya tarixi va nazariyasi», «Adabiyot nazariyasi», «Qiyosiy adabiyotshunoslik», «Bayron va Pushkin kabi ilmiy asarlar muallifi. Turkiy qahramonlik eposining paydo bo'lishi, shakllanishi va qarindosh bo'lmagan boshqa xalqlar eposlariga ta'siri borligini ilmiy jihatdan isbotlangan.

N.I.Konrad (1891–1970) – rus sharqshunos olimi, faylasufi va tarjimoni. Yapon, xitoy va turkiy xalqlar adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida o'rganib, fan uchun muhim ilmiy asarlar yozib qoldirgan. Adabiy aloqalar va adabiy ta'sir masalalari qiyosiy adabiyotshunoslikning obyektini nazariy jihatdan

¹ Дима А. Принципы сравнительного литературоведения. – М.: Прогресс, 1977. – С.121.

asoslab bergan. «G'arb va Sharq», «Adabiyot va teatr», «Alisher Navoiy va Renessans» kabi ko'plab ilmiy asarlar muallifi.

Ye.E.Bertels (1890–1957) – rus eronshunos va navoiyshunos olimi. «Firdavsiy», «Navoiy va Attor», «Navoiy va Jomiy», «Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti», «Nizomiy», «Jomiy» kabi o'nlab ilmiy asarlar muallifi. Fan tarixida birinchi bo'lib Yevropa olimlarining «Navoiy forsiy adabiyotning taqlidchisi» degan metodologik xatosini o'z ilmiy asarlari bilan isbotlagan. Deyarli barcha asarlari tilshunos va adabiyotshunos olim I.Mirzayev tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan.

I.G.Neupokoyeva (1917–1977) – rus komparativist olimasi, adabiy aloqalar qiyosiy adabiyotshunoslikning predmeti ekanini o'zining bir qancha ilmiy maqola va monografiyalari bilan isbotlab bergan. I.G.Neupokoyeva adabiy aloqalarni tarixiy ehtiyoj, tajriba almashish maydoni ekanini e'tirof etib, adabiyot hech qachon boshqa millat adabiyotlaridan ayri holda rivojlana olmasligini ta'kidlagan. «Zamonaviy adabiyotlarning o'zaro ta'siri muammolari»(1963), «Tizimli va qiyosiy tahlil asoslari»(1976) kabi fundamental asarlar muallifi.

M.P.Alekseyev (1896–1981)) – rus va G'arbiy Yevropa adabiyotini qiyosan o'rgangan olim, akademik. O'zining «Qiyosiy adabiyotshunoslik» nomli kitobida roman nemis xalqlari adabiyotidagi parallellar nazariyasini yaratgan.

Shuningdek, Emil Zolya va Chernishevskiy, Gogol va Tomas Mur, Monteske va Kantemir kabi adiblarning qarashlarini qiyosan o'rgangan.

P.M.Topper (1923–2010) – rus adabiyotshunos olimi, tarjimon. «Chet el adabiyoti» (Иностранная литература) jurnalining tahririyati a'zolaridan biri. Uning ilmiy izlanishlari asosan urush mavzusini rus va jahon adabiyoti kontekstida o'rganishga bag'ishlangan. Bundan tashqari tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik tanqidi bilan ham shug'ullangan. Tarjima-

ning qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti ekanini ilmiy nazariy jihatdan asoslab, «Tarjima qiyosiy adabiyotshunoslik tizimida» mavzusida fundamental asar yaratgan.

Boris Reysov (1902–1981) – Yevropa adabiyoti bo'yicha mutaxassis. XIX asr fransuz tarixiy romanlarini jahon adabiyot kontekstida tadqiq qilgan. «Stendal romanist»(1939) mavzusida yirik fundamental asari mavjud.

Yu.Borev (1925) – akademik, rus adabiyotshunos olimi. 50 dan ortiq monografiya, 500 dan ortiq maqolalar muallifi, ilmiy asarlari dunyoning 41 ta tiliga tarjima qilingan. «Академические тетради» jurnalining bosh muharriri. Ilm olamida mashhur bo'lgan «Estetika» asari estetika va ijodiy faoliyatni qiyoslab o'rgangan. Yozuvchi uslubini estetik kategoriya sifatida ochib bergan.

R.Zimmer (Rüdiger Zymner) – nemis zamonaviy komparativist olimi. Germaniyaning Bergish universiteti professori¹ Qiyosiy adabiyotshunoslik, nazariyasi va metodologiyasi bo'yicha ko'plab kitoblar muallifi. Olimning 2013-yilda hammualliflikda nashr qilingan ilmiy asari (Handbuch Komparatistik: Theorien, Arbeitsfelder, Wissenspraxis) bu boradagi fundamental asarlaridan biri sanaladi².

V.R.Amineva – rus zamonaviy komparativist olimasi. Rossiyaning Qozon shahridagi filologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya instituti professori. Qiyosiy va chog'ishtirma adabiyotshunoslik bo'yicha bir qancha qo'llanmalar va badiiy asar poetikasi, semiotikasi, semantikasi bilan bog'liq ko'plab ilmiy maqolalar muallifi.³

¹ www.germanistik.uni-wuppertal.de/de/teilfaecher/neuere-deutsche-literatur/personen/ruediger-zymner.html

² Handbuch Komparatistik: Theorien, Arbeitsfelder, Wissenspraxis / Hrsg. von Zymner R., Höltner A. – Stuttgart: Verlag J.B. Metzler, 2013. – 406 s.

³ https://scholar.google.ru/citations?user=_id2N4AAAAJ&hl=ru

GLOSSARIY

Sintetizm – fransuz tilida qo‘shish, jamlash degani. Impressionizm (san‘atning barcha turlarida taassurot qoldirish) ning bir ko‘rinishi. Adabiyotdagi sintetizm har xil ijodiy uslublardan unumli foydalanish, jamlash, mazmun va shakl jihatdan noyob asar yaratish.

Mentallik – u yoki bu millat xususiyatidan kelib chiqadigan tafakkur tarzi, olamni milliy asoslarga tayanib idrok qilish. (Chingiz Aytmatov, O‘tkir Hoshimov, Muhammad Yusuf asarlarida mentallik kuchli).

Retseptiv estetika – (qabul qilish) Estetikaning bir yo‘nalishi bo‘lib, matn va kitobxon orasidagi estetik dialogdir, u yoki bu asarning kitobxon tomonidan qabul qilinishi.

Intertekst(lik) – (1967-yilda fransuz olimasi Yuliya Kresteva fanga kiritdi) matnlarning o‘zaro aloqaga kirishuvi. Adabiy matnlarning o‘zaro aloqasi.

Paratekst(uallik) – epigraf, mavzu, umuman matn atrofidagi unsurlar bilan bog‘liqligi.

Metatekst – asosiy matn yoki badiiy kitob bilan bog‘liq matnlar va kitob (asar)lar aloqasi. Shekspirning «Romeo va Julietta» asari boshqa shunga o‘xshash asarlar uchun metatekst vazifasini bajara oladi.

Gipertekst – birinchi marta kompyuter lingvistikasida paydo bo‘lgan. Havolalar orqali katta matnlar yoki havolalarga o‘tish.

Arxitekst – matnlarning janr jihatdan bog‘liqligi. Tipologik o‘xshashliklari va farqlari.

Imagologiya – («image» – tasvir) bir xalq adabiyotida o‘zga xalqning imidjini yaratish. (Rus nigohida Navoiy ijodi, Немсы глазами русских). Vaxtin imogologiyaning asoslari yaratib, Чужое – свое (O‘zganiki – o‘zimizniki) nazariyasini yaratgan. «Эстетика словесного творчества» kitobida ochib berilgan.

Vorislik – an‘analarga sodiq qolish (Navoiy ijodida antik an‘analar, Xamsachilik).

Semiotika – belgilar haqidagi fan. Adabiyotdagi semiotika bu adabiyotning barcha unsurlarini mayda detallarigacha tahlil qilish, umumiy va xos tomonlarini aniqlash. I.Steblevaning «Семантика газеля Бабура» kitobi semiotik tahlil namunasidir. Asoschisi Yuriy Lodman (Latviya XX asr).

Tipologiya – genetik jihatdan o‘zaro bog‘lanmagan, tili, tarixi, madaniyati tamomila farq qiladigan xalqlar adabiyotida mushtarak jihatlarni aniqlashga yordam beradigan komparativistik tushuncha hisoblanadi.

Qiyoslash tipologiyasi – umumiy xususiyatlariga ko‘ra (bitta til oilasiga kirishi, janr, etnik xususiyatlariga ko‘ra) u yoki bu adabiyot namunalarining qiyoslanishi. Tipologiya natijasida ayrim til va adabiyotga xos umumiy qonuniyatlar shakllanadi.

Motiv – psixologiyada biron xatti-harakatga turtki beruvchi sabab, adabiyotda syujetning takrorlanuvchi unsuri. Masalan, muhabbat motivi, do‘stlik motivi. Adabiy tushuncha sifatida birinchi marta A.N.Veselovskiyning «Syujetlar poetikasi» (Поэтика сюжетов, 1906) asarida ilmiy jihatdan asoslangan. Olimning fikricha, motivlar kombinatsiyasi syujetni yuzaga keltiradi.

Adabiy arxetip – badiiy asarlarda ko‘p uchraydigan va takrorlanadigan obrazlar, syujetlar, motivlar. Masalan, detektiv

asarlarda qotil va maqtul obrazi, xazina izlash syujeti, muhabbat motivi va h.k.

Sayyor syujetlar – bir xalq adabiyotidan boshqa bir xalq adabiyotiga, ayniqsa, folkloriga ko‘chib yuruvchi syujetlar. Masalan, uch og‘ayni botirlar, uyqudagi malika, sirli orol bilan bog‘liq syujetlar. Atama birinchi marta nemis olimi T.Benfey tomonidan qo‘llanilgan. U 1859-yilda hind adabiyoti mumtoz namunasi «Panchatantra»ni o‘rgana turib, undagi har bir hikoyatga adabiy parallel, ya’ni boshqa xalqlar adabiyotida shunga o‘xshash syujet topadi va syujetlar migratsiyasi (ko‘chishi) haqidagi nazariyani yaratadi. Sayyor syujetlarni adabiy hodisa sifatida o‘rganish, Sharq va G‘arb adabiyoti aloqalarini yoritish maqsadida T.Benfey «Orient und Occident» deb nomlangan davriy jurnal chiqara boshlaydi. Uning bu boradagi nazariy qarashlarini rus olimi V.M.Jirmunskiy davom ettirgan¹. Sayyor syujetlarni kuzatish asosida turli millat adabiyotlarida yaratilgan nasr va nazm namunalarini keng o‘rganish, adabiy hamkorlikning muhim jihatlarini aniqlash mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Аминова В.Р. Теоритические основы сравнительного и сопоставительного литературоведения. Учебное пособие. – Казань, 2014.
2. Азизов К., Каюмов О. Жаҳон адабиёти тарихи (XVIII – XX асрлар). – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
3. Академические школы в русском литературоведении / Отв. ред. П.А.Николаев. – М., 1975.
4. Алексеев М.П. Сравнительное литературоведение. – М.: Наука, 1983.
5. Vakhronova D. Literatura comparada. – Tashkent: Turon, 2019.
6. Бекметов Р.Ф. Литературная компаративистика как методологическая проблема // Филология и культура. №22. – М., 2010. – С.62 – 69.
7. Бройтман С.Н. Историческая поэтика. Учебное пособие. – М., 2001.
8. Бойназаров Ф. Жаҳон адабиёти. – Тошкент: Зарқалам, 2006.
9. Бекметов Р.Ф. Литературная компаративистика как методологическая проблема // Филология и культура. №22. – М., 2010. – С.62 – 69.
10. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М., 1989.
11. Гиленсон Б.А. История зарубежной литературы от античности до середины XIX века. Учебник для бакалавров. – М.: Юрайт, 2014.
12. Данилина Г.И. Сравнительное литературоведение. Хрестоматия. – Тюмень, 2011.
13. Дима А. Принципы сравнительного литературоведения. – М., 1977.
14. Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М., 1979.
15. Дўстмухамедов Қ. Нобель мукофотини олган адиблар. – Тошкент: Маънавият, 2002.
16. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари) / Тўплаб нашрга тайёрловчилар: Шарафутдинова М., Тўйчиева Ш. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 390 б.
17. Ильин И.П. Современные концепции компаративистики и сравнительного изучения литератур. – М., 1987.

¹ Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1979.

18. Проблемы современной компаративистики / Сост. Е.Луценко, И. Шайтанов. – М., 2011.
19. Сравнительное литературоведение. Хрестоматия; учеб. пособие для студентов вузов / Отв. ред. Г.И.Данилина. 2-е изд., испр. и доп. – Тюмень: Изд-во ТюмГУ, 2011. – 632 с.
20. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Муҳаррир, 2011.
21. Конрад Н.И. К вопросу о литературных связях // Запад и Восток. – М., 1966.
22. Конрад Н.И. О некоторых вопросах истории мировой литературы // Народы Азии и Африки. 1966. №1.
23. Конрад Н.И. Проблемы современного сравнительного литературоведения // Изв. АН СССР. Отделение литературы и языка. 1959. Т.18. Вып.4.
24. Кокорин А.А. Сравнительный анализ: теория, методология, методика. – М., 2009.
25. Минералов Ю.И. Сравнительное литературоведение (Компаративистика). Учебник. – М.: Юрайт, 2018.
26. Неупокоева И.Г. История всемирной литературы. Проблемы системного и сравнительного анализа. – М., 1976.
27. Норматова Ш. Жаҳон адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2008.
28. Пруцков Н.И. Историко-сравнительный анализ произведений художественной литературы. – Л.: Наука, 1974.
29. Реизов Б.Г. Сравнительное изучение литературы // История и теория литературы. Сб. ст. – Л., 1986.
30. Силантьев И.В. Поэтика мотива. – М., 2004.
31. Сравнительное и сопоставительное литературоведение. Хрестоматия / Составители: В.Р.Аmineва, М.И.Ибрагимов, А.З.Хабибулина. – Казань, 2001.
32. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
33. Топер П.М. Перевод в системе сравнительного литературоведения. – М., 2000.
34. Шайтанов И.О. Триада современной компаративистики: глобализация – интертекст – диалог культур // Проблемы современной компаративистики. – М., 2011.
35. Қажумов О. Жаҳон адабиёти тарихи (V – XVIII). – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.

36. Qosimov A., Hamroqulov A., Xo‘jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
37. Қосимов А. Адабиётда типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсир. – Тошкент: Фан, 2004.
36. Эшонбобоев А. Қиёсий-тарихий метод ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008. №4. – Б.38 – 46.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Адибларнинг Нобель маърузалари. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2008.
2. Аверинцев. С.С. Древнегреческая поэтика и мировая литература // Поэтика древнегреческой литературы. – М., 1981.
3. Алексеев М.П. Пушкин и Шекспир // Сравнительно-исторические исследования. – Л., 1972.
4. Бахтин. М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М., 1963.
5. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари / У.Жўракулов таржимаси. – Тошкент: Академнашр, 2015. – 288 б.
6. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М., 1975.
7. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М., 1979.
8. Берков П.Н. Проблемы исторического развития литературы. – Л., 1981.
9. Беркалиев Т.Н. Особенности компаративистики как науки и метода исследования // Библиосфера. №1. – Новосибирск, 2009. – С.10 – 16.
10. Богаткина М.Г. О формировании новой парадигмы в современной компаративистике // Международная научная конференция. – Казань, 2004. – С.302 – 304.
11. Большакова А.Ю. Типология и менталитет (К проблеме русско-западных межлитературных схождений) // Филологические науки. 1996. №6.
12. Борев Ю.Б. Эстетика. – М., 1969.
13. Восток– Запад: Исследования. Переводы. Публикации. – М., 1989.
14. Восточная поэтика. Специфика художественного образа. – М., 1983.
15. Взаимосвязи и взаимодействие национальных литератур: Материалы дискуссии 11 – 15 янв. 1960 / Редкол. И.И.Анисимов [и др.]. – М., 1961.

16. Виппер Ю.Б. «Типологические схождения» в изучении мирового литературного процес-са // Классическое наследие и современность. – Л., 1981.
17. Волков И.Ф. Творческие методы и художественные системы. – М., 1989.
18. Гринцер П.А. Эпохи взаимодействия литератур Востока и Запада. – М., 1997.
19. Историческая поэтика. Литературные эпохи и типы художественного сознания. – М., 1994.
20. XX аср жахон шеърляти / Нашрга тайёрловчи Ҳабиб Абдиев. – Тошкент, 2011.
21. Женетт Ж. Работы по поэтике. Фигуры. – М., 1998.
22. Жирмунский В.М. Эпическое творчество славянских народов и проблемы сравнительного изучения эпоса // Исследования по славянскому литературоведению и фольклористике. – М., 1960.
23. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.
24. Каримов Ш. Немис адабиёти тарихи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
25. Литературные архетипы и универсалии. – М., 2001.
26. Лотман Ю.М. Статьи по семиотике культуры и искусства. – СПб., 2002.
27. Мелетинский Е.М. Введение в историческую поэтику эпоса и романа. – М., 1986.
28. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М., 1995.
29. Мелетинский Е.М. От мифа к литературе. – М., 2001.
30. Надъярых Н.С. Типологическое исследование (принципы, задачи, перспективы) // Вопросы литературы народов СССР. – Киев, 1975. Вып. 1.
31. Наследие Александра Веселовского. Исследования и материалы / Редкол.: П.Р.Заборов (отв. ред.) [и др.]. – СПб., 1992.
32. Николаев П.А. Типология и компаративистика: современная жизнь понятий // Филологические науки. 1996. №3.
33. Комилов Н. Ибн Сино ва Данте. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989.
34. Котенко В.П. Компаративистика – новое направление методологии анализа научной деятельности и развития науки // Библиосфера. №3. – Новосибирск, 2007. – С.21 – 27.
35. Сувон Мели. Навоий ва Данте Юксак фазоларда учрашув // Жахон адабиёти. 1998. №2. – Б.6 – 12.
36. Поспелов Г.Н. Проблемы исторического развития литературы. – М., 1972.
37. Рифтин Б.Л. Типология и взаимосвязи средневековых литератур // Типология и взаимосвязи средневековых литератур Востока и Запада. – М., 1974.
38. Сравнительное литературоведение: теоретический и исторический аспекты: Материалы международной конференции «Сравнительное литературоведение» (V Поспеловские чтения) / Ред. коллегия: П.А.Николаев, М.Л.Ремнёва, А.Я.Эсалнек. – М., 2003.
39. Саидов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. – Тошкент: Академия, 2004.
40. Сулаймонова Ф. Шекспир Ўзбекистонда. – Тошкент: Фан, 1978.
41. Чернец Л.В. Литературные жанры (проблемы типологии и поэтики). – М., 1982.
42. Эсалнек А.Я. Типология романа. – М., 1991.
43. Pierre Brunel, Claude Pichois, André – Michel Rousseau. Qu'est-ce que la Littérature Comparée ? Armand Colin. – Paris, 2006.
44. Comparative Literature in an Age of Globalisation. The Johns Hopkins University Press, 2006.
45. Fin d'un millénaire. Rayonnement de la littérature comparée, textes réunis par Pascal Dethurens et Olivier – Henri Bonnerot. – Strasbourg: Presse Universitaire de Strasbourg, 2000.
46. Comparative Literature in an Age of Multiculturalism, dir. Charles Bernheimer. – Baltimore: The Johns Hopkins University Press, 1995.
47. Clemens R. J. Comparative Literature as Academic Discipline. A Statement of Principles, Praxis, Standards. – New York: The Modern Language Association of America, XXII.

Internet saytlari

1. [https:// www.ziyouz.uz](https://www.ziyouz.uz)
2. [https:// www.e.adabiyot](https://www.e.adabiyot)
3. <https://www.khurshid.davron.uz>
4. <https://www.kitobxon.com>
5. <https://www.tashgiv.uz>
6. <https://cyberleninka.ru>
7. <https://www.cairn-int.info/journal-revue-de-litterature-comparee.htm>
8. [https:// www.imli.ru](https://www.imli.ru)

9. <https://www.elle.ru/stil-zhizni/books/mirovaya-klassika>
10. <http://elibrary.ru/>
11. <http://www.philology.ru/>
12. <http://biblioclub.ru/>
13. <http://www.tmnlib.ru/>
<http://znanium.com>

**QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK
YO'NALISHIDAGI ILMIIY ISHLAR**

(o'zbek adabiyotshunosligida, xronologik tartibda)

1. Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского языка на узбекский язык. Автореф. дисс... к.ф.н. – Ташкент, 1957.
2. Клименко А.А. К вопросу об украинско-узбекских литературных связях. Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967. – С.117.
3. Мирзоев А. Фоний ва Ҳофиз // Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.53 – 62.
4. Гафурова Р. Развитие перевода в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1973.
5. Очилов Э. Немис поэзиясидан ўзбек тилига таржиманинг баъзи масалалари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1974.
6. Отабекова А. Принципы передачи своеобразия узбекской поэзии в русских переводах. Дисс... к.ф.н. – Ташкент, 1975.
7. Каримов Н. Пушкин ва ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 1980.
8. Намазов Н. Узбекско-русские литературные связи (Х.Алимджан и А.Толстой). Дисс... к.ф.н. – Самарканд, 1981.
9. Якубов С.Б. К проблеме взаимовлияния и взаимообогащения литератур на основе материалов литературных связей Узбекистана и Германской Демократической Республики, 1960 – 1975 гг. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – С.18.
10. Сотимов У. Немис адабиётда Бобур ва Алишер Навоий ижоди // Адабий мерос. 1984. №2. – Б.63 – 64.
11. Воҳидов Р. «Мажолис ун-нафоис» таржималари. – Тошкент: Фан, 1984
12. Исҳоқов Ё. «Хамса» поэтикасининг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1985. №1. – Б.10 – 15.
13. Олимов С.Х. Проблемы воссоздания и трансформации поэтических фигур в переводе произведений Алишера Навои. Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985.

14. Хамраев Х.К. Воссоздание национального колорита произведений узбекской советской прозы во французских переводах (на материале произведений Айбека и А.Каххара). Дисс... к.ф.н. – Ташкент, 1988.
15. Сотимов У. Исследования жизни и творчества Алишера Навои в западноевропейском востоковедении. Дисс... докт. филол. наук. – М., 1988.
16. Сотимов У. Навоий хусусида академик А. Курелла фикрлари // Гулистон. 1990. №7. – Б.8 – 9.
17. Холбеков М. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в контексте перевода, критики и восприятия). Дисс... д.ф.н. – Ташкент, 1991.
18. Джураев К. Сопоставительное изучение поэтических переводов в контексте межлитературных и межфольклорных связей. На материале русских переводов «Хамсы» А. Навои и узбекского эпоса «Алпамыш». Дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1991.
19. Умурова Г. Зулфия ижоди ва рус адабиёти. Ф.ф.н... дис. автореф. – Тошкент, 1993.
20. Очилов Э. XX аср француз шеърляти ўзбек тилида (таржимада мазмун ва шакл бирлиги масаласи). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1994.
21. Каримов Р. «Бобурнома»даги шеърлар хорижий таржимасининг қиёсий таҳлилдани. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1994.
22. Рустамов Э. Некоторые вопросы сравнительного изучения узбекской литературы XV века с другими восточными литературами. Дисс... д.ф.н. – Ташкент, 1996.
23. Шамусаров Ш. Историко-сравнительный анализ арабского и узбекского фольклора. Дисс... д.ф.н. – Ташкент, 1997.
24. Абдуллажонов А. Навоий лирикаси бадииятини немисча таржималарида қайта яратиш ва татбиқ этиш. Филол. фан. номз... дисс. – Ташкент, 1998.
25. Қосимов А. Адабиётда болалик маънавий-ахлоқий категория сифатида (А. де Сент-Экзюперининг «Кичкина Шахзода» ва Ч.Айтматовнинг «Оқ кема» асарлари асосида). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1999.
26. Бақаева М. Англия, АҚШ адабиётидан ўзбек тилига шеърлар таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари. Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2004.

27. Ҳамроева Д. Бобораҳим Машраб ғазаллари поэтикаси. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2005. – 136 б.
28. Қурамбоева Г. Миртемирнинг «Қорақалпоқ дафтари» туркуми ва ўзбек қорақалпоқ адабий алоқаларнинг тараққиёти. Филол. фан. номз... дисс. – Нукус, 2005.
29. Абдуллаева Р. Ғарб олимлари Навоий ва Бобур ижоди ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. №1. – Б.40 – 45.
30. Қосимов А. Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсирнинг назарий муаммолари (А.де Сент-Экзюпери ва А.Камю ижоди мисолида). Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2007.
31. Сайдалиев Т. Бобур лирикаси бадииятининг русча таржималаридаги талқини. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2007.
32. Сидиқов Қ. «Қутадғу билиг» асарининг инглизча бадиий таржималари тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009.
33. Ҳаққул И. Ижод иқлими // Шекспир машғали. – Тошкент: Фан, 2009.
34. Маматқулова Х.А. Алишер Навоий ва Вильям Шекспир ижодида бадиий тамойиллар муштараклиги ва ўзига хослик («Лайли ва Мажнун» достони ҳамда «Ромео ва Жульетта» трагедияси мисолида). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009.
35. Шарафиддинова М.О. Особенности поэтики узбекского романа XX века в контексте мировой художественной традиции. Дисс... док. филол. наук. – Тошкент, 2010. – 284 б.
36. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий манбаларининг қиёсий-типологик текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011.
37. Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадиий таржима асослари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011.
38. Бабаева С.Р. Сравнительно-типологические исследования произведений М.Твена и Г.Гуляма. Филология и искусствоведение // Вестник ЧПУ. 2011. – С.175 – 182.
39. Одилова Г. Инглиз ва ўзбек мумтоз шеърляти таржималарида адекватлик муаммолари. Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2011.
40. Халлиева Г.И. XX рус шарқшунослиги ўзбек мумтоз адабиёти тадқиқи. Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2016.
41. Тоджиходжаев М. Ўзбек адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. – Тошкент: Баёз, 2016. – 180 б.
42. Жўрақулов У. Алишер Навоий «Хамса»сида хронотоп поэтикаси. Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2017. – 264 б.
43. Ҳасанова Ш.С. Тўтинома ва Қуш тили туркумидаги асарларнинг қиёсий-типологик ва текстологик тадқиқи. Филол. фан. докт... дис. – Тошкент, 2017.
44. Мирзаева З.И. XX аср ўзбек адабиётининг Америкада ўрганилиши. Филол. фан. докт... дис. – Тошкент, 2017.
45. Камилова С.Э. Развитие поэтики жанра рассказа в русской и узбекской литературе конца XX – начала XXI века. Дис... д.ф.н. – Ташкент, 2016.
46. Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши. Филол. фан. докт... дис. – Тошкент, 2017.
47. Тешабоева З. «Бобурнома» инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий маданий хусусиятлари. Филол. фан. докт... дис. – Тошкент, 2017.
48. Холиқов Б.А. Детектив романларда воқеликнинг бадиий талқинини тизимли моделлаштириш (Марио Пьюзонинг «The Godfather» ва Тохир Маликнинг «Шайтанат» асарлари мисолида). Филол.фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс... – Тошкент, 2018.
49. Тоирова Н.И. Бадиий адабиётда кўзгу ва сурат рамзларининг ғоявий-эстетик вазифалари (Омон Мухтор ва Оскар Уайльд асарлари асосида). Филол.фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс... – Тошкент, 2018.
50. Сапаева Ф.Д. Махтумқули шеърларининг ўзбекча таржималари қиёсий таҳлили. Филол.фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс... – Тошкент, 2018.
51. Хажиева Ф.М. Биографик роман жанри хусусиятлари (И.Стоун, М.Қориев ва Н.Норматов асарлари асосида). Филол.фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс... – Тошкент, 2018.
52. Салимова Д. Шеърлий таржимада муаллиф бадиий нияти ва поэтик маҳоратининг қайта ифодаланиши (Ғафур Ғулум ва Ойбек шеърларининг таржималари мисолида). Филол.фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс... – Тошкент, 2018.
53. Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2018.
54. Ҳошимова Д. «Бобурнома» матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2018.
55. Дадабоев О.О. Ғарб ва Шарқ адабий контекстида Амир Темур шахси талқини. Филол.фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс... – Тошкент, 2019.

56. Жўраев Ж.О. Шарафиддин Али Яздийнинг «Рисолаи муаммо»си текстологик ва қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2019
57. Исмоилов И.А. Алишер Навоий «Садди Искандарий» достонининг қиёсий таҳлили. Филол.фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс... – Тошкент, 2019.
58. Суванов З. Тоғай Мурод насрида образлар поэтикаси. Филол. фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс... – Тошкент, 2019.
59. Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисоаларнинг қиёсий таҳлили. Монография. – Тошкент: Ta'lim-media, 2019.
60. Умурзоқов Б.С. Алий Сафийнинг илмий-адабий мероси ва унинг «Рашаҳот айну-л ҳаёт» асарининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол.фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс... – Тошкент, 2019.
61. Султанов Т.И. Алишер Навоий ва Озарбойжон адабиёти: тарихий илдизлар, аъналар, ворисийлик (Кишварий ва Содиқий асарлари мисолида). Филол.фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс... – Тошкент, 2020.
62. Қурбонов П.А. Байрон ижодида Шарқ ва шарқона мотивлар тавсифи (қиёс ва таржима) - Филол.фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс...-Т.,2020
63. Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. Филол.фан. бўйича фалс. докт.(PhD) дисс...Тошкент, 2020.
64. Садиқов З.Я. Юсуф Хос Ҳожиб «Қутадғу билиг» асарининг немисча ва инглизча таржималари қиёсий таҳлили. Филол.фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс... – Тошкент, 2020.
65. Абдуллаева Р Немис-ўзбек адабий алоқаларининг шаклланиши, тараққиёт тарихи ва илмий асослари (адабий алоқа, таржима ва таъсир масалалари). Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2020.
66. Маткаримова С. Анъана, янгилик ва бадий маҳорат (Хоразм шоирлари ижодида Навоий аъналар мисолида). Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2020.
67. Қобилова Н.С. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадий психологизм. Филол.фан. бўйича фалс.докт.(PhD) дисс...– Тошкент, 2020

MUNDARIJA

Kirish	3
Filologik komparativistika: mazmuni va mohiyati	6
Adabiy komparativistikaga xos xususiyatlar.....	7
Qiyosiy adabiyotshunoslik fan sifatida	11
Qiyosiy tahlilning ilmiy-nazariy asoslari va prinsiplari	14
Qiyosiy tahlilning vazifalari	16
Qiyoslash jarayonidagi eng muhim bosqichlar	18
Qiyoslanishi mumkin bo'lgan tipik vaziyatlar	19
Qiyosiy tahlil metodologiyasi	23
Qiyoslash natijalarini baholashning mezonlari	27
Qiyosiy tahlil natijalarining xolisligini ta'minlash shartlari.....	28
Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti sifatida	30
Tarjima nazariyasiga oid muhim tushunchalar:	31
Asar poetikasi – komparativistika obyekti	37
Adabiyotlararo jarayonlarning shakllari	42
O'zbek adabiyotshunosligida qiyosiy tadqiqotlar	53
Oybek va jahon adabiyoti	55
Ishq, dard va isyon shoiri	67
«Xamsa» obrazlar tizimida «oshiq», «ma'shuqa», «raqib» uchligi.....	71
Bahrlar va ulardan hosil bo'luvchi vaznlar qiyosi	84
Biografik romanda g'oya va kompozitsiyaning qiyosiy talqini	90
Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm	100
Omon Muxtor va Oskar Uayldning badiiy-estetik olami.....	105
Alisher Navoiy va Vilyam Shekspir ijodida badiiy tamoyillar mushtarakligi va o'ziga xoslik.....	111
«Boqchasaroy fontani» poemasi va Mirtemir ijodi	116
She'riy talqinda ekvivalent va adekvat yondashuv	119
«Saddi Iskandariy» (Navoiy) va «Iskandarnoma» (Nizomiy) debochalari	129
Alisher Navoiy ijodining Ozarboyjon adabiyotiga ta'siri	134
Mustaqil izlanish uchun mavzular.....	138
Komparativist olimlar	140
Glossariy	146
Adabiyotlar ro'yxati	149

Ilmiy-ommabop nashr

Gulnoz Xalliyeva

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

Muharrir: Abdulla SHAROPOV
Badiiy muharrir: Bahriddin BOZOROV
Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV
Sahifalovchi: Inomjon O'SAROV
Musahhih: Mahfuza IMOMOVA

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 18.12.2019-y.

Bosishga ruxsat etildi: 14.12.2020-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 84x108 $\frac{1}{32}$. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t.: 6,8. Shartli b.t.: 8,4.

Adadi: 500 nusxa.

Buyurtma №

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

«PRINT LINE GROUP» XK bosmaxonasida chop etildi.

100096, Toshkent shahri Bunyodkor shohko'chasi 44-uy.